

YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

TOSHKENT – 2013

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtalik vazirligi
tomonidan oly o'quv yurtlarining 5340800 – «Soliglar va soliqqa
tortish» bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan*

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2013*

UO'K: 336.2(075)
KBK 65.261.4ya73
/A-70 2

Mualliflar

**M.I. ALIMARDONOV, S.K. XUDOYQULOV,
O.A. YUSUPOV, A.T. AGZAMOV**

Mas'ul muharrir

O.T. Eshboyev — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar

D. Sh. Xodjayev — Toshkent shahar Shayxontoxur tumani Davlat soliq inspeksiyasi «Yuridik shaxslarga soliq solish» bo'limi boshlig'i;

Q.T. Bazarov — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti «Davlat moliyasi va soliqlar» kafedrasи dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Y-70 Yuridik shaxslarni soliqqa tortish: darslik/M.I. Alimardonov, S.K. Xudoyqulov, O.A. Yusupov, A.T. Agzamov; mas'ul muharrir O.T. Eshboyev. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. — Toshkent: Cho'lpion nomidagi NMIU, 2013. 296 b.
ISBN 978-9943-05-609-1

Mazkur darslikda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq tizimida yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, ularidan undiriladigan umum davlat va mahalliy soliqlarning iqtisodiy mohiyati, turlari, yuridik shaxstarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari o'z aksini topgan.

Ushbu darslik oliy ta'lifning 340000 — «Iqtisod va biznes» ta'lif sohasidagi 5340800 — «Soliqlar va soliqqa tortish» ta'lif yo'naliishlari talabalari, davlat soliq xizmati organlari, moliya va bank xodimlari, professor-o'qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

UO'K: 336.2(075)
KBK 65.261.4ya73

ISBN 978-9943-05-609-1


© M.I. Alimardonov va boshq, 2013
© Cho'lpion nomidagi NMIU, 2013

KIRISH

Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar davlatning barcha vazifalarini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan moliya manbalaridan biri bo'lib, u davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda asosiy vositadir. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar bo'yicha soliq yukini kamaytirish kichik biznes subyektlarining ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishda asosiy o'rinni tutadi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat va mahalliy soliqlarning iqtisodiy mohiyati, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani alohida o'rinni tutadi.

2012-yil 19-yanvar kuni mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rzasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishga xizmat qilayotganligi e'tirof etildi. «Izchillik bilan amalga oshirilayotgan, birinchi navbatda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.



11662

Xususan, 2011-yilda soliq yuki, 1991-yil bilan taqqoslaganda, yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 2 barobar kamayib, 4,2 foizdan 22 foizga tushganini qayd etish zarur.

2011-yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xo'jalik yurituvchi subyektlar investitsiya faoliyatining kengayishga xizmat qildi. Buning natijasida bo'shab qolgan qariyb 80 milliard 300 million so'm mablag'ni, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo'niltirish imkoniyati paydo bo'ldi.

2011-yilda respublikamizda ish haqi 20,2 foizga, budet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa 26,5 foizga o'sdi. Aholining ral daromadlari yil mobaynida 23,1 foizga ortdi. Ayni paytda aholi jami daromadlarining 47 foizi tadbirkorlik faoliyatidn olinmoqda.

Keyingi 10 yilda yurtimizda aholi daromadlari hajmi ,1 barobar ortgan bir paytda, ish haqi, ijtimoiy ko'makka muhok toifalarning daromadlari miqdorini jadal oshirish, ularni qo'llib-quvvatlash va soliq imtiyozlari berish hisobidan aholining eng past va eng yuqori daromadga ega bo'lgan guruhlari o'rtaсидиги тафовут, бoshqacha aytganda, daromadlaridagi farq koeffitsienti 21,1 barobaridan 8,3 barobariga qisqardi. Aytish kerakki, musta'l davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari va bir qator iqtisoiy rivojlangan davlatlar o'rtaсида bu koeffitsient eng past ko'rsatkijlardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda o'tgan yillar davomida ish haqi va pensiyalarnig xarid qobiliyati izchil va barqaror o'sgani aholining hayot daraasi va sifati ortib borayotganining yaqqol tasdig'idi.

Soliq yukini, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliq yukini sezil'li darajada kamaytirish belgilanmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirilishi rejala-tirilmoqda. Shu bilan birga, jismoniy shaxslardan olinadiн

daromad solig'ining eng past stavkasi 10 foizdan 9 foizga pasaytirilganini qayd etish lozim. Bu, avvalo, kam ish haqi to'lanadigan ishlovchilar toifasi daromadlarining ko'payishiga sezilarli ravishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir»¹.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rurasida islohotlarimizning keyingi bosqichida yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha umumiylisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilinganligi va joriy etilganligi ta'kidlab o'tildi. «Islohotlarimizning keyingi bosqichida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Xususiy korxona to'g'risida», «Valutani tartibga solish to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha umumiylisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi.

Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallash-tirish va modernizatsiya qilishda nafaqat mustahkam huquqiy asos, balki amalga oshitalayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda».²

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralarini» hamda «2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini

¹ Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарилиган йил бўлади. 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруzasasi. —«Халқ сўзи», 2012 йил 20 январь (№ 14) 2-бет.

² Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янача чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза). «Халқ сўзи», 2010 йил 13 ноябрь (№ 220) 4-бет.

yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi»¹ nomli asar va ma'ruzalarida keltirilgan ma'lumotlar, asosiy tushuncha va qarashlar, ustuvor yo'nalishlar va xulosalarni puxta o'zlashtirishlari, kelgusi faoliyatlarida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondashishlarini ta'minlash fanning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, yuridik shaxslardan undiriladigan umum-davlat va mahalliy soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soliq tizim-dagi ahamiyati, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib, ularning bilimlarini chuqurlash-tirish, fan bo'yicha nazariy va amaliy bilim ko'nikmalarini hosil qilish lozimligini ko'rsatmoqda.

Ushbu fan yuridik shaxslarni soliqqa tortish tushunchasi, yuridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat va mahalliy soliqlarning iqtisodiy mohiyati, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy prinsiplarini o'rgatishda qo'l keladi. Shuningdek, «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani mutaxassislik fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

¹ Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағищланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруzasи. – «Халқ сўзи», 2012 йил 20 январь (№ 14) 2-бет.

I BO'LM

YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH FANINING MAQSADI, PREDMETI VA VAZIFALARI

1-BOB

«YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH» FANINING PREDMETI, MOHIYATI VA MAQSADI

1.1. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining maqsadi va vazifasi

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi, yuridik shaxslardan undiriladigan umum davlat va mahalliy soliqlarning iqtisodiy mohiyati va soʻliq tizimidagi ahamiyati, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turlari, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning oʻziga xos xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirib, yuridik shaxslarni soliqqa tortish boʻyicha bilimlarni chuqurlashtirish, fan boʻyicha nazariy va amaliy bilim va koʼnikmalarini hosił qilishdan iborat.

Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga koʼtaradigan yil boʼladi»¹ nomli maʼruzalarida keltirilgan maʼlumotlar, asosiy tushuncha va qarashlar, ustuvor yoʼnalishlar va xulosalarni puxta oʼzlashtirishlari, kelgusi faoliyatlarida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondashishlarini taʼminlash fanning oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Ushbu fan yuridik shaxslarni soliqqa tortish tushunchasi, yuridik shaxslardan undiriladigan umum davlat va mahalliy

¹ Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. 2011 йилнинг асосий яқунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига багишлиган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруzasи. – «Халқ сўзи», 2012 йил 20 январь (№14) 2-бет.

soliqlarning iqtisodiy mohiyati, yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillarini o'rgatishda qo'l keladi. Shuningdek. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani mutaxassislik fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Fanning vazifasi — yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi bo'yicha talabalar va davlat soliq xizmati organlari xodimlarini nazariy hamda amaliy tomondan o'rgatish va soliq amaliyotida tatbiq etishdir.

Shuningdek, rivojlangan chet el mamlakatlarining soliq amaliyotidagi ilg'or tajribalarini o'rganish asosida qilingan xulosalarni iqtisodiyotimizga mos tomonlarini tatbiq etishdan iboratdir.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining asosiy vazifasi yuqori malakali davlat soliq xizmati organlariga mutaxassis kadrlarni tayyorlashda ularni ham nazariy, ham ilmiy, ham amaliy jihatdan o'rganishlarini va bilimga ega bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir.

1.2. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti va o'rganish usullari

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani barcha iqtisodiy fanlari kabi o'zining predmetiga, ya'ni izlanish obyektiga ega. «Soliq tarixi va nazariyasi» fanining predmeti bo'lib, soliqlar va soliq munosabatlarining paydo bo'lishi hamda soliqlarning harakati hisoblansa, «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish» fanida esa jismoniy shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini har taraflama o'rganish, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning harakati, yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini o'rganish, yuridik shaxslarni soliqqa tortish jarayoni «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti bo'lib hisoblanadi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanini o'rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo'linadi.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini tadqiq qilishning ilmiy uslubi dialektik uslubdir. Shuning uchun ham ushbu ilmiy uslub barcha fanlarning, shu jumladan «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining ham nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi.

Dialektika iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, harakat va rivojlanishida tadqiq qilishni talab etadi. Dialektik uslub shuni tadqiq etadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo'ladi, bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun ushbu uslub tadqiq etishning induksiya va deduksiya usullarini o'z ichiga oladi.

Xususiy, yakka fakt olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo'lsa induksiya usuli vujudga keladi. Barcha xususiy hollarni o'z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa, deduksiya usuli yuzaga keladi.

Hamma iqtisodiy fanlar kabi «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining ham o'ziga xos ilmiy tadqiq etish usullari mavjud, ya'ni ilmiy tadqiq etish usullaridan biri bu ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati bu tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, tadqiq etilayotgan jarayonning asosiy mohiyatiga e'tibor qaratilib, halal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali elementlarning ta'siri e'tibordan chetda qoldiriladi.

Tabiat va jamiyatdagi voqeа-hodisalar singari iqtisodiy jarayonlarning ham tarkibiy bo'limlarini tadqiq etmay, ya'ni tahlil qilmay turib, ularni ilmiy jihatdan o'rganib bo'lmaydi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani shuningdek, o'z predmetini o'rganishda tahlil va sintez usulidan ham soydalanganadi.

«Tahlil» iborasi grekcha «analiz» so'zidan olingan bo'lib, bu qismlarga bo'lish yoki ajratish, tahlil qilish kabi ma'nolarni bildiradi, ya'ni tahlil murakkab hodisa va predmetlarni tarkibiy

bo'laklarga bo'lish, ajratish asosida ko'rsatkichlarni taqqoslash va tadqiq etish demakdir.

Tahlil usuli vositasida voqeа-hodisalar o'ttasidagi o'zaro bog'liqliklar tadqiq etiladi.

Sintez usuli tadqiq etilgan bo'limlardan olingan xulosa va natijalarni butun bir yaxlit jarayon deb hisoblab, umumiy xulosa chiqarishdan iborat. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliq turlarini hisoblash va davlat budgetiga o'tkazish tartibining amaliy masalalari mazkur usul bilan tadqiq etiladi.

To'liq tasavvur paydo bo'lishi uchun predmetning ayrim tarkibiy elementlarining bog'liqligini va mavjud muammolarni aniqlab olish, umumlashtirish, ya'ni sintez qilish lozim. Tahlilsiz sintez ham bo'lmaydi.

Shuningdek, «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanini o'rghanishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: foiz chiqarish, taqqoslash, koeffitsient, zanjirli bog'lanish, korrelatsiya, matematik usullarni qo'llash, statistik, grafik, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, yuridik shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash va boshqalar.

Yuqorida aytib o'tilgan usullardan foydalanib, yuridik shaxslarning faoliyatini tahlil qilish iqtisodiyotdagи yangi imkoniyatlarni topishda yordam beradi va yuridik shaxslarni soliqqa tortish samaradorligini yanada oshiradi.

Statistik guruhash usuli – bu ma'lumotlarning ma'lum belgilariga ko'ra guruhiarga ajratish statistik tadqiq etishning muhim usuli hisoblanadi. Statistik usul deb atalishiga sabab shundaki, bunda ko'rsatkichlar bir qancha statistik ma'lumotlarni guruhlarga bo'lish asosida o'rjaniladi. Statistik guruhash usuli orqali iqtisodiy ko'rsatkichlar bir xil bo'lgan guruhlarga ajratiladi va ayrim ko'rsatkichlar o'ttasida bir-biriga bog'liqlik borligini hamda tadqiq etilayotgan voqeа-hodisalarning eng zaruri, muhimani aniqlanadi.

1.3. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning harakatini va yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini chuqur o‘rganish asosida xulosa qilib olin-gan, takrorlanib turadigan munosabatlarni tartibga solib o‘rgatadi.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani «Soliq tarixi va nazariyasi» fani bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki yuridik shaxslardan olinadigan soliq nazariyasi qonuniyatları va soliqqa tortish tamoyillaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi.

Bu fan moliya fani bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Chunki yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar moliya munosabatlarining tarkibiga kiradi. Shuning uchun moliya ham, yuridik shaxslar soliqlari ham pul munosabatlarini ifodalaydi. Bu ikkala fan uchun yagona asos pul munosabatlarining mavjudligidir. Lekin yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar keyinchalik o‘ziga xos bo‘lgan pul munosabatlarini, ya’ni soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy pul munosabatlarini ifodalaydi.

Shuningdek, «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani bakalavriat ta’lim yo‘nalishidagi «Soliq tarixi va nazariyasi», «Moliya», «Buxgalteriya hisobi», «Davlat budgeti», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Iqtisodiy ta’limotlar tarixi», «Makroiqtisodiyot», «Moliya huquqi», «Soliq huquqi», «Moliyaviy menejment», «Soliq statistikasi va prognozi», «Moliyaviy va boshqaruv hisobi» hamda «Chet el mamlakatlari soliq tizimi» va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqdir.

1.4. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari

Davlat soliq xizmati organlari xodimlari o‘zlariga soliq qonunchiligi hujjalarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat nazariy jihatlami o‘rganib qolmasdan,

yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning iqtisodiy mohiyati va obyektiv zarurligi, umumiy asosga ega bo'lgan soliq qonunchiligi tamoyillari, soliqlar va majburiy to'lovlar tizimi, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning turlari va yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmining amaldagi holatini puxta egallagan bo'lishi zarur.

Buning uchun esa yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish kerak.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fani pul munosabatlarini ifodalovchi soliqlarning mohiyati, ularning to'g'ri va egri soliqlarga bo'linishi, budgetga tushish nuqtayi nazaridan umumdavlat (respublika) soliqlari va mahalliy soliqlarga bo'linishi, yuridik shaxslar tushunchasi va ularning soliqlari tarkibi, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning budget daromadlarini shakllantirish va pul muomalasini mustahkamlashdagi ahamiyati, yuridik shaxslar soliqlarini budgetga to'lash tartibi, yuridik shaxslar daromadi (foydasi)dan soliq, daromad (foyda)ga soliq tushunchasi, soliq hisobni tuzish va taqdim etish tartibi hamda to'lash muddatlari, qo'shilgan qiymat solig'i tushunchasi va uni hisoblash usullari, aksiz solig'i tushunchasi va soliq to'lovchilarni guruhlash, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig'i, yuridik shaxstarning (noqishloq xo'jalik) yer solig'i, yer ostidan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, kichik korxonalarning yagona solig'i, kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishining ahamiyati, savdo va umumiyo ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish. O'zbekiston Respublikasida chet el korxonalarining daromadi (foydasi)ni soliqqa tortish, yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar turlari, ularni amaliyatga tatbiq etish uslublari, soliq tizimiga oid boshqa harakatlarni o'z ichiga oladi.

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliqi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi tamoyillariga asoslanadi.

Soliq solishning majburiyligi tamoyili – har bir shaxs soliq qonunchiligidagi belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarini to’lashi shart.

Hech kimning zimmasiga soliq qonunchiligidagi nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarini to’lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

Soliq solishning aniqligi tamoyili – soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar aniq bo’lishi kerak. Soliq to’g’risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to’lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarini, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to’lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo’lishi kerak.

Soliq solishning adolatliligi tamoyili – soliq solish umumiyyidir.

Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar bo’yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo’lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar bo’yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo’lgan imtiyozlar berilishiga yo’l qo’ymaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo’lishi hamda ijtimoiy, irqiylig, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo’llanilishi mumkin emas.

Soliq tiziminining yagonaligi tamoyili – soliq tizimi O’zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to’lovchilarga nisbatan yagonadir.

O’zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning yoki moliyaviy mablag’larning erkin muomalada bo’lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo’ydigan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlar belgilanishiga yo’l qo’ymaydi.

Soliq to’g’risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi tamoyili – soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi shart. Barchaning e’tibori uchun rasmiy e’lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko’rsatmalar bajarilmaganligi

uchun biron-bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi tamoyili – soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, «yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis soliqlarni o'rganishda va ularni qayta to'g'ri hamda to'liq tatbiq etishda unumli foydalanadi. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, talabalar va boshqalar uchun ilmiy salohiyatini oshirishda katta rol o'ynaydi. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarning harakati, yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmini har taraflama o'rganish, yuridik shaxslarni soliqqa tortish jarayoni «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti bo'lib hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining maqsadi va vazifasi nimalardan iborat?
2. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti va o'rganish usullarini tushuntirib bering.
3. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining boshqa fanlar bilan qanday bog'liqligi mavjud?

Asosiy adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2011 йил январь.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Солиқ маслаҳати тўғрисида»ги Қонуни. – Т.: Халқ сўзи, 2006 йил 21 сентябрь.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат солиқ хизмати тўғрисида»ги Қонуни. – Т.: Халқ сўзи, 1997 йил 29 август, 1–2-бет.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 30 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил асосий макроиқтисодий

- кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўгрисида»ги ПК-1675-сонли карори.
5. Каримов И.А. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кутарадиган йил бўлади: 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажхамасининг мажлисидаги маъруzasи. –Халқ сўзи газетаси, 2002 йил 20 январ.
 6. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатаси ва Кенгашигининг қўшма мажлисидаги маъруза). «Халқ сўзи», 2010 йил 13 ноябрь (№220).
 7. Vahobov A., Jo'tayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.: Sharq, 2009 йил, 448-бет.
 8. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005 / 175-b.
 9. Yahyoyev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. (qauda ishlangan) –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. 247-bet.
 10. Налоги и налогообложение: учеб. / Под ред. И.А.Майбурова – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 559 с.
 11. Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: Учеб. пособ. / М.: Эксмо, 2010. – 176 с.
 11. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение: Учебник. – 1^е изд., перераб. и доп.. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 520 с.
 12. www.mf.uz.- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti, sayti
 13. www.soliq.uz.- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitessi sayti

II BO'LIM
YURIDIK SHAXSLAR FOYDASINI SOLIQQA
TORTISH TARTIBI

2-BOB
YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA
SOLIG'INING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**2.1. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va
boshqa majburiy to'lovlar**

Soliqlar deganda soliq qonunchiligidagi belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovleri tushuniladi.

Boshqa majburiy to'lovlar deganda soliq qonunchiligidagi belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovleri, bojxona to'lovleri, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjalarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.
2. Qo'shilgan qiymat solig'i.
3. Aksiz solig'i.
4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar.
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.
6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.
7. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i.
8. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

9. Yagona soliq to'lovi.
10. Yagona yer solig'i.
11. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Biroq, ayrim yig'implar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo'lishi mumkin. Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

2007-yil 23-noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2007-yil 30-noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2007-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov tomonidan tasdiqlangan **2008-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirgan** O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 23-moddasiga asosan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimi quyidagi tarkibga ega:

1. Umum davlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar.
2. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.

Yuridik shaxslardan olinadigan umum davlat soliqlari va boshqa majburiy to'lov larga quyidagilar kiradi:

1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i.
2. Qo'shilgan qiymat solig'i.
3. Aksiz solig'i.
4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar.
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Boshqa majburiy to'lovlar:

1. Davlat boji.
2. Bojxona to'lovları.

Yuridik shaxslardan olinadigan mahalliy soliqlarga quyidagilar kiradi:

1. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq.
2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i.
3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.



22602

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga quyidagilar kirdi:

1. Yagona soliq to'lovi.
2. Yagona yer solig'i.

3. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo'linadi hamda ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatidan kelib chiqib, yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga ega.

2.2. Soliq munosabatlarining subyektlari

Soliq to'lovchi yuridik shaxslar va vakolatli organlar soliq munosabatlarining subyektlari bo'lib hisoblanadi.

Yuridik shaxs deb quyidagilar e'tirof etiladi:


O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot.

Chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti.

O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilot.

Notijorat tashkilotlar deganda foyda olish faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchi (a'zo)lari o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi (2.1-rasm).

**Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy
to'lovfarning turtari**



2. J-razm. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovfarning turtari

Notijorat tashkilotlariga budget tashkilotlari, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.

Soliq to'lovchilar soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarни to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir.

Soliq agentlari soliq qonunchiligiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarни hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Soliq to'lovchining vakillari qonunga yoki ta'sis hujjatiga muvofiq soliq to'lovchining vakili bo'lishga vakolatli shaxslardir.

Vakolatli organlar quyidagilardir:


1. Davlat soliq xizmati organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari.

2. Bojaxona organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona qo'mitasi, Davlat bojaxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojaxona komplekslari va bojaxona postlari.


3. Moliya organlari – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo'limlari.

4. Boshqa majburiy to'lovlarни undirish vazifasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari.


O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxs e'tirof etiladi (2.2-rasm).



Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasi deganda norezident O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e'tirof etiladi (2.3-rasm).



Soliq munosabatlarning subyektlari



2.3-rasm. Soliq munosabatlarning subyektlari

2.3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari tarkibi va soliq solish obyekti

Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar tarkibi:

1. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari.

2. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbayi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lovchi bo'lmaydi:

1. Notijorat tashkilotlari.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganda notijorat tashkilotlar o'zi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydadan soliq to'lovchi bo'ladi.

2. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obyekti quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi nerezidentlarining foydasи.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va O'zbekiston Respublikasi nerezidentlarining soliq qonunchiligidagi muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbayida soliq solinadigan daromadlari.

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtaqidagi farq sifatida soliq qonunchiligidagi, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda soliq qonunchiligidagi muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

O'tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davrida o'tkazilishi lozim bo'lgan zararlar mayjud bo'lsa, soliq solinadigan baza soliq qonunchiligiga muvofiq taqsimlab o'tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

2.4. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

1. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.
2. Boshqa daromadlar.

Soliq to'lovchining qiymati chet el valutasida ifodalangan daromadlari milliy valutada olingan daromadlar bilan jamlangan holda, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida nuzarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Quyidagilar soliq to'lovchining daromadi sifatida qaraalmaydi:

1. Ustav fondi (ustav kapitali)ga olingan hissalar, shu jumladan aksiya (ulush)larni joylashtirish bahosining ularning nominal qiymati (dastlabki miqdori) dan ortiq summasi, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birlashtiriladigan mablag'lar.

2. Muassis (ishtirokchi)lar tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda) yoki muassis (ishtirokchi) ulushining miqdori kamaytirilganda, shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondi (ustav kapitali)ga hissa doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

3. Oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi)ning shartnoma sherik (ishtirokchi)lari umumiylik mulkidagi ulushi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

4. Realizatsiya qilinayotgan tovar (ishlar, xizmat)lar uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo'nak) tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

5. Qonun hujjatlariga muvofiq majburiyatlarni ta'minlash tariqasida garov yoki zaklat tarzida olingan mablag' (mol-mulk yoki mulkiy huquq)lar ularga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tadigan paytga qadar.

6. Budjetdan berilgan subsidiyalar.

7. Agar mablag'(mol-mulk yoki mulkiy huquq)larni boshqa shaxsga c'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa, tekin olingan mablag' (mol-mulk yoki mulkiy huquq)lar, ishlar va xizmatlar.

8. Olingan grantlar va insonparvarlik yordami.

9. Notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta'minoti va uni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko'ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag'lar.

10. Sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta toponi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar.

11. Vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatish yuzasidan boshqa shartnomaga bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno).

12. Ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to'lovining qismi tariqasida olgan moliyaviy ijara (lizing) obyekti qiymatining qoplamasi.

13. Telekommunikatsiya tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirdari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlardan olingan daromadlar.

14. Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyekti muassisulari (ishtirokchilaridan uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xta-

tilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, ushbu mablag'lar jami daromad tarkibiga kiritiladi hamda soliqqa tortiladi.

15. Investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

O'zbekiston Respublikasidagi to'lov manbayida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromaddir.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo'natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo'natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo'lgan haq summasi tushuniladi.

Nashriyot va tahririyatlar uchun gazeta hamda jurnallarni realizatsiya qilishdan olingan tushum ularda reklamani joylash-tirishdan olingan daromadlar kiritilgan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni ijara berishdan foizlar, roylati, daromadlar olish imkonini beruvchi mol-mulkni va mulkiy huquqlarni boshqa shaxslarga foydalanishga berish, shuningdek talab qilish huquqidan boshqa shaxsning foydasiga voz kechishdan olingan daromadlar, agar ushbu xizmatlardan olingan jami daromadlar summasi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarning umumiyligi summasida ustunlik qilsa, xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar deb e'tirof etiladi.

Kredit, sug'urta tashkilotlari, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari uchun soliq qonunchiligidagi ko'r-

satilgan daromadlar xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar deb e'tirof etiladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1. Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda.
2. Bitim shartlari o'zgarganda.
3. Baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalanganda.
4. Bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish soliq qonunchiligidan ko'rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (ishni, xizmatni) yetkazib beruvchi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritishni soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'limgan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilardan iborat:

1. Soliq to'lovchining soliq qonunchiligiga muvofiq asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar.
2. Soliq qonunchiligiga muvofiq mol-mulkni operativ ijara berishdan olinadigan daromadlar.

3. Soliq qonunchiligiga muvofiq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar.
4. Soliq qonunchiligiga muvofiq tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar.
5. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar.
6. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar.
7. Soliq qonunchiligiga muvofiq majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar.
8. Soliq qonunchiligiga muvofiq talablardan o'zganining foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olingan daromadlar.
9. Soliq qonunchiligiga muvofiq ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o'rmini qoplash tarzidagi daromadlar.
10. Soliq qonunchiligiga muvofiq xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar.
11. Soliq qonunchiligiga muvofiq birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar.
12. Undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penya, shuningdek qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to'lanishi lozim bo'lган jarimalar va penya.
13. Soliq qonunchiligiga muvofiq kursdagi ijobiy farg'
14. Dividendlar va foizlar.
15. Royalti.
16. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lмаган operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan boshqa daromadlar qo'shilgan qiymat solig'i summasi chegirilgan holda aniqlanadi.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib

ketishidan olinadigan foyda asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromaddir.

Asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyektlarining chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natijani (foydani yoki zararni) aniqlashda asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyektlarining ilgarigi qayta baholashlardagi ortgan summasining ushbu asosiy vositalar va boshqa mol-mulk obyekti qiymatining ilgarigi qayta baholashlardagi kamayishi summasidan ortgan qismi asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad tarkibiga kiritiladi.

Ijara to'lovining summasi mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromaddir.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromad ijaraga beruvchining foizli daromadidir.

Soliq to'lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar, soliq qonunchiligidida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, soliq to'lovchining daromadi bo'ladi.

Mol-mulk, mulkiy huquqlar tekin asosda olinayotganda oluvchi shaxsning daromadlari bozor qiymati bo'yicha belgilanadi.

Mol-mulkning, mulkiy huquqlarning bozor qiymati hujjalari bilan yoki baholovchi tomonidan tasdiqlanadi. Hujjalari bilan tasdiqlash deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1. Jo'natish, yetkazib berish yoki topshirish hujjalari.
2. Yetkazib beruvchilarning narxlarga oid ma'lumotlari (prays-varaqlar).
3. Ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar.
4. Birja ma'lumotlari.
5. Davlat statistikasi organlarining ma'lumotlari.

Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

1. Fuqarolik qonun hujjalariiga muvofiq da'vo muddati o'tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar.

2. Sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar.

Soliq to'lovchining budjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi qarzining qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summalar daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Talablardan o'zganing foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olinadigan daromadlar asosiy qarz talablari bo'yicha qarzdor tomonidan to'langan summalar, shu jumladan qarzdor tomonidan asosiy qarzdan tashqari to'langan summalar bilan soliq to'lovchi tomonidan olingan qarz qiymati o'rtasidagi ijobiy farq tarzida aniqlanadigan daromadlardir.

Qoplash tarzida olinadigan daromadlarga soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirilgan va joriy soliq davrida o'tni qoplangan xarajatlar va (yoki) zararlar kiradi.

Qoplash summasi qaysi soliq davrida olingan bo'lsa, o'sha soliq davrining daromadi bo'ladi.

Soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarning va (yoki) zararlarning o'tmini qoplash summasi boshqa daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Zaxiralarni tashkil etish xarajatlari soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlangan shubhali qarzlar (tavakkalchilik operatsiyalari) bo'yicha zaxiralar qisqargan hollarda, ularning qisqarish summasi boshqa daromadlar tarkibida hisobga olinadi yoki buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xarajatlarni kamaytiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar deganda faoliyati soliq to'lovchining asosiy faoliyatiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan va mazkur soliq to'lovchining maqsadi bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'limgan xo'jaliklar tushuniladi. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga yordamchi xo'jaliklar, uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha obyektlari, oshxonalar va bufetlar, o'quv kombinatlari hamda shunga o'xshash xo'jaliklar, o'z xodimlariga yoki boshqa shaxslarga xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarishlar va xizmatlar kiradi.

Uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga uy-joy fondi, mehmonxonalar (sayyohlik mehmonxonalar bundan mustasno), boshqa joydan keluvchilar uchun uylar va yotoqxonalar, tashqi 'obodonlashtirish obyektlari. sun'iy inshootlar, suv havzalari, plajlar uchun inshoot hamda jihozlar, shuningdek aholini gaz, issiqlik va elektr bilan ta'minlash obyektlari, uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha, jismoniy tarbiya va sport obyektlariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash uchun mo'ljallangan uchastkalar. sexlar, bazalar, ustaxonalar, garajlar, maxsus mashinalar va mexanizmlar, omborxonalar kiradi.

Ijtimoiy-madaniy soha obyektlariga sog'liqni saqlash, madaniyat obyektlari, bolalar mакtabgacha tarbiya obyektlari, bolalar dam olish oromgohlari, sanatoriylar (profilaktoriylar), dam olish bazalari, pansionatlar, jismoniy tarbiya va sport obyektlari (shu jumladan treklar, otchoparlar, otxonalar, tennis kortlari, golf, badminton o'yinlari uchun maydonchalar, sog'lomashtirish markazlari), aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasining ishlab chiqarishga oid bo'lмаган obyektlari (hammomlar, sauna, kir yuvish, tikish hamda maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa ustaxonalar) kiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar tomonidan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan (olinadigan) mablag'lar summasi va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar faoliyati bilan bog'liq xarajatlar summasi o'rtaidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Valuta hisobvaraqlari bo'yicha, shuningdek chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi ijobiy farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjalariiga muvofiq quyidagi hollarda daromadlar tarkibiga kiritiladi:

- chet el valutasiga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tayotgan sanada shu chet el valutasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori bahoda sotilganda;

- chet el valutasiga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tayotgan sanada shu chet el valutasi O'zbekiston Respublikasi

Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past bahoda sotib olinganda;

– chet el valutasi kursidagi o'zgarish munosabati bilan balansning valutaga oid moddalari tegishli hisobot davri uchun qayta baholanganda.

Baholari chet el valutasida belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun o'zaro hisob-kitoblarni milliy valutada amalga oshiradigan soliq to'lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilingan yoki olingan sanadan ushbu tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanagacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdagi o'zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi ijobiy farq tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanadagi jami daromad tarkibiga buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kiritiladi.

2.5. Yuridik shaxslarning xarajatlarni guruhlash

Xarajatlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

– chegirib tashlanadigan xarajatlar va chegirilmaydigan xarajatlar.

Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi, soliq qonunchiligiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bundan mustasno.

Asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar, soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda esa, qonun hujjatlariga va (yoki) soliq to'lovchining hisobga olish siyosatiga muvofiq rasmiylashtirilgan zararlar ham soliq to'lovchining xarajatlari bo'ladi.

Soliq to'lovchining xarajatlari haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegirib tashlanadi. Agar ayni bir xil xarajatlar xarajatlarning bir nechta muddasida nazarda tutilgan bo'lsa, soliq solinadigan foydani hisoblashda mazkur xarajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq to'lovchi sarflagan va qiymati chet el valutasida ifodalangan xarajatlar qiymati milliy valutada ifodalangan xarajatlar bilan jamlab hisobga olinadi. Mazkur xarajatlarni qayta hisoblash soliq to'lovchi tomonidan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchining xarajatlari chegirib tashlanadigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlari quyidagilardir:

1. Moddiy xarajatlar.
2. Mehnatga haq to'lash xarajatlari.
3. Amortizatsiya xarajatlari.
4. Boshqa xarajatlari.

5. Kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlari.

Quyidagilarga soliq to'lovchining xarajati sifatida qaralmaydi:

1. Vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatish uchun boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishi munosabati bilan, shuningdek komitent yoki boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarga haq to'lash hisobiga vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan topshirilgan mol-mulk tarzidagi to'lovlari, agar bunday xarajatlari tuzilgan shartnomalarning shartlariga muvofiq vositachi yoki boshqa ishonchli vakilning yoxud boshqa topshiriq beruvchining xarajatlari tarkibiga kiritilishi lozim bo'lmasa.

2. Soliq to'lovchi emitent tomonidan topshirilgan, aksiyadorlar o'rtaida aksiyadorlar umumiyligi yig'ilishi qaroriga binoan o'zlariga tegishli aksiyalar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadigan aksiyalarning qiymati yoxud emitentning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilgan taqdirda aksiyalarni aksiyadorlar o'rtaida taqsimlashda dastlabki aksiyalar o'rniga berilgan yangi aksiyalarning nominal qiymati bilan aksiyadorning dastlabki aksiyalarning nominal qiymati o'rta sidagi farq.

3. Boshqa yuridik shaxslarning ustav fondi (ustav kapitali)ga yoki oddiy shirkatga hissa sifatida berilgan mol-mulk, mulkiy huquqlar qiymati.

Moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. Xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

2. Ishlab chiqarilgan va (yoki) realizatsiya qilinadigan tovarlarni o'rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan sotuv oldidan tayyoriash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta'mirlash uchun materiallar va ehtiyot qismlar.

3. Inventar, xo'jalik anjomlari, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo'limgan boshqa mol-mulk.

4. Soliq to'lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdag'i yoqilg'i, energiya, shu jumladan soliq to'lovchining o'zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlari uchun barcha turdag'i energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek energiyani bir shakldan o'zga shaklga o'tkazish va uzatish xarajatlari.

5. Yerlarni rekultivatsiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlari uchun xarajatlar.

6. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar doirasida suv xo'jligi tizimlaridan soliq to'lovchilar tomonidan iste'mol qilinadigan suv uchun to'lov.

7. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida ishlab chiqarish va (yoki) tashish vaqtidagi texnologik yo'qotishlar.

8. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli organ yoki soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan tabiiy kamayish normalari doirasida tovar-moddiy zaxiralari saqlash hamda tashish vaqtidagi yo'qotishlar va buzilishlar.

Moddiy xarajatlarga kiritiladigan tovar-moddiy zaxiralarining qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Agar yetkazib beruvchidan qabul qilingan qaytariladigan tara qiymati olingan tovar-moddiy zaxiralar narxiga qo'shilgan bo'lsa, qaytariladigan tara qiymati ularning ehtimol tutilgan foydalaniishi yoki ularni realizatsiya qilish narxi bo'yicha sotib olish uchun qilingan xarajatlarning umumiy summasidan chiqarib tashlanadi.

Mahsulot yetkazib beruvchidan tovar-moddiy zaxiralar bilan qabul qilingan hamda qaytarilmaydigan tara va o'rov idishlari qiymati ularni sotib olish xarajatlari summasiga kiritiladi. Tarani qaytariladigan yoki qaytarilmaydigan tara jumlasiga kiritish tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish shartnomasi (kontrakti) shartlari bilan belgilanadi.

Moddiy xarajatlar summasi qaytariladigan chiqindilar qiymatiga kamaytiriladi. Qaytariladigan chiqindilar deganda xomashyo (materiallar), yarim tayyor mahsulotlar, issiqlik beruvchi va boshqa turdag'i moddiy resurslarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan, boshlang'ich resurslarning iste'molboplik xususiyatlarini (kimyoviy yoki fizik xossalarni) qisman yo'qotgan va shu tufayli xarajatlar oshib ketgan (mahsulot chiqishi kamayib ketgan) holda foydalaniladigan yoki belgilangan maqsadi bo'yicha foydalanilmaydigan qoldiqlari tushuniladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning texnologiya jarayoniga muvofiq boshqa bo'linmalarga boshqa turdag'i tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) ishlab chiqarish uchun to'laqonli xomashyo (materiallar) sifatida o'tkaziladigan qoldiqlari, shuningdek texnologiya jarayonini amalga oshirish natijasida olinadigan qo'shimcha (yo'l-yo'lakay olingan) mahsulot qaytariladigan chiqindilar jumlasiga kirmaydi.

Qaytariladigan chiqindilar quyidagi tartibda baholanadi:

— bu chiqindilardan asosiy yoki yordamchi ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo'lsa-yu, lekin bunda xarajatlar

oshib ketsa (tayyor mahsulot chiqishi kamayib ketsa), ehtimol tutilgan foydalanish narxida;

– bu chiqindilar chetga realizatsiya qilinsa, realizatsiya qilish narxida.

Mehnatga haq to'lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1. Haqiqatda bajarilgan ish uchun mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi.

2. Ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar.

3. Predmetli ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lanadigan to'lovlar. bundan yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnomalar mustasno.

4. Yuridik shaxsning boshqaruvi organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar.

5. Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar:

– yillik ish yakunlari bo'yicha mukofot;

– yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi lokal hujjalarda nazarda tutilgan to'lovlar;

– kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va mansab maoshlariga ustamalar;

– ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to'lovlar;

– ratsionalizatorlik takliflari uchun to'lovlar.

6. Kompensatsiya to'lovleri (kompensatsiya):

– qonun hujjalari muvofiq amalga oshiriladigan tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish stoji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koefitsiyentlar bo'yicha to'lovlar).

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar,

shu jumladan shunday sharoitlardagi uzlusiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

– texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkaligiga hamda mansab maoshlariga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

– ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'limgan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

– doimiy ishi yo'lida kechadigan yoki ko'chib yurish va harakatlanish xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning jo'nab ketish paytidan qaytib kelish paytigacha yo'lagini har bir sutka uchun to'lanadigan ish haqiga ustamalar;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilganda xodimlarning ish haqiga ustamalar;

– yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishslash jadvalida nazarda tutilgan, ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va (yoki) transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lida ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, mansab maoshi miqdorida to'lanadigan summalar;

– ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqtি umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

– yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishslash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxta (kon)da harakatlanishining me'yoriy vaqtি uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar.

— dala ta'minoti.

7. Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

Qonun hujjatlariga muvofiq:

— yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'tilga haq to'lash, shuningdek undan foydalanilmaganda, shu jumladan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lash;

— noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

— o'qish bilan bog'liq ta'tilga va ijodiy ta'tillarga haq to'lash;

— o'n ikki yoshga to'limgan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'limgan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

— asosiy ish joyi bo'yicha asosiy ish haqi qisman saqlab qolningan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar;

— donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

— O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to'lash;

— qishloq xo'jaligi ishlariga va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolnidanish ish haqi;

— avvalgi ish joyi bo'yicha mansab maoshi miqdorlari muayyan bir muddat davomida saqlab qolningan holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vazifani vaqtinchada bajarib turganda xodimlarga maoshdag'i farqni to'lash;

— yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishi vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha to'lanadigan ish haqi;

— xodimning aybisiz bekor turib qolningan vaqt uchun haq to'lash;

— sog'lig'ining holatiga ko'ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta'siridan holi bo'lgan kamroq haq to'lanadigan ishga o'tkazilganda saqlanadigan avvalgi o'rtacha oylik ish haqini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda to'lash, shuningdek vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalariga ish haqining haqiqiy miqdorigacha qo'shimcha haq to'lash;

— majburiy progul vaqtি yoki kam haq to'lanadigan ishni bajarganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qaroriga ko'ra haq to'lash;

— o'n sakkiz yoshga to'Imagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko'rikdan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash.

— yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun, o'quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan malakali xodimlar mehnatiga haq to'lash.

— oly o'quv yurtini tamomlagandan keyin yosh mutaxassislariga ta'til vaqtি uchun yuridik shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

8. Nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo'shimcha to'lovlar.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiya qilinadigan mol-mulk deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinmaydi:

1. Yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar).

2. Mahsuldor chorva mollari.

3. Kutubxona fondi.

4. Muzey qimmatliklari (muzey ashyolari).

5. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalar.

6. Arxitektura yodgorliklari.

7. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo'lgan obodonlashtirish inshootlari.

8. Qiymati ilgari to'liq chegirilgan mol-mulk.

9. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o'tka-zilmagan kapital qo'yilmalar.

Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo'lgan mol-mulk amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruhlarga taqsimlanadi (2.5.1-jadval).

2.5.1-jadval

Guruhs- lar tartib raqami	Kichik guruhs- lar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizat- siyaning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
I		Binolar, imoratlar va inshootlar	5
	1	Binolar, imoratlar	
	2	Neft vagaz quduqlari	
	3	Neft-gaz omborlari	
	4	Kemaqatnaydigan kanallar, suv kanallari	
	5	Ko'priklar	
	6	Dambalar, to'g'onlar	
	7	Daryo vadengiz prichal inshootlari	
	8	Kotxonalarning temir yo'llari	
	9	Qirg'oqni mustahkamlovchi, qirg'oqni himoyalovchi inshootlar	
	10	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig'imlar	
	11	Ichki xo'jalik va o'jaliklararo sug'orish tarmog'i	
	12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog'i	

2.5. I-jadvalning davomi

	13	Havo kemalarining uchish-qo'nish yo'llari, yo'laklari, to'xtash joylari	5
	14	Bog'larning va hayvonot bog'larining inshootlari	
	15	Sport-sog'lomlashdirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va pamiklar	
	17	Boshqa inshootlar	
II		Uzatish qurilmalari	
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	8
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar	
	3	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	
	4	Magistral quvurlar	
	5	Boshqalar	
III		Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar	
	1	Issiqliktexnika uskunalari	8
	2	Turbina uskunalari va gaz turbinalari qurilmalari	
	3	Elektr dvigateliari va dizel-generatorlar	
	4	Kompleks qurilmalar	
	5	Boshqa kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
IV		Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
	1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va uskunalar	15
	2	Qishloq xo'jaligi traktorlari, mashinalari va uskunalari	
	3	Kommunikatsiyalar va ma'lumotlarni uzatish raqamli elektron uskunalari, raqamli tizimlar uzatish uskunalari, raqamli aloqa o'lcov texnikasi	
	4	Yo'ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va trunking aloqa uskunalari	

2.5. I-jadvalning davomi

	5	Uzatishlar tizimlari kommutatsiyalarining o'xshash uskunalar	
	6	Kinostudiyalarning maxsus uskunalari, tibbiy va mikrobiologiya sanoati uskunalari	
	7	Kompressor mashinalari va uskunalar	
	8	Nasoslar	
	9	Yuk ko'tarish-transport, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunalari, tuproq, karyer hamda yo'l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalar	15
	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunalari, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunalari	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdag'i sig'implar	
	12	Neft qazib chiqarish va burg'ulash uskunalari	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalar	
V	Harakatlanuvchan transport		
	1	Temir yo'lning harakatdagi tarkibi	
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	8
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	20
	5	Yengil avtomobillar	
	6	Sanoat traktorlari	20
	7	Kommunal transport	
	8	Maxsus vaxta vagonlari	10
	9	Boshqa transport vositalari	20
VI	Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalar		
	1	Kompyuterlar	20

	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalarini	20
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	
	4	Boshqalar	
VII		Boshqa guruhlarga kiritilmagan qat'iy belgilangan aktivlar	
	1	Ko'p yillikdov-daraxtlar	10
	2	Boshqalar	15

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo'yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali, biroq soliq qonunchiligidagi belgilangan eng yuqori normadan oshmagan holda hisoblab chiqiladi.

Soliq solish maqsadlari uchun amortizatsiyani soliq qonunchiligidagi belgilanganidan pastroq va soliq to'lovchining hisob siyosatida mustahkamlab qo'yilgan normalar bo'yicha hisoblashga yo'l qo'yiladi.

Soliq solinadigan foydaning to'liq hisoblanmagan amortizatsiya summasiga soliq solish maqsadlarida soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan normalarga zid ravishda qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalar obyektlarini oladigan soliq to'lovchi ushbu asosiy vositalar obyekti bo'yicha amortizatsiya normasini mazkur asosiy vositalar obyektidan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yil (oy)lar soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilashga haqlidir. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning soliq qonunchiligidagi tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan unumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo'lmagan muddatga belgilashga haqlidir.

uchun o'zga yuridik shaxslar tomonidan xodimlarni (texnik personalni) taqdim etishga doir xizmatlar uchun xarajatlari.

– asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy hamda kapital ta'mirlash xarajatlari);

– asosiy vositalarni kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlarining bir maromda kiritib borilishini ta'minlash uchun soliq to'lovchi asosiy vositalarning kelgusi ta'mirlanishi uchun belgilangan tartibda zaxiralar tashkil etishga haqli;

– ijara to'lovlari, shuningdek ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar;

– konservatsiyaga qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

– vakolatli tashkilotlar tomonidan muayyan huquqlar yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berishni nazarda tutuvchi hujjatlarni bergenlik uchun yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlar, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ekspertizadan o'tkazish hamda mahsulotni sertifikatlashtirish bilan bog'liq xarajatlar;

– mahsulotni sotish bozorlarini o'rghanish xarajatlari;

– inventarni, xo'jalik anjomlarini va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfeksiya qilish xarajatlari summasi yoki ularga to'langan haq;

– qat'iy hisobotdagi blanklarni, kvitansiyalar va boshqa hujjatlarni tayyorlash xarajatlari summasi yoki ularni olish uchun to'langan haq;

– tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;

– reklama uchun xarajatlar;

– qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini kiritgan holda mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish tushumi hajmining bir foizi doirasida vakillik xarajatlari. Vakillik xarajatlariiga soliq to'lovchining o'zaro hamkorlik o'rnatish yoki uni saqlab turish, shuningdek soliq to'lovchining boshqaruva va nazorat organlari majlislariga kelgan ishtirokchilarni qabul qilish

hamda ularga xizmat ko'rsatish maqsadlarida qiladigan xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar mazkur shaxslarning rasmiy qabulini o'tkazish, transport ta'minoti, ovqatlanishi va turar joyi, soliq to'lovchining shtatida turmagan tarjimonlar xizmatiga haq to'lash xarajatlaridir.

— kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli ta'mirlash va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatları;

— telekommunikatsiyalar va pochta xizmatlari uchun to'lana-digan haq;

Xizmat safarlari uchun xarajatlar:

— tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safarlari joyiga borish va qaytib kelish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan joyni band qilib qo'yish haqi. Yo'l hujjatlari bo'lмаган taqdirda, xarajatlar temir yo'l transportidagi (yoki agar temir yo'l aloqasi bo'lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo'l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan ko'p bo'l-magan miqdorda chegirib tashlanadi;

— O'zbekiston Respublikasi doirasida tasdiqlovchi hujjatlar asosida joyni ijaraga olish uchun haqiqatda qilingan xarajatlar, shu jumladan joyni band qilib qo'yish xarajatlari. Yashagantlikni tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmasa, mazkur xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegirib tashlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqilganda joyni ijaraga olish uchun qilingan xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida chegiriladi;

— xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida to'lana-digan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

— qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiq-langan boshqa xarajatlar;

— O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan amalga oshiriladigan kompensatsiya to'lovlari;

— soliq to'lovchining faoliyatida talab etiladigan boshqa shaharlik, chet elliq mutaxassislarni ishga taklif qilish bilan bog'liq xarajatlar;

- auditorlik tekshiruvlari bo'yicha xarajatlar;
- maslahat, axborot xizmatlariga, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish va tiklash bo'yicha xizmatlarga haq to'lash;
- bank va depozitariy xizmatlariga haq to'lash;
- soliq to'lovchining faoliyatida zarur bo'lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari;
- qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan hamda soliq to'lovchining xarajatlariga kiritiladigan budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar.
- assosiatsiyalarga, jamg'armalarga va boshqa tashkilotlarga, shu jumladan xalqaro tashkilotlarga to'lanadigan badallar, agar bunday badallarni to'lash soliq to'lovchi faoliyatining amalga oshirilishi uchun majburiy shart bo'lsa yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan amalga oshirilsa;
- mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ta'minlash, texnika xavfsizligi, yong'inga qarshi va soqchilik muhofazasini hamda texnikaviy foydalanish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash xarajatlari;
- litsenziya bitimlariga ko'ra huquq egasi bilan shartnomaga bo'yicha elektron-hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazalari dasturlaridan foydalanish huquqini olish bilan bog'liq xarajatlar. Mazkur xarajatlarga elektron-hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazalari uchun dasturlarni yangilashga doir xarajatlar ham kiradi;
- intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlardan va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalar (xususan, ixtirolarg'a, sanoat namunalariga va intellektual mulkning boshqa turlariga bo'lgan patentlardan yuzaga keladigan huquqlar)dan foydalan-ganlik uchun to'lovlar;

Buxgalteriya hisobotini e'lon qilish, shuningdek boshqa axborotni, agar qonun hujjatlarida ularni e'lon qilishni (oshkor qilishni) amalga oshirish majburiyati soliq to'lovchining zim-

masiga yuklangan bo'lsa, e'lon qilish va boshqacha tarzda oshkor qilish xarajatlari;

— xodimning mehnatda mayib bo'lishi yoki uning sog'lig'iغا boshqacha tarzda shikast yetkazilishi yoxud xodim oila a'zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a'zolariga beriladigan moddiy yordam;

— qonun hujjalari muvofiq qayta tashkil etilishi, xodim (shtat)lar sonining qisqarishi munosabati bilan ozod etiladigan xodimlarga to'lovlar.

— tibbiy yordam punktini saqlab turish xarajatlari, xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik va profilaktika tadbirlari uchun tibbiyot muassasalariga to'lanadigan haq.

— sog'liqni saqlash obyektlari, qariyalari va nogironlar uylari, sog'lomlashtirish oromgohlari, madaniyat hamda sport obyektlari, ta'lim obyektlari, shuningdek, uy-joy fondi obyektlari ta'minotiga doir xarajatlar (shu jumladan, amortizatsiya ajratmalari va barcha turdag'i ta'mirlash ishlarni o'tkazish xarajatlari);

— ixtiyoriy sug'urta uchun mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini qo'shgan holda tushgan tushum hajmining 2 foizi doirasidagi ajratmalar;

— O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug'urta qilish va hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotlari summalar;

— sug'urtaning majburiy turlariga ajratmalar;

— atrof-muhitni ifoslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjalarda belgilangan normalar doirasida kompensatsiya to'lovleri;

— faoliyat bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari uchun xarajatlar, bundan asosiy vositalarni sotib olish, ularni o'rnatish hamda kapital tusdagi boshqa xarajatlar mustasno. Loyiha-smeta hujjatlari, bajarilgan ishlar dalolatnomasi va tegishli ilmiy-tadqiqot, loyihalash, izlanish hamda tajriba-

konstrukturlik ishlari o'tkazilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bunday xarajatlarni chegirmalar jumlasiga kiritish uchun asos bo'ladi.

— ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperimental ishlarini o'tkazish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo'yicha modellar va namunalarni tayyorlash hamda ularni sinash, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha ko'rgazmalar va ko'riklar, tanlovlardan tashkil etish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha boshqa tadbirlar, mualliflik haqini tolash, yangi texnologiyalar yaratish hamda qo'llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, yangi turdag'i xomashyo va materiallarni yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash xarajatlari;

— soliq to'lovchi tomonidan geologik tadqiqotlar va tabiiy resurslarni qazib olish bo'yicha tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan, jami daromaddan keyingi yillar mobaynida bir maromda yiliga 15 foizdan oshmagan miqdorda chegirib tashlanadigan xarajatlari;

— qazib oluvchi tarmoqlarda xarajatlarni qoplashning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmia va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladigan tayyorgartlik ishlariga doir xarajatlari;

Zararlar va yo'qotishlar:

— bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo'yicha;
— tara bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha;
— umidsiz qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan ko'rilgan zararlar;
— hisobot yilda aniqlangan o'tgan yillardagi operatsiyalar bo'yicha xarajatlari va zararlar;

— tabiiy ofatlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarning nobud bo'lishi hamda buzilishi, ishlab chiqarishning to'xtashi oqibatidagi yo'qotishlar va boshqalar) tufayli ko'rilgan o'rni qoplanmaydigan yo'qotishlar va zararlar, shu jumladan tabiiy ofatlar oqibatlarining oldini olish yoki ularni bartaraf etish bilan bog'liq xarajatlari;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mol-mulkni bepul topshirishdan ko'rilgan zararlar, shuningdek telekomunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalanish va ularga xizmat ko'rsatishdan ko'rilgan zararlar;
 - uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan ko'rilgan zararlar;
 - asosiy vositalarni har yili amalga oshiriladigan qayta baholash natijasida vujudga keladigan ilgarigi qo'shimcha baholashdan (bahoning arzonlashtirilgan summasidan) olinadigan o'sishdan ortadigan bahoni arzonlashtirish summasi;
 - yaroqsiz mahsulotdan ko'rilgan yo'qotishlar;
 - ichki ishlab chiqarish sabablariga ko'ra bekor turib qolishlardan ko'rilgan yo'qotishlar;
 - tashqi sabablarga ko'ra (yuridik shaxsning aybisiz) bekor turib qolishlardan ko'rilgan, aybdorlar tomonidan kompensatsiya qilinmaydigan yo'qotishlar;
 - qarz summasi bilan mazkur qarzni yuzaga keltirgan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi o'rtasidagi farqdan oshmaydigan summa doirasidagi qarzni talab qilish huquqidан o'zganing foydasiga voz kechishdan ko'rilgan zararlar;
 - kreditlar (zayomlar) bo'yicha foizlar;
 - kredit shartnomasida nazarda utilgan stavkalar doirasida muddati o'tgan va uzaytirilgan kreditlar (zayom)lar bo'yicha foizlar;
- Valuta hisobvaraqlari, shuningdek chet el valutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi salbiy farq, bu farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda jami daromaddan chegirib tashlanadi:
- chet el valutasi ushbu chet el valutasiga bo'lgan mulk huquqining o'tish sanasida O'zbekiston Respublikasi Marказiy banki tomonidan belgilangan kursdan past narxda sotilganda;

- chet el valutasi ushbu chet el valutasiga bo'lgan mulk huquqining o'tish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori narxda sotib olinganda;
- chet el valutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan tegishli hisobot davri uchun balansning valuta moddalari qayta baholangannda;
- baholari chet el valutasida belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun o'zaro hisob-kitoblarni milliy valutada amalga oshiradigan soliq to'lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilingan yoki olingan sanadan ushbu tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanagacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurtdagi o'zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi salbiy farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanadagi jami daromaddan chegirib tashlanadi;
- o'zining qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar;
- moliyaviy ijara, shu jumladan lizing bo'yicha ijaraga beruvchi(lizing beruvchi)ning foizli daromadi bo'lgan mablag'-larni to'lashga doir xarajatlar;
- soliq to'lovchi tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va bosqqa qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar tarzidagi xarajatlar.

Favqulodda zararlar.

Favqulodda zararlar — soliq to'lovchilarning odatdag'i faoliyati doirasidan chetga chiquvchi voqealar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xaraqlarning moddalaridir. U yoki bu modda favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javo berishi kerak:

- ~ yuridik shaxsning odatdag'i xo'jalik faoliyati uchun xos bo'lmasligi;
- ~ bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi;

— ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislari (ishtirokchilar) tomonidan uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjalarda belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar chegirib tashlanadigan xarajatlardan sifatida qaralmaydi.

— vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini, bolani ikki yoshga to'lguniga qadar parvarishlash nafaqalarini, shuningdek qonun hujjalarda belgilangan boshqa nafaqalarni to'lash xarajatlari;

— xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjalariiga muvofiq amalga oshiriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar;

— mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni mehnat to'g'risidagi qonun hujjalarda belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta'minlash xarajatlari;

— xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari.

— xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formalii kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarning o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida oziq-ovqat bilan ta'minlash xarajatlari;

— xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijerasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) xarajatlari;

Mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlar:

— jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgila-

nadigan har oylik to'lovlari (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo'lgan taqdirda, zararning o'mi uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo'limgan miqdorda qoplanadi);

— maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qoshimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to'lovlari;

— jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qoshimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining elliq foizi miqdoridagi to'lovlari;

— xodimning sog'lig'iga shikast yetganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlari.

Boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlari:

— marshum o'rtacha oylik ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlari;

— boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlari;

Xarajatlar ular yuzaga kelgan paytda, joriy hisobot davrida soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegirilmaydi, ular keyingi davrlarda, soliq to'lovchining hisob siyosati bilan belgilangan, lekin o'n yildan ko'p bo'limgan muddat ichida chegirilishi lozim.

Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:

— yangi ishlab chiqarishlar, sexlar, agregatlar, shuningdek seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlarini hamda texnologik jarayonlarni o'zlashtirish xarajatlari;

— barcha turdag'i asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o'rnatilish sifatini tekshirib ko'rish maqsadida kompleks sinab ko'rish (ishlab turgan holatida) xarajatlari;

– ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan korxonada ishlash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar;

– asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning jadallashtirilgan usulda hisoblangan amortizatsiya summasi bilan soliq qonunchiligidagi muvofiq belgilangan normalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq;

Shubhali qarzlar bo'yicha zaxira tashkil etish uchun qilingan xarajatlar soliq qonunchiligidagi muvofiq umidsiz deb e'tirof etilgan qarzdorlik hisobdan chiqarilayotganda, hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan umidsiz qarzdorlik miqdoridan oshmaydigan summada chegirib tashlanadi.

Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

– moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo'qotishlar va buzilishlar;

– xodimlarga beriladigan yoki soliq to'lovchining umumiyligi ovqatlanish ehtiyojlari uchun yordamchi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha narxdagi farqlar (zararlar);

– soliq qonunchiligidagi belgilangan normalardan ortiqcha xarajatlar (xizmat safarlari, vakillik xarajatlari, ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha ajratmalar);

– nodavlat pensiya jamg'armalariga ajratmalar;

– xo'jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

– umumiyligi ovqatlanish korxonalari yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash;

– yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o'tkazish xarajatlari;

– soliq to'lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari;

– jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan soliq to'lovchining xarajatlari;

- xodimlarga ta'til uchun mehnat to'g'risidagi qonun hujjalarda belgilangan normalardan ortiqcha to'langan haq va ular bo'yicha pullik kompensatsiyalar;
- dala ta'minoti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy avto-transportdan foydalanganlik uchun qonun hujjalarda belgilangan normalardan ortiqcha to'langan to'lovlar;
- pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga biryo'la to'lanadigan nafaqalar;
- xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam;
- mehnatda mayib bo'lganlik, kasb kasalligi yoxud mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha shikastlanishi sababli xodimlarga yetkazilgan zararning o'rnnini qoplash uchun qonun hujjalarda belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan to'lovlar;
- ekologiya, sog'lomlashtirish va hayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'llim muassasalariga mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga badallar, homiylik va hayriya yordamlari tarzidagi mablag'lar;
- ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'limgan sog'liqni saqlash va dam olishni tashkil qilish tadbirlariga xarajatlar;
- mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan ish (xizmat)larni (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa turdag'i ishlari) bajarishga sarflangan xarajatlar;
- atrof-muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik qonun hujjalarda belgilangan normalardan ortiqcha bo'lganligi uchun kompensatsiya to'lovlar;
- kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha to'lov muddati o'tgan hamda uzaytirilgan kredit (zayom)lar bo'yicha foizlar;
- loyihalardagi va qurilish-montaj ishlari uchun kamchiliklarni, shuningdek obyekt yonidagi omborga tashib keltirilguniga qadar yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo'yicha.

cha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tu-fayli taftish o'tkazish (asbob-uskunalarini qismlarga ajratish) xarajatlari, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo'lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar hisobiga o'rmini qoplash mumkin bo'limgan miqdordagi boshqa shunga o'xshash xarajatlar;

— bayram sanalari va muhim sanalar, jamoat faoliyatidagi yutuqlar munosabati bilan xodimlarni rag'batlantirish hisoblanadigan bir yo'la mukofotlar va ta'tilga qo'shimcha to'lanadigan haqlar;

— sud chiqimlari;

— aybdorlari aniqlanmagan o'g'irliliklar va kamomaddan yoki aybdor tomon hisobidan zarur summalarining o'rmini qoplash mumkin bo'limganda ko'rilgan zararlar;

— soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki (aktivlari)ning chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko'rilgan (buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar;

— xo'jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdag'i sanksiyalar;

— investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar, davlat ishonchli boshqaruvchilar va davlat ulushlarini boshqarish bo'yicha ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini hamda ularga mukofotlar to'lashga doir xarajatlar;

— boshqa xarajatlar.

2.6. Kredit tashkilotlarining daromadlariga soliq solish tartibi

Kredit tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

— kredit tashkilotining o'z nomidan va o'z hisobidan pul mablag'larini joylashtirishdan, kreditlar hamda zayomlar berishdan olinadigan foizlar, boshqa foizli daromadlar. O'zbekiston

Respublikasi kafolati ostida berilgan kreditlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq foizlarni to'lash bo'yicha imtiyozli davr berilgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar kredit shartnomasiga ko'ra olish muddati yetib kelmagunicha soliq solinadigan daromad sifatida qaralmaydi;

— mijozlarning, shu jumladan vakil banklarning hisobvaraqlarini ochganlik va yuritganlik hamda ularning topshirig'iga binoan hisob-kitoblarni amalga oshirganlik uchun olingan haq, shu jumladan jo'natma, inkasso, akkreditiv va boshqa operatsiyalar, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan to'lov kartalarini hamda boshqa maxsus vositalarni rasmiylashtirganlik va xizmat ko'rsatganlik uchun, hisobvaraqlar bo'yicha ko'chirmalarni hamda boshqa hujjatlarni taqdim etganlik uchun va summalarini qidirganlik uchun vositachilik haqi hamda boshqa pul mukofotlari;

— pul mablag'tarini inkassatsiya qilishdan, veksellardan, to'lov va hisob-kitob hujjatlaridan hamda mijozlarga kassa xizmati ko'rsatishdan olinadigan daromadlar;

— Naqd pulli va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladigan valuta operatsiyalarini o'tkazishdan, shu jumladan chet el valutasini sotib olish yoki sotish, jumladan mijozning hisobidan va uning topshirig'i bo'yicha operatsiyalarda vositachilik va boshqa mukofotlar, valuta boyliklari bilan operatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

— uchinchi shaxslar uchun pul shaklida ijro etilishini nazarda tutuvchi bank kafolatlari, majburiyatlari, avallari va kafilliklari berishga doir operatsiyalardan olinadigan pul shaklidagi mukofot;

— hujjatlarni va qimmatliklarni saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalar va seyflarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

— pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, boshqa boyliklar va bank hujjatlarini yetkazib bergenlik, tashiganlik uchun haq;

— qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni tashiganlik va saqlab turganlik uchun haq;

– forseyting va faktoring operatsiyalarini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

– kredit tashkilotlari tomonidan o‘z professional faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar.

Balansning valuta qismi qayta baholanishidan olingan daromadlar, shuningdek chet el valutasi kursining o‘zgarishi munosabati bilan yuzaga kelgan ijobiy farq boshqa daromadlar sifatida qaraladi.

O‘stirmaslik maqomini olgan kredit bo‘yicha hisoblangan foizlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq daromadlar hisobvaraqlaridan chiqarib tashlanadi.

Kredit tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga quyidagilar kiradi:

– kredit resurslari uchun to‘lovlar, pul mablag‘lari va qimmatliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari;

– mijozlarning depozit hisobvaraqlari, shu jumladan jismoniy shaxslarning omonatlari bo‘yicha hisoblangan va to‘langan foizlar;

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan normalar doirasida tavakkalchilik operatsiyalari bo‘yicha zaxiralarga ajratmalar/

Tijorat banklarining soliq solinadigan foydasidan ular o‘z filiallariga beradigan mol-mulk qiymati chegirib tashlanadi.

2.7. Sug‘urta tashkilotlarining daromadlariga va qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari daromadlariga soliq solishning o‘ziga xos xususiyatlari

Sug‘urta tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadtariga quyidagilar kiradi:

– sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofot(badal)lari. Bunda birgalikda sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofot (badal)lari sug‘urta to‘lovchi (birgalikda sug‘urta qiluvchi)ning

daromadlari tarkibiga faqat uning birligida sug'urta qilish shartnomasida belgilangan sug'urta mukofotidagi ulushi miqdorida qo'shiladi;

– avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug'urtaviy texnik zaxiralarni kamaytirish (qaytarish)ning qayta sug'urta qiluvchilarning sug'urta zaxiralaridagi ulushi o'zgarishi hisobiga olingan holdagi summalar;

– sug'urta qilish, birligida sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha pul mukofoti, shuningdek qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha tantemalar (foydadan olinadigan haq);

– qayta sug'urta qilishga o'tkazilgan tavakkalchilik bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining o'rmini qayta sug'urta qiluvchilar tomonidan qoplash summalar;

– qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha mukofotlar deposiga hisoblangan foizlar summalar;

– sug'urta qildiruvchi(naf oluvchi)ning yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslarga nisbatan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan, qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan daromadlari;

– sug'urta agenti, broker, vositachi xizmatlarini ko'rsatganlik uchun mukofot;

– sug'urta bozorining professional ishtirokchilariga xizmatlar ko'rsatganlik uchun sug'urtalovchi tomonidan olingan pul mukofoti;

– sug'urta xizmatlari ko'rsatishdan va qo'shimcha sug'urta faoliyatidan olingan boshqa daromadlar.

Sug'urta tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga quyida gilar kiradi:

– qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha to'langan to'lov summalar;

– avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug'urta texnik zaxiralar o'sishining qayta sug'urta qiluvchilarning sug'urta zaxiralaridagi ulushi o'zgarishi hisobga olingan holdagi summasi;

- sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish majburiyatları bo'yicha amalga oshirilgan hamda hisoblangan to'lov summaları;
- fuqarolik qonun hujjalariiga muvofiq o'tgan yillardagi sug'urta hodisalari bo'yicha tugallanmagan to'lov summaları, shu jumladan da'vo muddati doirasidagi majburiyatlar summasi;
- sug'urta hodisasi ro'y berganligi haqida ma'lum qilingan, lekin zarar miqdori taqdim etilmagan shartnomalar bo'yicha sug'urta summaları;
- sug'urta tashkiloti sug'urta hodisalari ro'y berishini bartaraf etish va uning oldini olishga doir tadbirlarni (preventiv tadbirlarni) moliyalashtirishga sarflaydigan mablag' summaları;
- sug'urta tashkilotlari zaxira fondlarining miqdori sug'urta tashkilotlari ustav fondining 25 foiziga yetguniga qadar mazkur tashkilotlar o'z daromadlarining 20 foizigacha miqdorida zaxira fondlariga qiladigan ajratmalar summasi;
- sug'urta faoliyati bilan bog'liq o'zga yuridik shaxslarning xizmatlariga to'langan haq.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1. Qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilishdan olinadigan, quyidagicha aniqlanadigan daromadlar:
 - qimmatli qog'ozlar, bundan qarz qimmatli qog'ozlari (obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) mustasno, va ishtirok etish ulushi bo'yicha — realizatsiya qilish qiymati va olish qiymati (hissa) o'rtasidagi ijobiy farq sifatida;
 - qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha — realizatsiya qilish qiymati bilan realizatsiya qilish sanasidagi diskont amortizatsiyasi va (yoki) mukofot inobatga olingan holda olish qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida.
2. Qimmatli qog'ozlar bozorida vositachilik va boshqa xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar.
3. Mijozlarning mablag'laridan foydalanishda yuzaga keladigan daromadning bir qismi.

4. Depozitar xizmatlar, shu jumladan qimmatli qog'ozlar to'g'risida axborot taqdim etish, depo hisobvarag'ini yuritish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar.

5. Qimmatli qog'ozlar egalari reyestrini yuritish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar.

6. Qimmatli qog'ozlar bilan birjada va birjadan tashqarida savdolarni tashkil etish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan daromadlar.

7. Hisob-kitob-kliring faoliyati bo'yicha daromadlar.

8. Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjalarda belgilangan investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha daromadlar.

9. Qimmatli qog'ozlar bozorida maslahat xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlar.

10. Professional faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining chegiriladigan xarajatlariga quyidagilar kirdi:

1. Tegishli litsenziyaga ega bo'lgan savdoni tashkil etuvchilarga badallar tarzida to'lanadigan xarajatlar.

2. Professional faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan paydo bo'ladigan savdo qilish joylarini saqlab turish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

3. Qimmatli qog'ozlar muomalasi va ularni hisobga olish bilan bog'liq o'zaro elektron aloqani tashkil etish hamda olib borish bo'yicha xarajatlar.

4. Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining faoliyati to'g'risidagi axborotni oshkor etish bilan bog'liq xarajatlar.

5. O'z mijozlarining topshirig'iga binoan aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlarida ishtirok etish xarajatlari.

2.8. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga soliq solish

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan va to'lov manbayida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:

1. Dividendlar va foizlarga – 10 foiz.
2. Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlariga – 10 foiz.
3. Xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) – 6 foiz.
4. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan daromadlariga – 20 foiz.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasi norezidentining soliq solinadigan foydasini aniqlashda foyda solig'ini hisoblab chiqarish maqsadi uchun soliq solinadigan foyda summasi soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan xarajatlar summasining 10 foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxsning – O'zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha turdag'i daromadlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxsning – O'zbekiston Respublikasi norezidentining xarajatlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirishdan olingan daromadlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan, ular O'zbekiston Respublikasida yoki uning tashqarisida qilinganligidan qat'i nazar, barcha turdag'i xarajatlari kiradi.

Soliq solinadigan baza tovarlarni realizatsiya qilish qiymati bilan ularni olish qiymati o'rtaqidagi O'zbekiston Respublikasida omborga tovarlar yetkazib berish xarajatlari hisobga olingan holdagi farq sifatida aniqlanadi.

Yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaga quyidagilar sifatida taqdim etilgan summalarini doimiy muassasaga chegirishga kiritish huquqiga ega emas:

1. O'zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining mol-mulkidan va intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik yoki foydalanish huquqini bergenlik uchun olinadigan roylari, gonorlar, yig'imlar va boshqa to'lovlar.

2. O'zbekiston Respublikasining norezidenti xizmatlari uchun vositachilik daromadlari.

3. O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan berilgan zayomlar bo'yicha pul mukofotlari.

4. Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog'liq bo'limgan xarajatlar.

5. Hujjatlar bilan tasdiqlanmagan xarajatlar.

6. O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida qilingan boshqaruva va ma'muriy xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa alomatlariga javob beradigan faoliyatidan, davlat soliq xizmati organida doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yilguniga qadar olingan daromadlariga soliq qonunchiligidan belgilangan tartibda to'lov manbayida soliq solinadi. Bunda to'lov manbayida soliq agenti tomonidan ushlab qolangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i u O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organida doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yilganidan keyin O'zbekiston Respublikasi norezidentining soliq majburiyatlarini uzish hisobiga hisobga olinishi kerak.

Agar O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan faoliyatdan daromad olingan bo'lsa va shu daromaddan O'zbekiston Respublikasida to'lov manbayida haqiqatda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ushlab qolangan hamda budjetga o'tkazilgan bo'lsa, norezidentning doimiy muassasasida ushlab qolangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisobga olinmaydi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan O'zbekiston Respublikasi norezidentining yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'iga qo'shimcha ravishda sof foydasiga ham 10 foizli stavka bo'yicha soliq solinadi.

Sof foyda deganda O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali

amalga oshiriladigan faoliyatdan olingan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisoblangan summasi chegirib tashlangan foyda tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog'liq bo'Imagan daromadlariga, mazkur daromadlarni olish bilan bog'liq xarajatlar chegirib tashlanmagan holda to'lov manbayida soliq solinadi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun jalb qilingan kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan xorijiy moliya institutlariga to'lanadigan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining to'lov manbayida soliq solinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

- dividendlar va foizlar;
- oddiy shirkat shartnomasi asosida birqalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar:

- yuridik shaxslarning — O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining ustav kapitalidagi aksiyalari, ulushlari (paylari).
- ko'chmas mulk.

To'lov manbayida soliqqa tortiladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi.

— O'zbekiston Respublikasi norezidentiga tegishli tovarlarni O'zbekiston Respublikasi norezidentining o'zi yoki O'zbekiston Respublikasi rezidenti tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi asosida O'zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar. Bunda tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan mazkur daromadlar O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan summaning olib kirilgan tovarning kontrakt (faktura) qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi.

- royalti;

- soliq qonunchiligiga muvofiq aniqlanadigan, O'zbekiston Respublikasi hududida foydalaniladigan mol-mulkni ijaraga yoki ikkilamchi ijaraga topshirishdan olinadigan daromadlar;
- tavakkalchiliklarni sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotlari;
- o'tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektromagnitli tizimlar orqali belgilar, signallar, matnlar, tasvirlar, tovushlarni uzatganlik, qabul qilganlik va qayta ishlaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga haq to'lanishini nazarda tutuvchi xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar xizmatlariga to'lov:
 - dengiz, daryo va havo kemalaridan, temir yo'l yoki avtomobil transporti vositalaridan xalqaro tashishlarda foydalanishdan olinadigan daromadlar. Ushbu daromadlarga transport vositalaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishdan, ularni ijaraga berishdan yoki har qanday boshqa shakillarda foydalanishdan, shu jumladan konteynerlardan, konteynerlarni tashish uchun treylerlar va qo'shimcha uskunalardan foydalanish, ularni saqlash yoki ijaraga berishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar) kiradi. Ayrim hollarda fraxt (shartnoma shartlaridan kelib chiqib) yukni ortish, qayta yuklash, tushirish va joylashdirish uchun to'lovlarni ham o'z ichiga oladi. Bunda, agar jo'natish punkti yoki tayin etilgan punkt O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo'lsa, tashish xalqaro tashish deb hisoblanadi;
 - xalqaro tashishlarda va O'zbekiston Respublikasi hududagi tashishlarda transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko'rsatishdan olinadigan daromadlar. Bunda yuk jo'natuvchidan (yukni qabul qilib oluvchidan) olingan summa bilan yuk tashuvchiga to'lanishi kerak bo'lgan, yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bilan tasdiqlangan summa o'rtaqidagi farq sifatida hisoblangan haq summasi soliq solinadigan daromad hisoblanadi. Yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining norezi-

dentiga norezidentning fraxtdan olinadigan daromadlariga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'langan umumiyligida soliq solinadi;

– O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilganligi uchun jarimalar hamda penya. Tekinga olingan mol-mulk;

– O'zbekiston Respublikasining norezidente tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olgan daromadlariga quyidagilar kirmaydi:

– O'zbekiston Respublikasi norezidentining, faqat shu norezident nomidan amalga oshiriladigan va faqat tovarlar xarid qilish (olish), shuningdek tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish bilan bog'liq tashqi savdo operatsiyalari (shu jumladan, tovar ayirboshlash operatsiyalari) bo'yicha olin-gan daromadlari.

– banklarning – O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatishdan, shuningdek xalqaro to'lov kartochkalari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar.

Daromadni to'lash deganda naqd pulli va (yoki) naqd pulsiz shaklda pulni, qimmatli qog'ozlarni, ishtirok etishdagi ulushni, tovarlarni, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar to'lash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi norezidenti oldidagi qarzdorlikni uzish hisobiga amalga oshiriladigan, daromad oluvchining – O'zbekiston Respublikasi norezidentining qarzi talabini hisobdan chiqarish yoki hisobga olish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga soliq solish mazkur O'zbekiston Respublikasi norezidenti o'z daro-

madlarini uchinchi shaxslar, boshqa davlatlardagi o'z bo'linmalari foydasiga va boshqa maqsadlarda tasarruf etishidan qat'i nazar, amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lov manbayida ushlab qolishni O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi va O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentiga daromad to'lovchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari amalga oshirishlari shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi daromadni O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lash sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi ushlab qolinmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi norezidentiga daromad to'layotgan O'zbekiston Respublikasi rezidenti yoki O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ushlab qolinmagan summasini va u bilan bog'liq penya summasini qonun hujjatlariga muvofiq budgetga kiritishi shart.

Sug'urta badallaridan olingan daromadlar bo'yicha soliq-larning to'langan summalari sug'urta hodisasi yuz berganda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta uchun to'lovga doir xarajatlar to'lov manbayida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ushlab qolangan va budgetga o'tkazilgan sug'urta qildiruv-chining – O'zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlarini kamaytirish uchun hisobga olinadi. Mazkur qayta hisob-kitobni O'zbekiston Respublikasi norezidentiga daromadni to'lagan va to'lov manbayida soliqni ushlab qolgan yuridik shaxs bajarishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining norezidentiga to'lov manbaida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i ushlab qolinmasdan

daromadni to'lash quyidagi hujatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq soliq to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan ariza.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti davlat soliq xizmati organida O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi sifatida faoliyatni amalga oshirishi va doimiy muassasasi sifatida hisobda turganligi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan ma'lumotnomasi.

O'zbekiston Respublikasining norezidenti O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq soliqlar bo'yicha imtiyozdan foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organiga chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan, O'zbekiston Respublikasi soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo'lgan davlatda mazkur shaxsning doimiy joylashgan joyi (rezidentligi) borligini tasdiqlovchi rasmiy tasdiqnomani taqdim etishi shart. Bunda daromadlar xorijiy banklarga to'langan taqdirda, soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomasi mavjud bo'lgan davlatda xorijiy bankning doimiy joylashgan joyi borligini tasdiqlashi, agar bunday joylashgan joy hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot manbalaridagi ma'lumotlar bilan tasdiqlangan bo'lsa, talab qilinmaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasini kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod etish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi norezidentiga daromadni to'lashdan oldin O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organiga belgilangan shaklda topshiriladi. Yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan va O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentiga daromad to'lovchi O'zbekiston Respublikasi norezidenti uchun O'z-

bekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan ariza yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasini kamaytirish uchun yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilish uchun asos bo'ladi. Mazkur ariza tuzilgan kontrakt summasi uchun (summaning bir qismi uchun) taqdim etiladi. Agar kontrakt summasini aniqlashning iloji bo'lmasa, ariza har yili taqdim etiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasini kamaytirish yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organiga ilova xat va O'zbekiston Respublikasi norezidenti O'zbekiston Respublikasidagi manbadan daromad olayotgan kontrakt (shartnoma)ning nusxasi bilan birga beriladi.

Bunday ariza davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi norezidentining vakolatli shaxsi tomonidan berilganda ishonchnoma taqdim etilib, mazkur vakolatli shaxs arizani shu ishonchnoma asosida taqdim etadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasini kamaytirish yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ariza topshirilgan paytdan e'tiboran 30 kun ichida qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan to'langan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlaridan ushlab qolning yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i budgetga to'langan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq soliq qonunchiligidida belgilangan soliq majburiyatları bo'yicha da'vo muddati ichida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini budgetdan qaytarish huquqiga ega.

Bunda O'zbekiston Respublikasining norezidenti O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

– O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shakldagi soliqni qaytarish uchun ariza;

– daromadni to‘lash paytida O‘zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O‘zbekiston Respublikasi soliq solish masalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo‘lgan mamlakatda doimiy joylashgan joyiga (rezidentligiga) ega bo‘lganligini tasdiqlovchi, tegishli chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan rasmiy tasdiqnama;

– O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga qaysi kontrakt yoki boshqa hujjatga muvofiq daromad to‘langan bo‘lsa, o‘sha kontrakt yoki boshqa hujjatning nusxalari, shuningdek daromadning to‘langanligini va qaytarilishi lozim bo‘lgan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolningan va budgetga o‘tkazilganligini tasdiqlovchi to‘lov hujjatlarining nusxalari.

Hujjatlari chet tilida tuzilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organi ularning davlat tilida qilingan va notarial tasdiqlangan tarjimasini talab qilishga haqli. Bunda hujjatlarni taqdим etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ular konsullik orqali legallashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Ortiqcha hisoblangan va to‘langan soliqni qaytarish O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan qaytarish to‘g‘risida chiqarilgan qaror asosida, ariza berilgan kundan e’tiboran 30 kun ichida soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.9. Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga hamda oddiy shirkat ishtirokchilarining daromadlariga soliq solish

Dividendlar va foizlarga to‘lov manbayida soliq solinadi.

Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek davlat maqsadli jamg‘armalarining hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra tashkil qilinadigan budgetdan tashqari jamg'armalarning vaqtincha bo'sh mablag'larini moliya bozorlarida joylashtirishdan foizlar tarzida olinadigan daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan kredit tashkilotlariga to'lanadigan foizlarga to'lov manbayida soliq solinmaydi, balki soliq qonunchiligida belgilangan tartibda kredit tashkilotida soliq solinadi. Xuddi shunday tartib mol-mulkni lizingga berishda lizing beruvchiga to'lanadigan foizli daromadlarga ham tatbiq etiladi.

Yuridik shaxsdan olinib, uning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan dividendlar tarzidagi daromadlarga soliq solinmaydi. Imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassisleri (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinadi.

Investitsiya va xususiylashtirish investitsiya fondlarining o'z investitsiya portfelida turgan xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalaridan dividendlar shaklida olingan daromadlarga soliq solinmaydi.

Soliq qonunchiligida belgilangan tartibda aniqlanadigan, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha bирgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromad boshqa daromadlar tarkibida jami daromadga kiritiladi va unga ushbu bo'limga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i solinishi lozim.

Oddiy shirkat shartnomasining amal qilishi tugatilganda va mol-mulk ushbu shartnoma sheriklariga (ishtirokchilariga) qaytarilganda:

– oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) yoki uning huquqiy vorisi tomonidan qo'yilma doirasida olingan mol-mulk va mulkiy huquqlar tarzidagi tushumlar, uning ulushi shartnoma sheriklari (ishtirokchilari)ning umumiy mulkidagi

mol-mulkdan ajratilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat sherigi (ishtirokchisi)ning daromadlari tarkibiga kiritilmaydi.

— qaytarilayotgan mol-mulk qiymati bilan bu mol-mulkning ilgari oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha topshirilgan qiymati o'rtasidagi salbiy farq soliq solish maqsadlari uchun zarar deb e'tirof etilmaydi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

2.10. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod qilinadi:

1. Nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamiyarmasi va «O'zbekiston chernobilchilar» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishchilar umumiyligi sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno.

Mazkur imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiyligi soniga shtatda turgan xodimlar kiritiladi.

2. Davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari.

3. Jazoni ijro etish muassasalari.

4. Ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'lmalari.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod qiladi:

1. Protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko'rsatishdan, nogironlar uchun mo'ljallangan protez-

ortopediya buyumlari va inventarlarni ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatishdan olingan foydasi.

2. Shahar yo'lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishdan olingan foydasi.

3. Tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi.

4. Investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi.

5. Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalananishdan olingan foydasi.

Yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

1. Ekologiya, sog'lomlashtirish va hayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va hayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta'lim muassasalari qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda.

3. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalilaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatining o'rnini qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani

chevirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda.

Soliq solinadigan foydani kamaytirish yuqorida ko'rsatib o'tilgan xarajatlar qilingan soliq davridan e'tiboran, texnologik jihoz bo'yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran 5 yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologik jihoz xarid qilingan (import qilingan) paytdan e'tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekinga berilgan taqdirda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda, mazkur imtiyozning amal qilishi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi. Soliq imtiyozi tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar tomonidan qo'llaniladi.

4. Yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda.

5. Diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), hayriya jamg'armalarining mulkida bo'lган korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga.

Banklarning soliq solinadigan foydasi jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar bo'yicha omonatlar hamda joylashtirilgan jamg'arma sertifikatlari hajmlarining ko'paygan summasiga bo'shagan mablag'larni yuqorida ko'rsa-tilgan omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan kamaytiriladi.

6. Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar uchun sof qo'shimcha foyda summasiga.

Chegirilishi lozim bo'lган xarajatlarning jami daromaddan oshib ketishi zarar deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchi ko'rilgan zararlarni ushbu zarar ko'rilgan soliq davridan keyingi besh yil ichida kelgusiga taqsimlab o'tkazishni amalga oshirishga haqlidir.

O'tgan soliq davrida yoki o'tgan soliq davrlarida hisoblab chiqarilgan zarari (zararlari) bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ining to'lovchilari joriy soliq davrining soliq solinadigan soydasini ko'rilgan zararning to'liq summasiga yoki bu summaning bir qismiga kamaytirishga haqlidir.

Taqsimlab o'tkazilayotgan zararning har bir navbatdagi soliq davrida hisobga olinadigan jami summasi joriy soliq davrining hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydaning 50 foizidan oshmasligi kerak.

Soliq solinadigan foya taqsimlab o'tkazilishi kerak bo'lgan zarar summasi miqdoriga faqat yil yakunlari bo'yicha kamaytirilishi mumkin.

Birdan ortiq kalendar yilda ko'rilgan zararlari ular ko'rilgan ketma-ketlikda taqsimlab o'tkaziladi.

Soliq to'lovchining yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ini to'lashdan ozod qilingan soliq davrida ko'rgan zararlari keyingi soliq davrlariga taqsimlab o'tkazilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchi qayta tashkil etilishi munosabati bilan faoliyatini tugatgan taqdirda, soliq to'lovchi-huquqiy voris soliq solinadigan foydani qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning qayta tashkil etish paytigacha ko'rgan zararlari summasiga kamaytirishga haqli.

Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq 2012- yilda yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan (2.10.1-jadval).

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari

Nº	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan % da
1.	Yuridik shaxslar	9
2	Tijorat banklari	15
3.	Aukcionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziysi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
4.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PE-1871-sون Farmoni bilan tasdiqlangan to'yxatda keltirilgan xomashyo mahsulotlaridan tashqari) eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun sotishning umumiyligi hajmida 15 foizdan 30 foizgacha sotishning umumiyligi hajmida 30 foiz vaundan yuqori	Belgilangan stavka 30% ga pasaytiriladi Belgilangan stavka 50% ga pasaytiriladi
5.	Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalariga uchun, plastik kartalar qo'llanib, haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	Belgilangan stavka 10% ga pasaytiriladi

2.11. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarish soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Kalendar yil soliq davridir. Yilning choragi hisobot davridir.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi, davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobida budgetga to'lanadigan sof foydadan olinadigan soliq summasi alohida satrda ko'rsatiladi.

Faoliyat kalendar yil tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi shart.

Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini joriy to'lovlarни kiritish orqali to'laydilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovarning summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi haqidada ma'lumotnomaga taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 15-kuniga qadar soliq qonunchiligidagi

muvofig hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining 200 baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiq-qan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun budgetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqni joriy to'lovlarni to'lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to'laydi.

Yuridik shaxslardan to'lov manbayida olinadigan foyda solig'i belgilangan stavkalarni va chegirmalarni amalga oshirmasdan to'lanadigan daromad summasiga nisbatan qo'llash orqali hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxslardan to'lov manbayida olinadigan foyda solig'ini yuridik shaxslar quyidagilarni to'lash paytida ushlab qolishlari shart:

- dividendlar va foizlarni;
- O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga daromadlarni.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini ushlab qolish va budgetga o'tkazish uchun javobgarlik daromadni to'lash manbayi, shuningdek soliq qonunchiligiga muvofig O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiriladi.

ruvchi, O'zbekiston Respublikasining boshqa norezidentlariga daromad to'lovchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari zimmasida bo'ladi.

Yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromad, qilingan xarajatlar hamda O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirib tashlanguniga qadar to'liq miqdorda soliq to'lovchining jami daromadiga qo'shiladi. Soliq solinadigan bazani aniqlashda O'zbekiston Respublikasidan tashqarida foyda olish munosabati bilan qilingan hamda hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda va miqdorlarda chegiriladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining summasi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash paytida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining summasini hisobga olish uchun chet davlat vakolatli organining to'lov xabarnomasi, ma'lumotnomasi yoki O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'langanligini tasdiqlovchi boshqa hujjat asos bo'ladi.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqlar uzoq davr mobaynida jamiyat tomonidan yaratilgan mahsulotning bir qismini davlat budgeti daromadlarini shakllantirish uchun undiriladigan asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

Shuningdek, soliqlar davlatning barcha davlat miqyosidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy moliyaviy manbalardan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida va belgilangan islohotlarni amalga oshirishdagi asosiy vositadir. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i

umum davlat solig'i hisoblanib, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy o'rinni tutadi.

Nazorat va mubokama uchun savollar

1. Yuridik shaxs tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Yuridik shaxslardan olinadigan soliglarning qanday turlari mavjud?
3. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning qanday asosiy prinsiplari mavjud?
4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ini to'lovchilar bo'sib kimlar hisoblanadi?
5. Rezidentlar kimlar hisoblanadi?
6. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ida soliq solish obyekti nima hisoblanadi?
7. Jami daromad tarkibiga nimalar kiramdi?
8. Royallti nimani anglatadi?
9. Soliq solinadigan foydani belgilashda jami daromaddan qanday chegirmalar amalga oshiriladi?
10. Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?
11. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?
12. Norezidentlar hamda chet etlik yuridik shaxslarning foydasiga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
13. Norezidentlar kimlar hisoblanadi?
14. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ini hisobga olish tartibi qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. *Islam Karimov. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.* – T.: O'zbekiston, 2012. – 36-b.
2. *I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi.* O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senating qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2010. – 56-b.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга

- кўтаридаиган йил бўлади» мавзусидаги маъruzасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ, 2012. – 382-б.
- 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1717-sonli «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi, 2012-yil 27-fevral.
 - 5. Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Эксмо, 2010. – 145-156 с.
 - 6. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.:Sharq, 2009. - 408-418-bet.
 - 7. Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish. – Т.: 2007.– 228–260-б.
 - 8. Yahyoyev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti» – Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

III BO'LIM **SODDALASHTIRILGAN SOLIQ TIZIMI**

3-BOB **TADBIRKORLIK FAOLIYATI AYRIM** **TURLARI BO'YICHA YURIDIK SHAXSLARDAN** **OLINADIGAN QAT'IY BELGILANGAN** **SOLIQNI UNDIRISH TARTIBI**

3.1. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bu – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdag'i soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibidir.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblash hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi to'lovchilar soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining o'rniga to'lanadi.

Soliq davri mobaynida soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa

majburiy to'lovlarni o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi.

3.2. Tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar va soliq solish obyekti

Qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

- faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar faoliyatning qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan soliqlarni to'lashlari shart.

Asosiy faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar uchun soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek ijara dan olingan daromadlar bundan mustasno.

Mol-mulkni ijara ga berishdan olingan daromadlarga soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda umumbelgilangan soliqlar yoki yagona soliq to'ovi joriy etiladi.

Faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliqni to'laydi.

3.3. Tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq bo'yicha soliq stavkalari va soliq solinadigan baza

Qat'iy soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich soliq solinadigan obyektdir.

Soliq solinadigan baza fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq 2012-yilda yuridik shaxslardan tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan (3.3.1-jadval).

3.3.1-jadval

Yuridik shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari

№	Faoliyat turi	To'lov-chilar	Mazkur faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda)		
				Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat bo'y-sunuvidagi shaharlar	Boshqa aholi punktlari
1.	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash	Yuridik shaxslar	egallagan maydon (1 kv.metr)	0,1	0,09	0,06
2.	Bolalar o'yin avtomatlari	Yuridik shaxslar	Jihozlangan o'tinlar soni (birlikda)	3,0	2,0	1,0

Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan taqdirda bunday holatlarga soliglarni to'lashdan bo'yin tov lash sifatida qaraladi.

3.4. Tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqni hisoblash va to'lash tartibi

Qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to'lovchilar tomonidan — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay;
- faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan — hisobot yilining 15-yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq solish obyekti va ish haqining eng kam miqdori o'zgar gan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lojni to'lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

Soliq davri — bir oy.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash:

- yuridik shaxslar tomonidan — har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan muddatlarda amalga oshiriladi.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qat'iy belgilangan soliq faoliyatning ayrim turlarini tavsiylovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun eng qulay soliq turlaridan biridir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni go'lashning o'ziga xos xususiyatlari qanday?*
2. *Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar va soliq solish obyekti nimalardan iborat?*
3. *Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq bo'yicha soliq stavkalari va soliq solinadigan baza qanday belgilanadi?*
4. *Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar tomonidan qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibini tushuntirib bering.*

Asosiy adabiyotlar

1. *Islam Karimov. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.* – T.: O'zbekiston, 2012. – 36-b.
2. *Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzasi.* – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. *Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағищланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз таққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаи маъruzasini ўрганиш бўйича ўкув қўлланма.* – Toshkent: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1717-sonli «Mustahkam oila yili» Davlat dasturi.* 2012-yil 27-fevral.
5. *Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: Учебное пособие* – М.: Эксмо, 2010. – 130–146 с.
6. *Жидкова Е.Ю. Налоги и налогообложение: Учебное пособие* – М.: Эксмо, 2009. – 420–450 с.
7. *Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish.* – T.:Sharq, 2009.– 425–438-bet.
8. *Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish.* – T.: 2007. – 200–220-b.

4-BOB
MIKROFIRMALAR VA KICHIK KORXONALAR
UCHUN YAGONA SOLIQ TO'LOVI

**4.1. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq
amaliyotiga tatbiq etilishi**

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun qo'llaniladi va yagona soliq to'lovini, yagona yer solig'ini hamda tadbirdorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovi to'lovchilar va yagona yer solig'ini to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart.

Soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan soliqlar soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining o'rniga to'lanadi.

Soliq davri mobaynida, soliq solish tartibi o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

Bunda o'tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini o'sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to'lash bo'yicha majburiyatlar soliq to'lovchilarda saqlanib qoladi.

4.2. Soddalashtirilgan soliq tizimining rivojlanish bosqichlari

Yagona soliq to'lovi – kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli soliq va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi yagona soliq turi. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi – bu shunday soliqqa tortish tizimi bo'lib, unda kichik biznes subyektlarini rag'batlantirish maqsadi qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi «Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida»gi 159-sonli qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi PF 2086-sonli farmoni qabul qilindi.

1998-yildan 2005-yil 1-iyulgacha kichik korxonalar va mikrofirmalar yagona soliq va budgetdan tashqari fondlarga ajratmalarni to'lar edi.

2005-yil 1-iyuldan boshlab amaldagi yagona soliq va budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar o'miga yagona soliq to'lovi joriy qilindi.

Kichik biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimini qo'llashning huquqiy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi «Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida»gi 159-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi PF-2086-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3620-sonli Farmoni hisoblanadi.

4.3. Soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati

Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyot barqarorligini, ko'p jihatidan iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilash bilan birga aholining ma'lum qismining bandligini kafolatlaydi, shuningdek, bozor mexanizmiga tez moslashuvchanlik xarakteri orqali zarur iste'mol tovarlari va xizmatlari bilan tez boyitadi, ayni paytda tashqi bozorga ham raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega ekanligi, uning fan va texnika yutuqlarini tez o'zlashtirish qobiliyatiga, xo'jalik tuzilmalarining qayishqoqligi va tez o'zgarayotgan sharoitiarga moslashuvchanligini oshitadi.

Kichik biznesning o'ziga xos bir qator xususiyatlari va afzalliklari mavjud bo'lib, bozor kon'yukturasiga oson moslashuvchanligi, yangi ish o'rinalarini yaratish orqali, ishsizlikning oldin olish, yirik biznes subyektlari uchun samarasiz sohalarda faoliyat ko'rsatishda qulayligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini ko'paytirish imkoniyatiga ega ekanligi, kichik korxonalar faoliyatini rivojlantirish uchun ko'p miqdorda aylanma mablag'lar talab etilmaslidigadir.

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning katta kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarini ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishga ruxsat berishlik, ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Kichik biznes subyektlarini soliqlar vositasida rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri – bu barcha soliq to'lovchilar uchun soliqqa tortish shartlarini yagonalashtirish, adresli asoslanmagan imtiyozlarni bekor qilish va soliq yukini kamaytirishdir.

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimining ahamiyati kattadir. Bular birinchidan, tovarlar va xizmatlar oshishi imkonini beradi.

Ikkinchidan, yangi ish o'rnlari vujudga keladi.

Uchinchidan, korxonalar faoliyatini tashkil qilishni soddalashtiradi.

To'rtinchidan, soliq hisobini yuritish oddiyolashtiriladi.

Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lashga o'tishlik ixtiyoridi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-aprel 159-son «Kichik korxonalar uchun ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash» to'g'risidagi qaroriga muvofiq budgetga soliq to'lovlari ixchamlashtirildi va kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq to'lash joriy etildi.

4.4. Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'ovi yoki yagona soliq to'lanishini nazarda tutuvchi soliq solishning soddalashtirilgan tizimi qo'llanilishi mumkin.

2008-yilga qadar soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga soliq solish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-aprel 159-sonli qarorida Soliq kodeksiga muvofiq ravishda o'zgartirish va qo'shimchalar aks ettirilgan holda soliq solishning soddalashtirilgan tizimi quyidagi tarkibga ega bo'lган:

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'ovi.
2. Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'ovi.
3. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i.
4. Alovida turdag'i tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq.
5. Lotereyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslarning yalpi tushumidan yagona soliq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2008-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-744-son qarori va 2007-yil 23-noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2007-yil 30-noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2007-yil 25-dekabrdha O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov tomonidan tasdiqlangan 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 23-moddasida belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

1. Yagona soliq to'lovi.
2. Yagona yer solig'i.
3. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to'lovchilar uchun to'lov manbayida soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolish majburiyatlari hamda budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlari saqlanib qoladi:

- soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda to'lov manbayida undiriladigan foyda solig'i;
- soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i;
- agar soliq qonunchiligidagi boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig'i;
- agar soliq qonunchiligidagi boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlari;
- bojxona to'lovlari;

- yagona ijtimoiy to‘lov;
- davlat bojlari;
- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im;
- davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar (yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar bundan mustasno);
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im.

4.5. Yagona soliq to‘lovi va uning amal qilish jarayoni

Faoliyat ko‘rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tish uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar esa. davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran 15 kundan kechiktirmasdan soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so‘ng 10 kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar to‘lashga o‘tadi.

Hisobot yili tugashi bilan belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot yilidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to‘lashga o‘tadi.

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar yagona soliq to‘lovini to‘lash huquqidan mahrum bo‘lgan o‘tgan hisobot yili uchun

umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etadilar:

– Soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to'lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa budgetga to'lanishi lozim.

Hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, budget bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi.

4.6. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibi va yagona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibiga kiritilish mezoni

Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga faoliyat turiga qarab o'rtacha xodimlar soni ma'lum mezonga javob beradigan barcha ko'rinishdagi egalik huquqidagi yuridik shaxslar o'tishi mumkin, bunda soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi uchun faoliyat turi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo'mitasi belgilagan kod bo'yicha aniqlanadi.

2005-yil 20-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3620-sonli Farmoni qabul qilindi. U kichik biznes subyektlarining

faoliyat ko'rsatish shart-sharoitini yaxshilashga, ularni soliqqa tortishni soddalashtirishga yo'naltirilgan.

Mazkur hujjat bilan quyidagi asosiy masalalar tartibga solinadi:

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi tarkibining o'zgarishi, birxillashtirilgan soliq to'loving joriy etilishi.

2. Joriy etilgan birxillashtirilgan soliq to'lovi to'lovchilari uchun imtiyozlar va qo'shimcha preferensiyalar berilishi.

Farmoning amal qilishi faqat kichik biznes subyektlari – mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etiladi. U yoki bu korxonaning yuqorida aytilgan subyektlar toifalarining birortasiga kiritilish mezoni bo'lib xodimlarning yillik o'rtacha soni, shu jumladan unitar (shu'ba) korxonalarda, filiallarda va vakolatxonalarda ishlaydiganlar soni hisoblanadi. Bunda uning qonun hujjatlari bilan belgilangan turli chegaraviy ko'rsatkichlarini hisobga olish lozim:

1. Ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan mikrofirmalar uchun – ko'pi bilan 20 kishi, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'limgan tarmoqlarda – ko'pi bilan 10 kishi.

2. Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan kichik korxonalar uchun:

– yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish hamda asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati – ko'pi bilan 100 kishi.

– mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari – ko'pi bilan 50 kishi;

– fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiyl ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'limgan sohalar – ko'pi bilan 25 kishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-iyuldaggi «Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga

jalb etish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar» to'g'risidagi farmoniga binoan.

Mikrofirmalarda:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan mikrofirmalar uchun — yigirma (20) kishidan yigirma to'rt (24) kishigacha;
- xizmat ko'rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'limgan tarmoqlarda — o'n (10) kishidan o'n ikki (12) kishigacha;
- savdo va umumiyl ovqatlanish sohasida — besh (5) kishidan olti (6) kishigacha.

Kichik korxonalarda:

- yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati — ko'pi bilan yuz (100) kishidan bir yuz yigirma (120) kishigacha;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari — ko'pi bilan ellik (50) kishidan oltimish (60) kishigacha;
- fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiyl ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo'limgan sohalar — ko'pi bilan yigirma besh (25) kishidan o'ttiz (30) kishigacha oshgan holda ular uchun nazarida tutilgan imtiyozlar, kafolatlar va huquqlar saqlanib qolinadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:

1. Mikrofirmalar va kichik korxonalar.
2. Xodimlarning sonidan qat'i nazar:
 - savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalari;
 - lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.
3. Oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yakka tartibdagi tad-birkor.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi:

– aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamonaviy texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno;

– soliq qonunchiligiga muvofiq yagona yer solig'i va soliq qonunchiligiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

– mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi.

Bunda:

– xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

– xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlashda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (shu'ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;

– yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to'g'ri keladigan xodimlar sonining mezoni qabul qilinadi.

Soliq solish maqsadida savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiyl ovqatlanish sohasidagi faoliyat o'tgan hisobot yili yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

Quyidagilarga savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

- o'zi ishlab chiqargan mahsulot bo'lgan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs bo'lmasa firma do'konlari orqali realizatsiya qilish;
- vositachi, ishonchli vakil tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;
- tayyorlov faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiyligi ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste'mol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

4.7. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'loving soliq obyekti va soliq solinadigan baza

Yalpi tushum soliq solish obyektiidir.

Soliq qonunchiligiga muvofiq quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

1. Davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar.
2. To'lov manbayida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar.
3. Dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar.

Muassis (ishtirokchi)lar tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'tasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbayida umumiyligi asoslarda soliq solinadi.

4. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak.

5. Ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa.

6. Mahsulot etkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar.

7. To'liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan yoki tugatishdan olingan daromadlar.

Soliq solinadigan baza soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1. Avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari uchun:

— jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

— benzin, dizel yoqilg'isi va gazning avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalarining belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o'rtaсидаги mahalliy budgetga o'tkazilishi lozim bo'lgan farq summasiga.

2. Lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun — yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlar (mukofotlar)ning umumiyligi summasidan ortiq bo'limgan miqdoriga.

3. Brokerlik tashkilotlari uchun — bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga.

4. Vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovleri summasiga.

Soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

— yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab 5 yil mobaynida amalga oshiriladi;

— yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

4.8. Yalpi tushum va uning tarkibi

Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.

Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar esa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran 15 kundan kechiktirmasdan soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so'ng 10 kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Hisobot yili tugashi bilan soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik

moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot yilidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Soliq qonunchiligidan ko'rsatilgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lash huquqidан mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradi

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etadilar:

- soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to'lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa budgetga to'lanishi lozim.

Hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, budget bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilar bilan tegishli qayta hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi.

Agar soliq qonunchiligidan ko'rsatilgan hisob-kitoblar va ma'lumotnomalar:

- yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etilsa, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi;

- yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirib taqdim etilsa, qonun

hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

— qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishinchalash qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

— savdo va umumiylash ovqatlanish korxonalarini uchun — tovar oboroti.

— mol-mulkni moliyaviy ijara (lizing)ga beruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

— vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

— tayyorlov tashkilotlari uchun — realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad.

– lotereya o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – o‘yin chip-talarini ularda ko‘rsatilgan narx bo‘yicha tarqatishdan tushgan tushum;

– tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun – tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi. Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholar (tariflar)dan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog‘lom-lashtirish hamda hayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta’lim muassasalariga tekinga beriladigan tovarlarga tatbiq etilmaydi.

2. Soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa daromadlar:

– uzoq muddatli kontraktlarni bajarishda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushadigan tushum soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda hisobot davri mobaynida uzoq muddatli kontraktlarni haqiqatda bosqichma-bosqich ijro etishga oid qismida hisobga olinadi.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

1. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aksiyalar (ulushlar)ni joylashtirish bahosining ularning nominal qiymati (dastlabki miqdori)dan ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag‘lar.

2. Muassis (ishtirokchi)lar tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

3. Shartnomaga muassislari (ishtirokchilari) umumiyligi mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo‘lingan

taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sheri (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

4. Realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

5. Mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjalariiga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar).

6. Budgetdan berilgan subsidiyalar.

7. Agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar.

8. Olingan grantlar va insonparvarlik yordami.

9. Sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta toponi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar.

10. Vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno).

11. Obyekt qiymatining ijara beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi.

12. Telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar.

13. Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislari (ishtirokchilaridan uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar.

Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish obyektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim.

14. Investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'ttasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'ttasidagi saldo soliq solish obyekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

15. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'ovi stavkalari va soliq stavkalarining tabaqalanish mezonlari.

Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq 2012-yilda mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari) yagona soliq to'ovi stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan (4.9.1-jadval).

4.9. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'ovi bo'yicha taqdim etilgan imtiyozlar va preferensiyalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-yanvardagi PQ-1464-sonli qarorida mamlakatimizda 2011–2015-yillarda islohotlarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish,

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari) yagona soliq to'lovi stavkalari

No	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2-9- bandlarda ko'rsatib o'tilganlandan tashqari	6*
2.	Sanoat sohasidagi korxonalar	5
3.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar	5
4.	Bojxona rasmiylashtiruvni bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	6
5.	Lombardlar	30
6.	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan omrnaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
7.	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlandan tashqari), shuningdek, vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
8.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
9.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiyaqilish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijara berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijaragaberishdan olingan daromadlar 60%dan ko'pni tashkil etadi)	30

10.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkif etadigan korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktyabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xomashyo tovarlari bundan mustasno):	
	Sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	Belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	Sotishning umumiy hajmida 30 foiz vaundan ko'p	Belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi
11.	Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartalar qo'llanib, haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	Belgilangan pasaytiriladi

iqtisodiyotni liberalallashtirish va modernizatsiya qilish, qulay tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi:

- huquqiy bazani yanada rivojlantirish va yangi qonunlar qabul qilish;
- mamlakatimizda va hududlarda har tomonlama qulay biznes muhitini yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha qulay sharoit yaratish, imtiyoz va preferensiyalar berish;
- moliya-bank tizimini liberalallashtirish, moliya va kredit resurslari bozorini mustahkamlash va rivojlantirish;
- faol investitsiya siyosatini amalga oshirish hisobidan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va uning tarkibini diversifikatsiya etish;

– tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, unda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining keng ishtirokini ta'minlash.

Korxonalarga preferensiya berish – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarни moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarish maqsadlari uchun chet eldan olib kiriladigan xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek, asbob-uskunalarni olib kirishda boj to'lovlar va boshqa jarayonlar bo'yicha yengilliklar (imtiyozlar) berilishi.

Soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Preferensiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriladigan imtiyoz, afzallik va ustuvor qulayliklar.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – kichik biznes subyektlarini rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladigan soliqqa tortish tartibi.

Soliq to'lovchida yalpi tushumga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1. Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda.
2. Bitim shartlari o'zgarganda.
3. Baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalanganda.
4. Bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan yalpi tushumga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq yalpi tushumga tuzatish kiritish soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan hollar yuz berganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (ishni, xizmatni) yetkazib beruvchi yalpi tushumga tuzatish

kiritishni soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilar» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlochilar umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941—1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

4.10. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi

Kalendar yil soliq davridir. Hisobot davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy.

Yagona soliq to'ovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'ovi summasi budgetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'ovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmasagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'ovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga ortib boruvchi yakun bilan:

– mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan korxonalar tomonidan – har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan tushum soliq to'lovchining yalpi tushumiga to'liq miqdorda qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan foyda solig'ining summasi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasida yagona soliq to'lovini to'lash chog'ida hisobga olinadi.

To'lov xabarnomasi, chet davlat soliq organining ma'lumotnomasi yoki chet elda soliq to'langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat chet elda to'langan foyda solig'ining summasini hisobga olish uchun asos bo'ladi.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa o'mida qayd etish joizki, mamlakatimizda mikrofirmalar va kichik korxonalarни rag'batlantirish va soliqlarni hisoblash hamda to'lash tartibini yengillashtirish maqsadida soliq qonunchiligini takomillashtirishga katta e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda davlatning katta kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishga

ruxsat berishlik ularni tashkil qilish va moliya xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga egadir.

Nazorat va mahokama uchun savollar

1. *Soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyatini tushuntirib bering.*
2. *Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi to'lovchilarini tarkibi va yagona soliq to'lovi to'lovchilarini tarkibiga kirilish mezonini nimatardan iborat?*
3. *Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining soliq obyekti va soliq solinadigan bazani tushuntirib bering.*
4. *Soddalashtirilgan soliq tizimining rivojlanish bosqichlari nimatardan iborat?*

Asosiy adabiyotlar

1. *Ислом Каримов.* 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтариладиган йил бўлади. – Т.:Ўзбекистон, 2012. – 36-б.
2. *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzasi. Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтариадиган йил бўлади» мавзусидаги маъruzasiни ўрганиш бўйича қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 феврал.
5. *O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari to'plami,* 2012-yil yanvar.
6. *Никулкина И.В.* Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Эксмо, 2010. – 145–156 с.
7. *Vahobov A., Jo'rayev A.* Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.:Sharq, 2009. – 408 –418-bet.
8. *Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To'ksanov Q.N.* Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007.– 228–260-б.
9. *Yahyoyev Q.* «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti» Darslik –Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

5-BOB

SAVDO VA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI UCHUN YAGONA SOLIQ TO'LOVI

5.1. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibi

Yagona soliq to'lovi to'lovchilar quyidagilardir:

1) mikrofirmalar va kichik korxonalar;

2) xodimlarning sonidan qat'i nazar:

savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;

3) lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

4) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yakka tartibdagi tadbirkor.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi:

– aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigan zamонавиу texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno;

– soliq qonunchiligidagi muvofiq yagona yer solig'i va soliq qonunchiligidagi muvofiq qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

– mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

– Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi.

Bunda:

– xodimlarning soni hisobot yili uchun ularning o'rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

– xodimlarning o'rtacha yillik sonini aniqlashda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (shu'ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;

– yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsning asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to'g'ri keladigan xodimlar sonining mezoni qabul qilinadi.

Soliq solish maqsadida savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalari jumlasiga savdo faoliyati, umumiylar ovqatlanish sohasidagi faoliyati o'tgan hisobot yili yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

Quyidagilarga savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

– o'zi ishlab chiqargan mahsulot bo'lgan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs bo'lмаган firma do'konlari orqali realizatsiya qilish;

– vositachi, ishonchli vakil tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;

– tayyorlov faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiylar ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste'mol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

5.2. Savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'loving soliq obyekti va soliq solinadigan baza

Yalpi tushum soliq solish obyekti.

Soliq qonunchiligiga muvofiq quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

- 1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;
- 2) to'lov manbayida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;
- 3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo'lsa, o'sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar;

Muassis(ishtirokchi)lar tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtaida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbayida umumiy asoslarda soliq solinadi;

4) hisobot yiliда aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lган bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjalariга muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlар bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot yetkazib beruvchilarining siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar;

7) to'liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan yoki tugatishdan olingan daromadlar.

Soliq solinadigan baza soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

- 1) avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari uchun:
 - jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;
 - benzin, dizel yoqilg'isi va gazning avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalarining belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o'rtaqidagi mahalliy budjetga o'tkazilishi lozim bo'lган farq summasiga;

2) lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'limgan miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlari summasiga.

Soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

– yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob- uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

– yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

5.3. Yalpi tushum va uning tarkibi

Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovining to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to'lashni tanlashga haqli.

Faoliyat ko'rsatayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tish uchun keyingi hisobot davri boshlanishiga kamida bir oy qolganda, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalar esa, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran 15 kundan kechiktirmasdan soliq

bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda hisobot davri tugaganidan so'ng 10 kun ichida davlat soliq xizmati organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Hisobot yili tugashi bilan soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan xodimlar soni mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot yildan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Soliq qonunchiligidida ko'rsatilgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovini to'lash huquqidан mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilarni taqdim etadilar:

- soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to'lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa budjetga to'lanishi lozim.

Hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, budget bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilar bilan tegishli qayta hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi.

Agar soliq qonunchiligidan ko'rsatilgan hisob-kitoblar va ma'lumotnomalar:

– yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirilmay taqdim etilsa, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi;

– yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirib taqdim etilsa, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

– qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishinchalash qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Bunda agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi mate-

riallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi.

— savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun — tovar oboroti;

— mol-mulkni moliyaviy ijara(lizing)ga beruvchi yuridik shaxslar uchun — moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

— vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

— tayyorlov tashkilotlari uchun — realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtaсидagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

— lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun — o'yin chip-talarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum;

— tovarlarni tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun — tovarlarning tannarxi yoki ularni olish bahosi. Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholar (tariflar)dan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog'iom-lashtirish hamda hayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga tekinga beriladigan tovarlarga tatbiq etilmaydi.

2. Soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa daromadlar.

— uzoq muddatli kontraktlarni bajarishda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushadigan tushum soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda hisobot davri mobaynida uzoq muddatli kontraktlarni haqiqatda bosqichma-bosqich ijro etishga oid qismida hisobga olinadi.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

- 1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymati (dastlabki miqdori)dan ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;
- 2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassisleri (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 3) shartnoma muassisleri (ishtirokchilari) umumiyligida hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 6) budgetdan berilgan subsidiyalar;
- 7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;
- 8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;
- 10) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta toponi (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;
- 11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish

munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno);

12) obyekt qiymatining ijara beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislardan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar.

Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan mudatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish obyekti kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtaida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatları sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lган taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

5.4. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi stavkalari va soliq stavkalarining tabaqalanish mezonlari

Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq 2012-yilda savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'loving stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan (5.4.1-jadval).

5.4.1-jadval

Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'loving stavkalari

№	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Umumiyligi ovqatlanish korxonalari	10
	ularidan:	
	umumiyligi ta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiyligi ovqatlanish korxonalari	8
2.	Chakana savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p odamdan iborat bo'lgan shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumantarda	1
3.	Ulgurji savdo korxonalari (4-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	5

5.4. I-jadvalning davomi

4.	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari, quyidagi joylarda joylashgan: aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1
5.	1, 2 va 4-bandlarda ko'rsatilgan korxonalar uchun (ulgurji dorixona tashkilotlaridan tashqari), plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda sotilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi bo'yicha	Belgilangan pasaytiriladi

Agar chakana savdo korxonalari mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va turli aholi punktlarida joylashgan, ular bo'yicha yagona soliq to'lovining turli stavkalari belgilangan bir nechta savdo shoxobchalariga ega bo'lsa, ular har bir savdo shoxobchasi bo'yicha tovar aylanmasining alohida-alohida hisobini yuritishlari hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari lozim.

5.5. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi

O'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lган yuridik shaxslar soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashi kerak.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar yagona soliq to'lovini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran joriy yil tugaguniga qadar, 1-oktabrdan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar esa keyingi yil tugaguniga qadar to'laydi.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakunlari bo'yicha soliq qonunchiligidagi belgilangan shartlarga javob bermasalar, ular kelgusi yil boshidan umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tishlari kerak, soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno.

Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq qonunchiligidagi belgilangan shartlarga javob bermay qolningan hisobot yili tugaganidan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibi tanlaganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda yozma bildirish taqdim etishlari shart. Soliq to'lovchi tomonidan yozma bildirishning belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga berilgan roziligi deb hisoblanadi.

Turli soliq solish obyektlari va (yoki) yagona soliq to'lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan yagona soliq to'lovini to'lovchilar shu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari kerak. Bunda soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan daromadlarga asosiy (soha) faoliyat turi uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkalari bo'yicha soliq solinadi.

Lotereya o'yinlarini tashkil qilish faoliyati bilan birga boshqa faoliyat turlarini amalga oshiradigan yuridik shaxslar ushbu faoliyat turlari bo'yicha quyidagilarni to'laydi:

- agar ular mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirsa — yagona soliq to'lovini yoki umumbelgilangan soliqlarni;
- agar ular mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmasa — umumbelgilangan soliqlarni.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar kamida o'n ikki oydan so'ng yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishga haqlidir.

Yagona soliq to'lovini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar umumbelgilangan soliqlarni

to'lashga o'tilgan birinchi chorak uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hamda mol-mulk solig'i bo'yicha joriy to'lashdan ozod qilinadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar yagona soliq to'lovi to'lash muddatini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yil muddatga kechiktirish huquqiga ega, kechiktirilgan summalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda imtiyozli davr tugaganidan so'ng o'n ikki oy ichida teng ulushlar bilan to'lanadi.

Agar yagona soliq to'lovini to'lovchilar soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni amalga oshirsalar. qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy asosda to'lashlari mumkin. Yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tish uchun hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa, o'z faoliyatini amalga oshirishni boshlaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni rad etish keyingi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim etiladigan yozma bildirish asosida faqat navbatdagi soliq davrinining boshidan amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash soliq qonunchilida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar – yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari bo'yicha ijara olingan yer uchastkalari uchun budjetga ijara haqi to'lashdan ozod qilinadi, umumbelgilangan soliqlar to'lanadigan faoliyat turlarida foydalilanilayotgan yer uchastkalari bundan mustasno.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish, savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan keng normativ baza yaratildi. Kichik biznes subyektlari erkinligining kafolatlovchi me'yoriy hujjatlar qonuniy mustahkamlab qo'yildi. Ushbu tadbirlar nati-jasida savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarining mamlakat ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi dagi ishtiroki va salmog'i oshib bormoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibi qanday?*
2. *Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'loving soliq obyekti va soliq solinadigan bazani tushuntirib bering.*
3. *Yalpi tushum va uning tarkibi nimalardan iborat?*
4. *Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi stavkalari va soliq stavkalarining tabaqalanish mezontlari qanday aniqlanadi?*
5. *Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi qanday?*
6. *Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?*

Asosiy adabiyotlar

1. *Ислом Каримов. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичта кўтариадиган йил бўлади.* – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 36-б.
2. *Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.* Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzasi. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. *Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш яқунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга багишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги*

- босқичга кўтарадиган йил бўлали» мавзусидаги маъruzасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ, – 2012. – 382-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
 5. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. Ўзбекистон Республикаси Конун хужжатлари тўплами. 2012 йил январь.
 6. *Никузкина И.В.* Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Экмо, 2010. – 145–156 с.
 7. *Vahobov A., Jo'rayev A.* Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.:Sharq, 2009. – 408–418-б.
 8. *Tuxliyev B.K., Yusipov O.A., Agzamov A.T., To'xsanov Q.N.* Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007.– 228–260-б.
 9. *Yahyoyev Q.* «Soliqqa tortish nazariyasи va amaliyoti» Darslik – Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

6-BOB
QISHLOQ XO'JALIK TOVAR ISHLAB
CHIQARUVCHILARI UCHUN YAGONA
YER SOLIG'I

6.1. Yagona yer solig'i to'lovchilari tarkibi

Yagona yer solig'ini to'lovchilar quyidagilardir:

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar;
- qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;
- qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushini realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan shartlarga javob beradigan yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'ladi.

Quyidagilar yagona yer solig'ini to'lovchilar sifatida qaralmaydi:

- o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

6.2. Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari

Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1-fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi yetishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi.

Agar o'tgan soliq davri yakuntari bo'yicha yagona yer solig'i to'lovchi soliq qonunchiligidan belgilangan shartlarga javob bermasa, soliq to'lovchi joriy soliq davrining boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiradigan soliq to'lovchi soliq qonunchiligidan belgilangan shartlarga javob bermay qo'yan soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibini tanlash to'g'risida yozma bildirish taqdim etadi.

Soliq to'lovchining yozma bildirishni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga roziligi deb hisoblanadi.

Yagona yer solig'ini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchi soliq qonunchiligidan nazarda

tutilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodon-lashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha u umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq davrining birinchi choragi uchun joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tgan yagona yer solig'ini to'lovchi soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan tartibga muvofiq faqat navbatdagi soliq davri boshidan boshlab yana yagona yer solig'ini to'lashga o'tishga haqlidir.

Soliq qonunchiligidida belgilangan shartlatga javob beradigan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari faoliyatning yagona yer solig'ini to'lash tatbiq etiladigan qismi bo'yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'limgan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona yer solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolingan mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo'yicha korxonalarining tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'ovi to'lashi mumkin. Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan soliq to'lovchi umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishi kerak.

Yagona yer solig'ini to'lovchilar uchun soliq qonunchiligidida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar bundan mustasno.

Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona yer solig'i to'lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Yer uchastkalari ijara (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona yer solig'ini to'lash majburiyati ijara beruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

6.3. Yagona yer solig'i solish obyekti va soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijara berilgan yer uchastkasi soliq solish obyektidir.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

6.4. Yagona yer solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlar

Yagona yer solig'ini to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

– soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan shartlarga muvofiq kelgan taqdirda, yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer

xo'jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga tatbiq etilmaydi;

— ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari — yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taoimili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar — yagona yer solig'i to'lovchilarga soliq qonunchiligidagi nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

6.5. Yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'inining belgilangan stavkasi

Yer resurslarini hisobga oluvchi va (yoki) baholovchi organlar yer uchastkasiga nisbatan huquqi yuzaga kelgan (tugatilgan) shaxslarni ko'rsatgan holda yer uchastkasiga nisbatan huquq berilganligi (tugatilganligi) hamda qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati to'g'risida yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shart.

1. Har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

2. Belgilangan mezonlarga muvofiq yagona yer solig'i to'lovchilariga kiritiladigan baliqchilik xo'jaliklari sug'oriladigan yerkarning tuman bo'yicha o'rtacha normativ qiymatidan kelib chiqib, yagona yer solig'ini to'laydilar.

Yer uchastkalarining *normativ qiymati* — bu yer resurslarini hisobga oluvchi va baholovchi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi

tomonidan belgilangan har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining baholangan qiymatidir.

Bunda jamoat imoratlari va hovlilari bilan band bo'lgan yerlar 2,0 koeffitsiyentini qo'llagan holda baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq 2012-yilda yagona yer solig'i stavkasi quyidagi miqdorda belgilangan (6.5.1-jadval).

6.5.1-jadval

Yagona yer solig'i stavkasi

To'lovchilar	Normativ qiymatga nisbatan stavka, foizda
Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari	6,0

6.6. Yagona yer solig'i bo'yicha soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va to'lash tartibi

Kalendar yil soliq davridir.

Yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1-mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i er uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lган

huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1-dekabrigacha yagona yer solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1-iyuligacha — yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1-sentabrigacha — yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1-dekabrigacha — soliqning qolgan summasi.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa o'rnida qayd etish joizki, yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarning faoliyatini erkinlashtirish va soliqlar vositasida rag'batlantirish iqtisodiy taraqqiyot barqarorligini belgilovchi eng qulay hamda iqtisodiy jihatidan samarali usul hisoblanib, iqtisodiyot islohotlari istiqbollarining asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Yagona yer solig'i to'lovchilari tarkibini tushuntirib bering.*
2. *Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
3. *Yagona yer solig'i solish obyekti va soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi nimalardan iborat?*
4. *Yagona yer solig'i bo'yicha beriladigan imtiyozlarni aytib bering.*
5. *Yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasini tushuntiring.*
6. *Yagona yer solig'i bo'yicha soliq hisob-kitoblarini taqdim etish qanday?*
7. *Yagona yer solig'ini hisoblashda miqdoriy usullarning qo'llashni tushuntirib bering.*

Asosiy adabiyotlar

1. *Islom Karimov. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. — T.: O'zbekiston, 2012. — 36-b.*

2. *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzаси. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаги маъruzасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2012-yil, yanvar.
6. *Никулкина И.В.* Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Эксмо, 2010. – 145–156 с.
7. *Vahobov A., Jo'rayer A.* Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.:Sharq, 2009. – 408–418-б.
8. *Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To'xsanov Q.N.* Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007. – 228–260-б.
9. *Yahyoyev Q.* «Soliqqa tortish nazariyasи va amaliyoti». Darslik – Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

IV BO'LIM **YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN** **SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR**

7-BOB **YURIDIK SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN** **QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I**

7.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1992-yilda joriy etilgan bo'lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo'lib, 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992-yil 30-martdagi «Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi» yo'riqnomasi hisoblanadi. Soliq qonunchiligiga muvofiq 1992-yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan.

Qo'shilgan qiymat solig'ining obyektiv zarurligini davlat budgeti daromadlarini shakllantirish bilan ifodalash mumkin. Mamlakatimizda xilma-xil mulk shakllarining paydo bo'lishi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ular faoliyatiga aralashuvi faqat qonun yo'li bilan, ya'ni soliqlar jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i orqali bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bu vazifalarga mamlakatimizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi.

Davlat kuchli ijtimoiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun nafaqaxo'rlar, talabalar, ko'p bolali onalar va boshqlarni ko'proq mablag' bilan ta'minlash zarurligini anglab cheklangan tovarlar bahosidagi farqni budget hisobidan qoplaydi va ularga boshqa

xarajatlarini davlat hisobidan amalga oshiradi, kam ta'minlanganlarga moddiy yordamlar tashkil etadi.

Shuningdek, mamlakatimiz jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlashga, harbiy texnikaga ham mablag'lar sarflaydi. Davlat fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, mamlakatda tartib intizom o'rmatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni, jumladan qo'shilgan qiymat solig'ini obyektiv zarur qilib qo'yadi (7.1.1-jadval).

7.1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi Davlat budjeti parametrlari

Asosiy budjet ko'rsatkichlari	2010-yil	2011-yil	O'sish ko'rsat- kichlari % da	Budjet daromadlarida salmogi %da
Davlat budjeti daromadlari	13 116 396,9	16 178 563,5	123,3	100
Shu jumladan: bevositasoliglar	3 420 602,8	4 238 732,8	123,9	26,2
bilositasoliglar	6 973 809,5	8 656 853,1	124,1	53,5
Resurs soliqlari	1 974 143,8	2 308 908,7	116,9	14,3
Boshqa daromadlar	589 120,3	974 068,	165,3	6,0
Budjet xarajatlari	13 732 502,5	16 991 100,0	123,7	Budjet defitsiti YaIMga nisbatan 1,0 foiz

Bozor munosabatlarida davlat ham uning boshqaruvchisi, ham asosiy ishtirokchisi bo'ladi. Bu yerda davlat ishtiroki uning

jamiyat uchun o'ta zarur bo'lgan mamlakat xavfsizligini ta'minlash, tartib-intizom o'rnatish, ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar, sog'liqni saqlashni ta'minlash, mamlakatni boshqarish, dunyo hamdo'stligi mamlakatlari bilan har xil aloqaлarni o'rnatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmalarini tashkil etish va rivojlantirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishda o'z ifodasini topadi.

2011-yilda davlat budgetining daromadlar qismida egri soliqlar 8 656,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Shundan, qo'shilgan qiymat solig'i 5228,7 mlrd. so'm, aksiz solig'i 2481,7 mlrd. so'm, bojxona bojlari 515,9 mlrd. so'm, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq 430,3 mlrd. so'mdan iborat (7.1.2-jadval).

7.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining rivojlanish bosqichlari

Davlat budgetining daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'idan foydalanish 1919-yilda vujudga kelgan. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor Germaniyada 1919-yilda *Vilgetmfon Simens* tomonidan «Veredelte Umsatzteuer» nemischa mu-kammallahgan aylanma soliq nomi bilan joriy etilib, bu soliq turi qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954-yilda taklif qilingan va 1960-yilda *Kot-d-Ivuar* Respublikasida joriy etildi va Fransiya soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan.

Dunyo mamlakatlarida qo'shilgan qiymat solig'ini undirish tartibi dastlab 1954-yilda fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan tavsiya etilgan, bu soliq turi bilan bog'liq fikrlar XX asrning boshlarida vujudga kelgan va jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida 1992-yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan.

7.1.2-jadval

Egri soliqlarning O'zbekiston Respublikasi davlat
budjeti tizimida tutgan o'rni

Ko'rsatkichlar	2006-yil	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil
	mild. so'm	mild. so'm	mild. so'm	mild. so'm	mild. so'm	mild. so'm	mild. so'm
Daromadlar, davlat maqsadli jamg'anmlarisiz – jami	4042,6	5100,9	7108,3	10421,4	13 116,4	16 178,5	20614,1
1. Bilwosita (egri) soliqlar	1 986,7	2478,1	3571,0	5 162,1	6973,8	8 656,8	11 187,8
1.1. Qo'shilgan qiymat solig'i	1 017,3	1261,7	2000,9	3093,9	3988	5228,7	6784,5
1.2. Aksiz solig'i	760,5	915,7	1170,4	1503,9	2191,0	2481,7	3115,5
1.3. Bojxona bojlari	86,8	116,0	247,8	361,1	479,3	515,9	732,4
1.4. Jismoniy shaxslardan yagona bojxona to'lovi	45,9	73,4	–	–	–	–	–
1.5. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.	76,2	111,3	151,9	203,2	315,5	430,3	555,4

7.3. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tarkibi

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

1. Soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar.
2. Soliq qonunchiligidagi muvofiq zimmasiga O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar.

3. Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno.

4. Oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yuridik shaxs.

Quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanmaydi:

1. Notijorat tashkilotlari.
2. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

7.4. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza

Soliq solish obyekti quyidagilardir:

1. Soliq solinadigan oborot.
2. Soliq solinadigan import.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1. Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.
2. Bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga, agar tarkibiy bo'linmalar soliq qonunchiligidagi muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lsa, mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

3. Mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish.

4. To'lovni bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan tovarni jo'natish.

5. Mol-mulkni operativ ijaraga berish.

6. Intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqni o'tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish.

7. Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'ini hisoblab chiqarishda soliq qonunchiligiga muvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o'z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirlayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlariga, agar ularni realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi hududi bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlar jo'natilgan (berilgan) kun tovarlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Agar tovarlarni jo'natish amalga oshirilmasa, tovarga bo'lgan mulk huquqi oluvchiga o'tkazilgan kun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo'yilgan mol-mulk (tovar) garovga qo'yuvchi tomonidan topshirilganda garov narsasiga bo'lgan mulk huquqi o'tkazilgan sana garovga qo'yuvchi uchun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Yuridik shaxsning xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog'liq bo'limgan shaxsiy ehtiyojlari uchun ish haqi hisobiga, shu jumladan bepul tovarlar berilganda, ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda tovar berilgan, ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilgan hamda hisobvaraq-faktura va (yoki) ishlar bajarilgani, xizmatlar ko'rsatilgani faktini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar rasmiylashtirilgan kun oborot amalga oshirilgan sanadir.

Tara shartnomada nazarda tutilgan muddatda qaytarilmasa, bu tarani qaytarish uchun belgilangan sana qaytarilishi lozim bo'lgan taraning realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana quyidagi shartlardan biri bajarilganda boshlanadi:

- hisobvaraq-faktura yozib berilganda;
- ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko'rsatilganligi faktini tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilganda.

Ishlar, xizmatlar doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilingan taqdirda, hisobvaraq-faktura yozilgan sana ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Shartnoma(kontrakt)ning amal qilishi davrida ishlarni, xizmatlarni oluvchi ularning natijalaridan o'z ishlab chiqarish faoliyatida doimiy asosda foydalanishi mumkin bo'lgan taqdirda, doimiy (uzluksiz) asosda realizatsiya qilish ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini anglatadi.

Ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi norezidentidan olingan taqdirda, ishlar, xizmatlar olinganligi to'g'risidagi hujjat rasmiylashtirilgan sana oborot amalga oshirilgan sanadir.

Soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to'lovchiga o'z ehtiyojlari uchun tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda), shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining

qiymati asosida, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida, soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tu-shirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lган mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aksiz solig'inining summasi kiritiladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida belgilanadi.

Mol-mulk moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berilganda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida belgilanadi, soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar moliyaviy

ijara (lizing)ga berilganda esa, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktivning qiymati soliq solinadigan bazadir. Bunda chiqib ketayotgan aktivning qiymati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan, moliyaviy ijara ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida aktiv sifatida e'tirof etiladigan summa tarzida belgilanadi.

Qurilishi tugallanmagan obyekt realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, qurilishi tugallanmagan obyektni realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida belgilanadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta'minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi bilan qarzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida aniqlanadi.

Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholar (tariflar)dan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq realizatsiya qilishda soliq solinmaydigan oborotlar hisoblanuvchi chiptalar, abonnementlar, yo'llanmalar (joysiz davolanish uchun berilgan hujjatlar) va xizmatlar olishga huquq beruvchi boshqa hujjatlar mazkur xizmatlarni ko'rsatmaydigan yuridik shaxslar tomonidan o'z xodimlari va ularning oila a'zolari uchun realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, realizatsiya qilish bahosi va ularni olish bahosi o'rtasidagi ijobjiy farq sifatida aniqlanadi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish nazarda tutilmagan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda (mazkur mol-mulk qo'shilgan

qiymat solig'i bilan olinganligi yoki olinmaganligidan qat'i nazar), soliq solinadigan baza uning realizatsiya qilish (chiqib ketish) qiymati bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo'lган summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lган summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasiga binoan komitent yoki topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lган taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

Garovga qo'yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo'yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda mazkur garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lмаган miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha garovga qo'yuvchining soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans

(qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

1. Tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda.
2. Bitim shartlari o'zgarganda.
3. Narxlar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalanganda.
4. Bajarilgan ishlardan, ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Soliq solinadigan bazaga soliq qonunchiligidan nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish qo'shimcha hisobvaraq-faktura yoki tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganligi nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'inining, bojxona bojlarining summałari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan taqdim etilgan ishlar, xizmatlar, agar ularning realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bolsa va soliq qonunchiligiga muvofiq ularga qo'shilgan qiymat solig'i solinishi kerak bo'lsa, ishlarni,

xizmatlarni oluvchi O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchisining soliq solinadigan oborotidir.

Ishlar, xizmatlarni oluvchida soliq solinadigan baza O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromad bo'yicha to'lov manbayida ushlab qolinishi lozim bo'lgan soliq summasi chegirib tashlanmagan holda belgilanadi.

Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'inining summasi belgilangan stavka va soliq solinadigan bazadan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Olingan ishlar, xizmatlar uchun haq to'lash chet el valutasida amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan oborot bu oborot amalga oshirilgan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valutada qayta hisoblab chiqiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjati soliq qonunchiligiga muvofiq soliq summasini hisobga olish huquqini beradi.

Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini aniqlashda tovarlarni (ishlatni, xizmatlarni) oluvchi haqiqatda olingan va (yoki) soliq to'lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan hamda o'z ehtiyojlari uchun foydalanilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'inining summasini hisobga olish huquqiga ega, agar bunda quyidagi shartlar bajarilsa:

1. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi bo'lsa.

Tovarlardan (ishlardan, xizmatlardan) soliq solinadigan oborotlar, shu jumladan nol darajali stavka qo'llaniladigan oborotlar maqsadida foydalanilsa.

2. Olingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) yetkazib beruvchi tomonidan yozilgan hisobvaraq-faktura yoki soliq qonunchiligiga muvofiq taqdim etiladigan qo'shilgan qiymat solig'i alohida ajratib ko'rsatilgan boshqa hujjat mavjud bo'lsa.

3. Tovarlar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'i budjetga to'langan bo'lsa.

4. Qo'shilgan qiymat solig'i budjetga to'langan bo'lsa.

5. Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan tovarlar eksportida chet elliq sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan eksport qilinayotgan tovarlar uchun haq to'langanligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirma mavjud bo'lsa.

Mol-mulk ustav foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda moddiy resurslar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan shartlarga rioya qilgan holda hisobga olish huquqiga ega.

Tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlar bajarilganda, xizmatlar ko'rsatilganda moddiy resurslar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i summasi, shu jumladan ehtiyyot qismlari va detallari qiymati soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan shartlarga rioya etilgan taqdirda hisobga olinadi.

Tovar vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha olingan taqdirda, komitent, topshiriq beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishda to'langan qo'shilgan qiymat solig'i hisobot davrida realizatsiya qilingan tovarlar ulushida hisobga olinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga va (yoki) qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy to'lashga o'tilgan taqdirda, yuridik shaxs bunday turdagini to'lov larga o'tilgan paytdan e'tiboran tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qoldiqlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish huquqiga ega.

7.5. Soliq solinadigan aylanmani aniqlash

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchida soliq solinadigan va solinmaydigan oborotlar, shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotlar mavjud bo'lgan taqdirda,

qo'shilgan qiymat solig'i soliq qonunchiligidagi belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Mol-mulkni ijaraga berishga, intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqini berishga xizmatlar sifatida qaraladi.

Quyidagilar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinmaydi:

1. Olinayotgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha, shuningdek moliyaviy ijaraga, shu jumladan tizingga berish uchun olinayotgan mol-mulk bo'yicha.

2. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'limgan yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar tomonidan foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha.

3. O'zbekiston Respublikasi hududi realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etilmaydigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha.

4. Tekinga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha.

5. Soliq qonunchiligiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlarni amalga oshirish maqsadida olingan mol-mulk bo'yicha.

Ilgari hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi hollarda hisobga olishdan chiqarib tashlanishi kerak:

— qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun yuridik shaxslar tomonidan foydalaniyotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha;

— soliq qonunchiligidagi belgilangan qoidalarga rioya etilmagan taqdirda;

— qonun hujjalari muvofiq vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan normalardan, bunday normalar mavjud bo'lma-ganda esa soliq to'lovchi tomonidan tasdiqlangan normalardan ortiqcha moddiy resurslar bo'yicha yo'qotishlar va buzilishlar.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solishning soddashtirilgan tartibiga (qo'shilgan qiymat solig'i to'lamaydiganlar

toifasiga) o'tganda ilgari hisobga olingan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari, shuningdek, tayyor mahsulot qoldiqlari bo'yicha hisobga olishga kiritilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritiladi. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha imtiyoz berilganligi munosabati bilan soliq solinmaydigan oborotlar yuzaga kelgan soliq to'lovchilarga ham tuzatish kiritishning shunga o'xhash tartibi tatbiq etiladi.

Soliq solinmaydigan oborot uchun foydalaniladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha mahsulot yetkazib beruvchilarga va import bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan (to'langan) qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmaydi, balki ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatida hisobga olinadi.

Soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot mavjud bo'lganda soliq solinadigan oborotga, shu jumladan nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborotga, shuningdek, yuridik shaxsning o'z ehtiyojlari uchun (xarajatlar sifatida qaraladigan) oborotga to'g'ri keladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summa qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchining tanloviiga binoan alohida-alohida va (yoki) mutanosib usulda aniqlanadi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasini aniqlashning tanlangan usuli kalendar yil mobaynida o'zgartirilishi mumkin emas.

Mutanosib usul qo'llanilganda hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi soliq solinadigan oborotning umumiyligi oborot summasidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanadi.

Alohida-alohida usul qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan oborot maqsadlarida foydalanish uchun olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yuzasidan xarajatlar hamda qo'shilgan qiymat solig'i summalarini bo'yicha alohida-alohida hisob yuritadi. Bunda alohida-alohida hisobni yuritish imkonini bo'limgan umumiyligi xarajatlar bo'yicha xarajatlarni taqsimlash mutanosib usulda amalga oshiriladi.

7.6. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari quyidagilardan iborat:

- 20%li qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi;
- nol darajali qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq 2012-yilda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foiz miqdorida saqlab qolindi.

Tovarlarni chet el valutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno) oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Chet el tarafi o'zarolik prinsipiغا amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalar hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek bu vakolatxonalar diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlarning, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasalar hamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo'lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda nol darajali stavka qo'llanilishi tatbiq etiladigan O'zbekiston Respub-

likasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarining va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar qayta ishlash mahsulotlari O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan bo'lsa, nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

«Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga), agar keyinchalik qayta ishlash mahsulotlari bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq «erkin muomalaga chiqarish» rejimiga joylashtiriladigan bo'lsa, belgilangan stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Xalqaro yo'nalishda tashishlar bo'yicha ko'rsatiladigan quyidagi xizmatlarni realizatsiya qilish oborotiga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi:

— tranzit yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab tashish;

— yo'lovchilar, bagajlar, yuklar va pochtani xalqaro yo'nalishda tashish.

Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan ana shunday xizmatlarga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

1. Yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat

boji, patent boji, yig'im yoki boshqa to'lovlar undiriladigan xizmatlar.

2. Maktabgacha ta'llim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar.

3. Bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar.

4. Dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari.

5. Protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljalangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljalangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar.

6. Davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari.

7. Pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar.

8. Aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari.

9. Budjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari.

10. Shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari.

11. Oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlari, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'llim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar.

12. Qimmatbaho metallarni vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirish va ularning eksporti.

13. Tibbiy (veterinariya) xizmatlari (kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno), dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar.

14. Chet el havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati.

15. Sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, sayyoqlik-ekskursiya xizmatlari, shuningdek jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari.

16. Davlat mulkini xususiylashtirish tartibida realizatsiya qilinayotgan mol-mulk.

17. Gidrometeorologiya va aerologiya ishlari.

18. Geologiya va topografiya ishlari.

19. Bosma mahsulotlar, shuningdek bosma mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari).

20. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar.

21. Nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiyligi sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), bundan vositachilik, savdo, tayyorlov, ta'minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo'yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno.

22. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar ola-

digan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

23. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar.

24. Vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo'linmalari o'tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari.

25. Davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari.

26. O'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti.

27. Ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari.

28. Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali sifatida beriladigan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish obyektlari.

29. Budjet mablag'lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproq va geobotanika ishlari.

30. Davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda.

31. Telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar.

32. Investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtaida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatları sifatida topshirilayotgan mol-mulk.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan bank kafolatlari berish.

2. Depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish.

3. To'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatları, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkassa bo'yicha operatsiyalar.

4. Milliy valuta va chet el valutasi bilan bog'liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno.
 5. Yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlar depo-hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil depozitariylarini ochish hamda yuritish.
 6. Qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar.
 7. Qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish.
 8. Kliring operatsiyalari.
 9. Akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish.
 10. Pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar.
 11. Chet el valutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish.
 12. Kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almash-tirish, saralash va saqlash).
 13. Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijara beruvchi (lizingga beruvchi)ning foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish.
 14. Forfeyting va faktoring operatsiyalari.
 15. Lombard operatsiyalari (garovga qo'yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish).
 16. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining oboroti.
- Sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:
1. Sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat so'lig'idan ozod qilinadi:
 - a) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;
 - b) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi va tantemalar;

d) sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, syurveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

e) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining qayta sug'urtalovchilar tomonidan to'lanadigan to'lovini;

f) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo'yicha daromadlar;

g) sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

h) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug'urta qildiruvchi tomonidan qayta sug'urtalovchiga o'tkazilgan foizlar;

i) hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

j) sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan sug'urta rezervlari va sug'urta fondlari mablag'larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha franchizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjalariغا muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalar;

n) bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar.

2. Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

- a) sug'urta to'lovi (sug'urta tovoni);
- b) preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;
- d) sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;
- e) sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

Quyidagi tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

1. Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar.

2. Chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma'muriy-texnik xodimilari, shu jumladan ularning o'zлari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar.

4. Davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan hayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar.

5. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarz (kredit)lar mablag'lari, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar.

6. Dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan xomashyo.

7. O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarni yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa.

8. Investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk.

9. Vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiya operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari.

10. Bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xomashyo, materiallar va yarim mahsulot.

11. Qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yog'och-taxta materiallar va yog'och.

7.7. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Budjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan soliq qonunchiligiga muvofiq hisobga olinadigan soliq summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Tovarlarni import qilish bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'inining summasi soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'inining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobda turgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

– qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshirilgan muddatda;

— mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmay-digan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda faqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'inining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraq-fakturalar reestrini taqdim etadi. Hisobvaraq-fakturalar reestrining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetga to'lash soliq qonunchiligidagi muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitoblarini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Hisobvaraq-faktura va uni to'ldirish tartibi

Hisobvaraq-faktura qat'iy hisobot hujjati bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

1. Hisobvaraq-fakturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi.

2. Hisobvaraq-faktura ilova qilinadigan tovar jo'natish hujjatlari yoki shartnomaning raqami va sanasi.

3. Soliq to'lovchining va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib oluvchining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda identifikatsiya raqami.

4. Realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning nomi va o'Ichov birlklari (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa).

5. O'Ichov birligidan (ularni ko'rsatishning imkoniyati bo'lsa) kelib chiqqan holda realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan

ishlarning, ko'rsatilgan xizmatlarning hisobvaraq-faktura bo'yicha soni (hajmi).

6. Shartnoma (kontrakt) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda, qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narx (tarif)lar qo'llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o'lchov birligiga to'g'ri keladigan narx (tarif).

7. Realizatsiya qilinayotgan tovarlar, bajarilayotgan ishlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar jami soni (hajmi)ning qo'shilgan qiymat solig'isiz qiymati.

8. Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'inining stavkasi va summasi.

9. Tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va summasi.

10. Realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar jami soni (hajmi)ning aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olingan qiymati.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan oborotni va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'limgan yuridik shaxslar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi shaxsga hisobvaraq-faktura taqdim etishlari shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

1. Yo'lovchilar tashishni yo'l chiptalari bilan rasmiylash-tirish.

2. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitansiya berish.

3. Tovarlarning eksport-import tarzida yetkazib berilishini rasmiylashtirish.

4. Qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi rasmiylash-tiriladigan moliyaviy ijara (shu jumladan lizing) shartnomasi bo'yicha mol-mulkni topshirish. Bunda tegishli hujjatlar (moliya-

viy ijara shartnomasining tarkibiy qismi bo'lgan ijara (lizing) to'lovlari jadvali, hisobvaraq, ijara (lizing)ga oluvchiga ijara (lizing) to'lovlarini to'lash uchun yuborilgan yozma bildirish va shu kabilar bilan rasmiylashtirilgan har bir ijara (lizing) to'loviga ham hisobvaraq-faktura yozilmaydi.

5. Bank operatsiyalarini mijozning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma berish orqali rasmiylashtirish.

6. Sug'urta xizmatlarini topshiriq shartnomasi va (yoki) sug'urta polisi orqali rasmiylashtirish.

7. Soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda, ishlarni (xizmatlarni) haqiqatda mazkur ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirish.

Soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan hujjatlar hisobvaraq-faktura o'rnni bosadigan hujjatlardir. Bunda qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib berilgan taqdirda, ushbu hujjatlarda qo'shilgan qiymat solig'i summasi albatta ajratib ko'rsatilishi kerak.

Kelgusida tovarlarni yetkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun oldindan to'langan haq (bo'nak) yozilgan hisobvaraq-faktura bo'lmaydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'imagan, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturada qo'shilgan qiymat solig'i summasini ko'rsatmaydilar hamda «qo'shilgan qiymat solig'isiz» degan shtamp bosadi (yozib qo'yadi).

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi uchun hisobvaraq-faktura qo'shilgan qiymat solig'ini soliq qonunchiligiga muvofiq hisobga olish uchun asos bo'ladi.

Hisobvaraq-faktura tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanada yoziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo'lda tashishlar, transport-ekspeditorlik xizmati, bank operatsiyalari, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) uzluksiz yetkazib

berishni amalga oshirayotgan soliq to'lovchilar oyning oxirgi kunida bir marta hisobvaraq-faktura yozadi.

Hisobvaraq-fakturada tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati va qo'shilgan qiymat solig'i summasi milliy valutada ko'rsatiladi.

Tuzilgan shartnomalarning shartlariga binoan tovarlariga, ishlari va xizmatlariga narx (tarif)lar chet el valutasida belgilangan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturalarni chet el valutasida yozib, ayni bir vaqtda uni hisobvaraq-faktura yozib berilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblagan holda milliy valutada ifodalaydi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi qo'shimcha hisobvaraq-fakturada quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatishi kerak:

1. Qo'shimcha hisobvaraq-fakturaning raqami va tuzilgan sanasi.
2. Hisobvaraq-fakturani to'ldirishda zarur bo'lgan rekvisitlar.
3. Tuzatish kiritilayotgan hisobvaraq-fakturaning raqami va sanasi.
4. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobiy).
5. Qo'shilgan qiymat solig'i summasiga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobiy).

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar o'zлari olgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraq-fakturalarning, shuningdek realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalarning reyestrini yuritishi shart. Bunda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraq-fakturalar reyestriga faqat qo'shilgan qiymat solig'i ajratib ko'rsatilgan hisobvaraq-fakturalar kiritiladi.

Hisobvaraq-fakturaning shakli, uni to'ldirish tartibi, shuningdek kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraq-fakturalar

reyestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining soliq davri yakunlariga ko'ra hisoblangan soliq summasidan ortiqchaligi saqlanib qolgan taqdirda, ushbu ortiqcha summa keyingi soliq davriga o'tkaziladi va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi yoxud soliq to'lovchiga belgilangan tartibda qaytariladi.

Nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining ortiqcha summasi davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining soliqni qaytarib berish to'g'risidagi yozma arizasini olgan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- soliq qonunchiligiga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi qoplanadi;
- soliq to'lovchining boshqa soliqlar bo'yicha mavjud qarzi qoplanadi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchining bank hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkaziladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini pul mablag'larini bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan soliq to'lovchiga qaytarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish uchun soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni yozma arizaga to'rt nusxada ilova etgan holda taqdim etadi:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yuridik shaxs qarzlarining solishtiruv dalolatnomasi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzlarning solishtiruv dalolatnomasi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar tuziladi va bir kalendor oy mobaynida amal qiladi;

- qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi;
- agar yuridik shaxsga ilgari qo'shilgan qiymat solig'i qaytarib berilgan bo'lsa, qaytarilgan summalar va qaytarib berish sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Soliq to'lovchilar soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1. Tovarlarni eksport qilishni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar — hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, shuningdek chet el valutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni;

— tovarlar eksportini vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxslar — hujjatlarning ko'chirma nusxalarini, shuningdek chet el valutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko'chirmalarni yoki ularning ko'chirma nusxalarini.

2. Chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglash-tirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilayotgan yuridik shaxslar — belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan hisobvaraq-fakturalarning nusxalarini.

3. «Bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko'rsatayotgan, shuningdek chet el yulkalini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tashish (tranzit tashish) bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar:

— ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish uchun tuzilgan kontraktning nusxasini;

— bajarilgan ishlarga, ko'rsatilgan xizmatlarga chet elliq sotib oluvchi (to'lovchi) tomonidan haq to'langanligini tasdiqlovchi bank ko'chirmasi nusxasini;

– ishlarni (xizmatlarni) sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko'rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjat nusxasini.

4. Aholiga suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti, gaz ta'minoti bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan yuridik shaxslar – nol darajali stavka qo'llanganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarish to'g'risidagi yozma arizani ko'rib chiqish hamda mablag'larni soliq to'lovchining hisobvarag'iga soliq qonunchiligiga muvofiq o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

- qo'shilgan qiymat solig'i to'laydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun – bir oy.

Qo'shilgan qiymat solig'inining ortiqcha to'langan summasi soliq to'lovchining boshqa solqlar bo'yicha qarzi bo'lмаган taqdirda, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchiga qaytariladi.

Hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasining navbatdagi hisobot davri uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasidan ortgan summasi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha navbatdagi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining tadrijiy rivojlanish jarayonlarida soliq solish tartibi va soliq munosabatlari uzlusiz ravishda o'zining takomillashish tafsifiga ega bo'lgan. Soliq munosabatlari tizimini bugungi soliq islohotlari talablari darajasida yanada samaraliroq tashkil etish va amalga oshirish, soliq subyektlari tomonidan undagi ayrim

elementlar mexanizmini maqbul tartiblar asosida qabul qilish zaruriyatini ko'rsatadi.

Soliq munosabatlaridagi muhim soliq solish elementlari mexanizmidan biri, bu qo'shilgan qiymat solig'iga tortish mexanizmidir. Qo'shilgan qiymat solig'iga tortish mexanizmining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun soliq subyektlarining soliq qonunchiligi tartiblariga to'liq rioya qilgan holda faoliyat ko'rsatishlarini talab etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i bilan to'ldirish g'oyasi qachon vujudga kelgan?*
2. *Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qayerda va kim tomonidan qanday nom bilan joriy etilgan?*
3. *Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan kim tomonidan qachon taklif qilingan?*
4. *Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qachon va qaysi mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan?*
5. *O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i qachon joriy etilgan?*
6. *Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida qachondan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan?*
7. *Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanadi?*
8. *Qo'shilgan qiymat solig'i nimani ifodalaydi?*
9. *Qo'shilgan qiymat solig'i solish obyektiga nimalar kiradi?*
10. *Soliq solinadigan aylanma qanday aniqlanadi?*

Asosiy adabiyotlar

1. *Ислом Каримов.* 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтариадиган йил бўлади. – Т.: O'zbekiston, 2012. – 36-б.
2. *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруzasи. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишлиланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар

- Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаги маъruzasiни ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
 5. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2012-yil, yanvar.
 6. Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Экмо, 2010. – 145–156-с.
 7. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.:Sharq, 2009. – 408–418-б.
 8. Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007.–228–260-б.
 9. Yahyoyev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». Darslik – Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil, 16–45-betlar.

8.1. Aksiz solig‘i va uning soliq tizimida tutgan o‘rni

Aksiz solig‘ining asosiy vazifasi mablag‘ yig‘ishdan iborat, ya’ni u fiskal funksiyani to‘liq bajaradi. Bozor iqtisodiyoti jarayonlari rivojlanib borgan sari aksiz solig‘i fiskal funksiya bilan bir qatorda boshqa vazifalarni ham bajara boshlaydi. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish va ichki milliy bozorni rivojlantirishda hamda himoyalashda asosan aksiz solig‘iga tayanadi. Davlat aksiz solig‘i orqali mamlakat hududiga ayrim tovarlarni ko‘proq olib kirish yoki olib chiqish va buning aksini ifodalovchi vazifalarni bajarishi mumkin.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga bo‘linadi. Bilvosita soliqlarni huquqiy to‘lovchilari mahsulot (ish, xizmat)ni yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin soliq og‘irligini haqiqatan ham budgetga to‘lovchilari tovar ish, xizmatni iste’mol qiluvchilardir, ya’ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste’molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo’shimcha ravishda qo‘yiladi.

Bilvosita soliqlar, xususan aksizlar soliq tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dastlab soliq tizimi vujudga kelishida to‘g‘ri, ya’ni bevosita soliqlar shakllanib, keyinchalik davlatning vazifalari kengayib borgandan so‘ng bilvosita soliqlar, xususan aksiz solig‘i paydo bo‘ldi va amaliyotga kiritildi.

Aksizlar- tovarlar uchun qo‘yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo‘lib, qo‘shilgan qiymat solig‘idan farqli ma’lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo‘shiladi. «Aksiz» so‘zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, chopib tashlash ma’nosini bildiradi.¹

¹ Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005. — 160-bet.

Bu yerda ushbu to'loving o'ziga xos xususiyatlari kelib chiqadi. Aksizlar tovar narxiga qo'shiladi va davlatga uning qiymatidan bir qismini olishga yoki kesib olishga imkon beradi. Ustiga qo'yilgan qo'shimcha narx mahsulot ishlab chiqarishning unumdorligini yoki biron-bir alohida xususiyatlarini bildirmaydi, balki aksiz tovarlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishning alohida sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Bilvosita soliqlar xususan, aksiz solig'i davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi.

Bilvosita soliqlar tarkibida ikkinchi o'rinni aksiz solig'i egallaydi. Aksiz – bu ayrim tovarlarning narxiga yoki tarifiga kiritiladigan va xaridor tomonidan to'lanadigan, muayyan tovarlarni ishlab chiqarish yoki sotish uchun belgilangan bilvosita soliqdir.

Aksizni keng va tor ma'noda talqin qilish mumkin. Tor ma'noda bu tushuncha ostida, alohida tovarlarga aksizlar yoki individual aksizlar tushuniladi. Keng ma'noda esa aksiz tushunchasi individual aksizlarni ham, universal aksizlarni ham qamrab oladi. Ular o'rtasidagi farqi, uni undirish usuli hisoblanishi va amal qilish sohasiga bog'liq.

Ma'lumki, tarixda dastlab individual aksizlar paydo bo'lgan. Ularni kiritish va undirish tartibi iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib, soliqning bu turi alohida tovarlardan qat'iy belgilangan stavkalar asosida undirilgan. Universal aksizlar esa keng qamrovga ega bo'lib, barcha holatlarda tovarlar, xizmatlar, ishlar realizatsiyasi aylanmasi uni undirish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Universal aksizlarga oborotdan soliqlar, sotishdan olingan soliqlar, qo'shilgan qiymat soliqlari kiritilgan. Individual aksizlar chegaralangan ma'lum tovarlarga belgilangan va narxga kiritilib iste'molchi tomonidan to'langan.

Hozirgi vaqtida soliq tizimida aksizlar davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishi uchun muhim rol o'ynaydi. Alohida

tovarlardan aksiz solig'ini undirish zarurligi ulardan budjetni to'ldirishning qo'shimcha manbayi sifatida foydalanishdan tashqari, alohida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish zarurligi bilan ham bog'liqdir. Ular jumlasiga:

1. Atrof-muhit holatiga va inson salomatligiga zarar keltiradigan tovarlar iste'molini cheklash, ya'ni alkogol va tamaki mahsulotlari, avtomobil benzini.

2. Yuqori daromad olinadigan aholi iste'moli daromadlarini qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyoj.

3. Davlat monopoliyasida bo'lgan(neft, gaz) mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiyadan kelgan yuqori daromadni qayta taqsimlashga bo'lgan ehtiyoj kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan, 1999-yildan boshlab, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxati e'lon qilindi. Bu ro'yxat aksiz solig'iga tortish nazariyasiga ko'proq mos keladi. Aksizlar asosan atrof-muhitga va inson salomatligiga zarar keltiradigan hamda zeb-u ziynat buyumlaridan undirila boshlandi. Ushbu yondashuvga asosan, gilamlar, billur buyumlar, markali vinolar, tabiiy teridan tikilgan kiyimlar aksiz solig'i undiriladigan tovarlar ro'yxatidan chiqariladi.

Shu bilan birga ba'zi buyumlar, ichimlik va etil spirtining barcha turlari, aroq, vino mahsulotlari, konyak, shampan vinosi va boshqa alkogolli ichimliklar, zargarlik buyumlari, yengil avtomashinalar, avtomobil benzini va moddiy xomashyoning ba'zi turlari aksiz solig'iga tortila boshlandi.

Shuningdek, eksportga chiqariladigan tovarlardan aksiz solig'i undirilmaydigan bo'ldi, chunki ulardan ustama to'lov sifatida bojxona to'lovlarini undiriladi.

8.2. Aksiz solig'inining o'ziga xos xususiyatlari

Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ro'yxati va ularning stavkalari qonun orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan, mamlakatdagi holatdan kelib chiqib belgilanadi.

Masalan, mamlakatdagi inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan holatlarda.

2007-yil 23-noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2007-yil 30-noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan, 2007-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I. Karimov tomonidan tasdiqlangan 2008-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008- yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to'g'risidagi PQ-1024-son qaroriga asosan 14 turdag'i O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksizli tovarlar va 59 turdag'i tovar guruhidagi O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan aksizli tovarlar ro'yxati va ularning stavkalari belgilab berilgan.

8.3. Aksiz solig'i to'lovchilar tarkibi va soliqqa tortish obyekti

Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;
- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).

Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'limgan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan obyektdir:

- aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

- tovarni sotish (jo‘natish);
- garov bilan ta‘minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni garovga qo‘yuvchi tomonidan topshirish;
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni bepul topshirish;
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali)ga hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherik (ishtirokchi)ning hissasi sifatida topshirish;
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisasi)ga u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigi(ishtirokchisi)ga uning shartnoma ishtirokchilari umumiyligida mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;
- aksiz to‘lanadigan tovarlarni ulush qo‘shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo‘shish asosida xomashyo va materiallarni, shu jumladan aksiz to‘lanadigan xomashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;
- ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to‘lanadigan tovarlarni o‘z ehtiyojlari uchun topshirish;

— aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish.

Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'limgan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjalariغا muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi.

Soliq solinadigan bazaga quyidagi hollarda soliq to'lovchida tuzatish kiritiladi:

- tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- bitim shartlari o'zgartirilganda;
- baholar o'zgarganda, sotib oluvchi siylov (skidka)dan foydalanganda.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish soliq qonunchiligiga muvofiq yangi hisobvaraq-faktura yoki ko'rsatilgan hol yuz bergenligini tasdiqlovchi boshqa hujjalalar asosida amalga oshiriladi.

8.4. Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari

Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabr-dagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq aksiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan fozlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'chov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanadi.

Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish soliq qonunchiligiga muvofiq aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va aksiz solig'ining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ining summasi soliq qonunchiligidagi belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi.

Quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojxona hududida qayta ishlash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lган aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

– davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan hayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'r-satish maqsadida.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjalarda belgilanadi;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

8.5. Aksiz solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Aksiz to'lanadigan tovarlar oluvchiga jo'natilgan (topshirilgan) kun, aksiz to'lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshirilgan sanadir.

Garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlar garovga qo'yuvchi tomonidan topshirilgan taqdirda, garov narsasiga bo'lgan mulk huquqi o'tgan sana garovga qo'yuvchi uchun realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanadir.

Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda

qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga soliq qonunchiligidagi tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko'rsatilgan hollar yuz bergan soliq davrida amalga oshiriladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

- eksport qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlarni yetkazib berish uchun tuzilgan kontrakt;
- tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Aksiz to'lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aksiz solig'i summasi chegirib tashlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) yetkazib beruvchilar mazkur tovar (xomashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasini hisobvaraq-fakturada ajratib ko'rsatishlari kerak. Olinayotgan aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasi hisobvaraq-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, aksiz solig'inining mazkur summasi chegirib tashlanmaydi.

Chegirma soliq davrida realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlar hajmiga to'g'ri keladigan aksiz to'lanadigan tovar (xomashyo) hajmidan kelib chiqqan holda aniqlangan aksiz solig'inining hisobvaraq-fakturada yoki bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan summasiga nisbatan amalga oshiriladi.

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan aksiz to'lanadigan tovarlar topshirilayotganda ham

qayta ishlashga berilgan aksiz to'lanadigan xomashyo va materiallarning mulkdori aksiz solig'i to'laganligini tasdiqlash sharti bilan qo'llaniladi.

Soliq davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun – bir oy;
- aksiz solig'inining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:
- aksiz solig'i to'lovchilar bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi budjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;
- joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;
- kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilgan sana ularga doir operatsiya amalga oshirilgan sanadir.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjalari belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadar to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek, uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, soliqqa tortish tizimiga ko'ra aksiz solig'i bilvosita soliqlardan hisoblanib, mahsulot, tovar bahosi tarifiga ustama shaklda qo'yilib, iste'mol mahsulotining bahosining yuqori bo'lishiga narx-navoni o'sishiga bevosita ta'sir etadi.

Aksizlar – tovarlar uchun qo'yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo'shiladi. Aksizlar qadimda barcha davlatlar budgeti daromadlarini shakllantirishda munosib hissa qo'shib kelgan. Chunki aksizlar orqali davlat zarurati uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar tez va oddiy soliqqa tortish mexanizmi orqali undirish imkoniyati mavjud bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida aksizlar davlat moliyaviy resurslarining shakllanib borishida asosiy o'rinn tutadi. Alovida tovarlardan aksiz solig'ini undirish zarurligi ulardan davlat budgeti daromadlarini shakllantirishning qo'shimcha manbayi sifatida foydalanishdan tashqari, alovida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish uchun zarurligidir.

Bilvosita soliqlar xususan, aksiz solig'i davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda asosiy soliqlardan biri bo'lib, davlat budgeti daromadlari tarkibida eng yuqori soliq tushumlari ushbu soliqlardan tashkil topadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Aksiz tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. O'zbekiston Respublikasida aksiz solig'i qachon joriy etilgan?
3. Aksiz solig'ining to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
4. Aksiz solig'i solish obyektiga nimalar kiradi?
5. Aksiz solig'i bo'yicha qanday soliq imtiyozlari mavjud?
6. Aksiz solig'i stavkalari va hisoblash tartibi qanday?
7. Aksiz solig'i summasi budgetga qanday muddatlarda to'lanadi?

8. Aksiz solig'ini respublika budgetiga o'tkazish tartibi qanday?
9. Bojxona yuk deklaratsiyasida aksiz solig'ini aks ettirish tartibi qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. *Islom Karimov.* 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кутарадиган йил бўлади. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 36-б.
2. *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzаси. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кутарадиган йил бўлади» мавзусидаги маъruzасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari to'plami, 2012-yil yanvar.
6. *Никулкина И.В.* Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Эксмо, 2010. – 145–156 с.
7. *Vahobov A., Jo'ravayev A.* Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.: Sharq, 2009. – 408–418-bet.
8. *Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To'xsanov Q.N.* Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007. – 228–260-b.
9. *Zavalishina I.A.* Soliqlar nazariya va amaliyot. – Т.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005. – 160-b.
10. *Yahyoyev Q.* «Soliqqa tortish nazariyasи va amaliyoti» Darslik – Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

**9.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning
o'ziga xos xususiyatlari**

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kovlab olish, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalananuvchilardir.

Yer qa'ridan foydalananuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarini to'laydilar:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

**9.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning
to'lovchilari tarkibi**

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

- yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xomashyodan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalananuvchilar.

- foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalananuvchilar.

Kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti. Tayyor

mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

9.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning obyekti va soliqqa tortiladigan baza

Soliq solish obyekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

Uglevodorodlar uchun soliq solish obyekti quyidagilardir:

– sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlodan o'tkazilgan kovlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

– uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kovlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldor qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish obyekti.

Quyidagilar qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish obyekti:

– kovlab olingan (shu jumladan qo'shilib chiqadigan) foydali qazilmalar;

– foydali qazilmalardan, mineral xomashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar.

Soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kovlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Keng tarqalgan foydali qazilmalar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yer qa'tidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarish uchun, kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Hisobot davrida tayyor mahsulot realizatsiya qilinmagan bo'lsa, soliq solinadigan baza realizatsiya qilish amalga oshirilgan oxirgi hisobot davrida tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning o'rtacha olingan bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tayyor mahsulot umuman realizatsiya qilinmagan taqdirda, soliq solinadigan baza hisobot davrida mazkur foydali qazilmalarni kovlab olish (ajratib olish)ning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda soliq to'lovchi realizatsiya qilish amalga oshirilgan o'sha hisobot davrida hisoblangan yer qa'tidan foydalanganlik uchun soliq summasiga hisobot davrida tarkib topgan o'rtacha olingan bahodan kelib chiqqan holda keyingi tuzatishni kiritishi shart.

Tayyor mahsulot tannarxidan past bahoda realizatsiya qilingan yoki topshirilgan taqdirda o'rtacha olingan bahoni hisob-kitob qilish uchun tannarx qabul qilinadi, lekin u deklaratsiya qilinayotgan baholardan yuqori bo'lmasligi kerak.

Tayyor mahsulot (tayyor mahsulotning bir qismi) boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xomashyo bo'lgan

yoki tayyor mahsulot (qayta ishiab hosil qilingan mahsulot) o‘zining ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalangan hollarda bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

9.4. Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va ularning tabaqlanishi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognози va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq 2012-yilda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan (9.4.1-jadval).

9.4.1-jadval

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI

Soliq solinadigan obyekt nomi	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1. Asosiy va qo‘shimcha foydali qazibmalar kovlab olinishi uchun	
Energiya manbalari:	
Tabiiy gaz	30,0
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz	9,0*
Yer ostidan kovlab olingan gaz	2,6
Nostabil gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko‘mir	4,0

9.4. I-jadvalning davomi

Rangli va noyob metallar:	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0
Konsentratlangan qo'rg'oshin	4,0
Metall rux	4,0
Volfram konsentrat	10,4
Uran	10,0**
Asl metallar:	
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmat baho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	24,0
Qora metallar:	
Temir	4,0
Kon-kimyo xomashyosi:	
Tosh tuz (ovqatga ishlataladigan)	3,5
Kaliy tuzi	3,5
Natriy sulfat	3,5
Fosforitlar (grafitlarga)	5,0
Karbonat xomashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Glaukonit	3,5
Mineral pigmentlar	4,8
Kon-ruda xomashyosi:	
Plavik shpatli konsentrat	21,2
Tabiiy grafit	8,0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9

9.4. I-jadvalning davomi

Kvars-dala shpati xomashyosi	6,5
Shisha xomashyosi	3,0
Bentonitli toy	4,8
Talk va talktoshi	4,0
Talkomagnezit	4,0
Mineral bo'yoglar	5,7
Vollostanit	4,0
Asbest	4,0
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4,0
Barit konsentrati	4,0
Metallurgiya uchun noruda xomashyo:	
O'tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliplash gilmoyasi	4,0
Ohaktoshlar, dolomitlar	4,0
Kvars va kvarsitlar	6,5
Qoliplash qumlari	4,0
Vermikulit	4,0
Noruda qurilish materiallari:	
Sement xomashyosi	3,5
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	3,5
Marmar ushog'i	3,8
Gips toshi, ganch	5,3
Keramzit xomashyosi	3,5
G'isht-cherepitsa xomashyosi (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatidalyosslar, qumlar va boshqalar)	3,5
Gips va angidrit	4,0
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	3,8

9.4.1-jadvalning davomi

Qurilish qumlari	4,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	4,0
Qumtoshlar	3,5
Chig'anoq ohaktosh	3,5
Slanceslar	3,5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (mergellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	3,5
2. Texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali qazilmalar	Asosiy foydali qazilma boyligini kovlab olganlik uchun stavkaning 30%

*) Belgilangan stavka bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi belgilagan tartibda utilizatsiya qilingan mash'al gazini realizatsiya qiladigan korxona tomonidan to'lanadi.

**) «Navoiy KMK» DK uranni kovlab olganlik bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda to'laydi (9.4.2-, 9.4.3-jadvallar).

9.4.2-jadval

Imzolanadigan bonus

STAVKALARI

	Foydali qazilmalarni razvedka qilish va qidirish huquqi	Bonusning eng kam stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karrali miqdorlarda)
1.	Uglevodorod konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000

9.4.2-jadvalning davomi

2.	Oltin qidirish varazvedkaqilish huquqi	10 000
3.	Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob vaasl metall konlarini qidirish va razvedkaqilish huquqi	1 000
4.	Rudali foydali qazilmalar konlarini, 2 va 3-bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari, qidirish varazvedkaqilish huquqi	500
5.	Noruda foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedkaqilish huquqi	100

9.4.3-jadval

Tijorat topilmasi bonusi STAVKASI

Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	Stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va noruda foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	0,1

Tijorat topilmasi bonusining summasi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning yillik summasidan oshgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tijorat topilmasi bonusini 3 yilgacha muddatda bo'lib-bo'lib to'lash ko'rinishidagi imkoniyat berilishi mumkin (9.4.4- jadval).

9.4.4-jadval

Ayrim turdag'i mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foya solig'i STAVKASI

Mahsulot nomi	Soliq solinadigan bazaning miqdori (QQS va aksiz solig'isiz)	Soliq stavkasi
Katodli mis*	so'mdag'i ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 tonna uchun 4 000 AQSH dollaridan yuqori	50 foiz

Tabiiy gaz*	so'mdagi ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 000 kub m. uchun 130 AQSH dollaridan yuqori	
Polietilen granulalar**	1 tonna uchun 1 340 000 so'mdan yuqori	50 foiz
Sement**	1 tonna uchun 90 000 so'mdan yuqori	
Klinker	1 tonna uchun 80 000 so'mdan yuqori	

*) Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar soliq to'langandan so'ng qo'shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to'liq hajmda maxsus ochiladigan investitsiya hisobvaraqlariga o'tkazadilar.

Ko'rsatilgan investitsiya hisobvaraqlaridan mablag'lar faqat O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda sotish uchun ma'qul-langan investitsiya loyihalarini moliyalash, investitsiya loyihalarini amalga oshirishga jalg etilgan kreditlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek, asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.

**) Muqobil yoqilg'i – ko'mir asosida ishlab chiqarilgan oq sement va sementdan tashqari.

1. Qo'shimcha foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

2. Tabiiy gaz bo'yicha qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lib, tabiiy gazni eksportga realizatsiya qiladigan, qonun hujjatlariga muvofiq soliq solish obyekti yuzaga keladigan yuridik shaxstar (mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim doirasida faoliyatni amalga oshiradigan operatorlar va investorlar bundan mustasno) hisoblanadi.

9.5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar va ularning qo'llanilishi tartibi

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kovlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusi to'lanmaydi.

Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar soliq to'langandan so'ng qo'shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to'liq hajmda maxsus ochiladigan investitsiya hisobvaraqlariga o'tkazadilar.

Ko'rsatilgan investitsiya hisobvaraqlaridan mablag'lar faqat O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda sotish uchun ma'qullangan investitsiya loyihamalarini moliyalash, investitsiya loyihamalarini amalga oshirishga jalb etilgan kreditlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.

Tijorat topilmasi bonusining summasi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning yillik summasidan oshgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tijorat topilmasi bonusini 3 yilgacha muddatda bo'lib-bo'lib to'lash ko'rinishidagi imkoniyat berilishi mumkin.

Belgilangan stavka bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi belgilagan tartibda utilizatsiya qilingan mash'al gazini realizatsiya qiladigan korxona tomonidan to'lanadi.

«Navoiy KMK» DK uranni kovlab olganlik bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda to'laydi.

9.6. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarini hisoblash hamda to'lash tartibi

Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun — yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun — bir oy;
- jismoniy shaxslar uchun — kalendar yil;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- jismoniy shaxslar tomonidan — yilda bir marta, keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar quyidagilardir:

- ayrim foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) kavlab olishni (ajratib olishni) amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar;
- foydali qazilmalardan ishlab chiqariladigan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

Mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yer qa'ridan foydalanuvchilar qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi.

Realizatsiya qilishdan olingan sof tushum bilan qonun hujjatlarida belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan daromadning bir qismi (qo'shimcha foyda) qo'shimcha foyda solig'ini solish obyektiadir.

Qo'shimcha foyda summasi bilan qo'shimcha foyda qismiga to'g'ri keladigan sof tushumdan hisoblab chiqarilgan soliq va boshqa majburiy to'lovlar summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan sof qo'shimcha foyda soliq solinadigan bazadir.

Qo'shimcha foyda solig'i solinadigan foydali qazilmalar va mahsulot turlari ro'yxati, shuningdek soliqni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bonus yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lovdir.

Yer qa'ridan foydalanuvchi quyidagi turdag'i bonuslarni to'laydi:

- imzoli bonus;
- tijoratbop topilma bonusi;
- davlat boshqaruvi organlari bonuslar to'lamaydi.

Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.

Imzoli bonus litsenziya olingan kundan e'tiboran soliq to'lovchi tomonidan o'ttiz kundan kechiktirmay budgetga to'lanadi va bu haqda soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yozma shaklda xabar qilinadi.

Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdir. Tijoratbop topilma bonusi,

agar avval mazkur kon bo'yicha tijoratbop topilma bonusi to'lanmagan bo'lsa, foydali qazilmalarni kovlab olish huquqini olgan yer qa'ridan foydalanuvchilar tomonidan ham to'lanadi.

Foydali qazilma konlarini keyinchalik ularni kovlab olishni nazarda tutmaydigan qidirish o'tkazishda tijoratbop topilma bonusi to'lanmaydi.

Vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan konda foydali qazilmalarning qazib olinadigan zaxiralarini hajmi soliq solish obyektiidir.

Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati soliq solinadigan bazadir. Foydali qazilmalar zaxiralarining qazib olinadigan hajmining qiymati vakolatli davlat organi belgilagan axborot manbalarining ma'lumotlariga ko'ra xalqaro birjada belgilangan birja bahosi bo'yicha hisoblab chiqiladi. Jahon bozorida narx mavjud bo'lмаган taqdirda, qazib olinadigan foydali qazilmalarning qiymati vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Tijoratbop topilma bonusi soliq solinadigan bazadan va bonusning belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tijoratbop topilma bonusining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zaxiralarini tasdiqlagan kundan e'tiboran yigirma besh kundan kechiktirmay soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi.

Tijoratbop topilma bonusini to'lash vakolatli davlat organi foydali qazilmalar zaxiralarining kondan qazib olinadigan hajmini tasdiqlagan kundan e'tiboran to'qson kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

QISQACHA XULOSALAR

Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlari umum davlat soliqlari tarkibida yangi soliq turlaridan bo'lib, atrof-muhitga yetkaziladigan zarar oqibatlarni bartaraf

etish maqsadida joriy etilgan. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar davlatning moliyaviy resurslarga bo'lган ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan me'yorda va o'rnatilgan muddatda O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen hosilalardan foydalanish, shuningdek chaqnoq toshlar xomashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallarini yig'ish bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Soligga tortish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar tushunchasi qanday ma'noni anglatadi va maxsus to'lovlarga nimalar kiradi?*
2. *Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni to'lovchilar kimlar hisoblanadi?*
3. *Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar soliqqa tortish obyektlariga nimalar kiradi?*
4. *Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?*
5. *Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni hisoblash tartibi qanday?*
6. *Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?*
7. *Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni to'lash muddatlari qanday?*

Asosiy adabiyotlar

1. *Ислом Каримов.* 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 36-б.
2. *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшима мажлисидаги маърузаси. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўна-

лишларга бағытланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзуусидаги маъruzасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
5. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun huquqlari to'plami, 2012-yil yanvar.
6. Никутикова И.В. Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Эксмо, 2010. – 145–156 с.
7. Vahobov A., Jo'rayer A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.: Sharq, 2009. – 408–418-bet.
8. Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007.-228-260 b.
9. Yaqyoyev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». Darslik – Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

10-BOB

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

10.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning o'ziga xos xususiyatlari

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

- yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;
- tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlataladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.

Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, tadbirkorlik faoliyatida foydalaniadigan suv hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchi bo'ladi. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

10.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning obyekti va uni aniqlash tartibi

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniadigan suv resurslari soliq solish obyektidir.

Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlар kiradi.

Foydalanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suvdan foydalanishning buxgalteriya (birlamchi) hisobga olish hujjatlarida aks ettirilgan suv o'Ichagich asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'Ichagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obyektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dovdaraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riliqini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadilar. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmoqlaridagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1-fevraliga qadar taqdim yetishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari bu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.

Soliq to'lovchi issiq suv hamda bug' hosil qilinishi bo'yicha soliq solinadigan bazani ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun o'zi foydalangan suv resurslari hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraiga topshirilganda soliq solinadigan baza suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs

bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi tomonidan aniqlanadi.

Binolarning bir qismini, alohida joylarni ijaraga olgan va suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan yuridik shaxslar soliq solinadigan bazani mustaqil ravishda aniqlaydi.

Soliq to'lovchilar yuridik shaxslar bilan suv yetkazib berilishi yuzasidan solishtirib ko'rish jarayonida olingen suvning hajmini aniqlashtirishda suv hajmi farqini solishtiruv amalga oshirilgan davrdagi hisob-kitoblarda aks ettiradi.

Yuridik shaxslarning hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaruvchi soliq to'lovchilar bu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lamaydi. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarayotganda foydalaniladigan suv hajmi uchun bu ishlar qaysi yuridik shaxslar uchun bajarilayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi. Qurilish ishlari yangi qurilish maydonida bajarilgan taqdirda, qurilishda foydalaniladigan suv hajmi uchun qurilish tashkiloti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'limgan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir hektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun soliq solinadigan baza soliq qonunchiligidagi muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan aniqlanadi.

10.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti

parametrlari to‘g’risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq 2012-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari quyidagi miqdorda belgilangan (10.3.1-jadval).

10.3.1-jadval

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq STAVKALARI

№	To‘lovchilar	1 kub metr uchun stavka (so‘m)	
		yer ustli suv resurslari manbalari	yer osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barchatarmoqlaridagi korxonalar (2-4-bandlardako tsatilganlaridan tashqari)	35,8	45,5
2.	Elektrostansiyalar	10,3	15,4
3.	Kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	19,7	25,4
4.	Yagonayer soligini to‘lashgao‘tmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari, dehqon xo‘ja-liklari (yuridik vajismoniy shaxstar) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalgaoshirish jarayonidasuv resurslaridan foydalananidan jismoniy shaxslar	1,9	2,2

Yuridik shaxs tashkili etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

10.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha imtiyozlar tarkibi

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgila-nayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

2) suv uchun budgetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

3) birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar – tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, soliq imtiyozi qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

1) sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniadigan yer osti mineral suvlari hajmiga;

2) dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniadigan suv hajmiga;

3) atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishning oldini olish maqsadida chiqarib olinadigan yer osti suvlari hajmiga;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqarib olingan va qatlamdag'i bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyladigan yer osti suvlari hajmiga;

5) gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniладigan suv hajmiga;

6) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniладigan suv hajmiga.

10.5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va uning tartibi

Kalendar yil soliq davridir.

Hisobot davri quyidagilardir:

— suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'inining umumiyligi summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining elliylaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) uchun — bir oy;

— suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan solig'inining umumiyligi summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining elliylaridan kamni tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun — yil choragi;

— qishloq xo'jaligi korxonalari va yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun — kalendar yil.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiyligi summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining elliylaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno) — har oyda, hisobot oyidan keyingi

oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

2) suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiyligi summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining ellik baravaridan kamini tashkil etadigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida, yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda.

3) yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan – yilda bir marta hisobot davrining 15-dekabrigacha;

4) yakka tartibdagagi tadbirkorlar tomonidan – yilning har choragida yilning hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashni to'lovchilar tomonidan suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1-mayigacha amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar joriy yilning 15-yanvarigacha suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi yozma bildirishni belgilangan limitdan kelib chiqqan holda yoki suv yetkazib berish shartnomasiga muvofiq har oyda yoki yilning har choragida erkin shaklda taqdim etadilar.

QISQACHA XULOSALAR

Suv resurslari mamlakatimizning katta boyligi hisoblanib, undan samarali foydalanish har bir O'zbekiston Respublikasi fuqarosining burchi hisoblanadi. Shuning uchun suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash mexanizmi qanchalik mukammal bo'lmasin uni suv tanqisligi sharoitida qayta ko'rib chiqish zarurdir. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashda soliq to'lovchilarning iqtisodiy holati va hududiy joylashishiga qarab o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilash lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar kimlar hisoblanadi?*
- 2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiga nimalar kiradi?*
- 3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday soliq stavkalari mavjud?*
- 4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi qanday?*
- 5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha qanday imtiyozlar mavjud?*
- 6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash muddatlari qanday?*

Asosiy adabiyotlar

- 1. Ислом Каримов. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарилиган йил бўлади. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 36-б.*
- 2. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.*
- 3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳ-*

- камасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
 5. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2012 йил январь.
 6. Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Экемо, 2010. – 145–156 с.
 7. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.:Sharq, 2009. – 408–418 бет.
 8. Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T, To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007.– 228–260-б.
 9. Yahyoyev Q. «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti» Darslik -Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

11-BOB

YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

11.1. Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari

Yer solig'i mahalliy soliq sifatida mahalliy budgetni to'ldiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Yer solig'i soliqning maxsus turi sifatida O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydag'i «Yer solig'i to'g'risida»gi qonuniga binoan joriy etilgan. Yer solig'i yerga egalik qilish va yerdan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq sifatida olinadi.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy budgetga o'tkaziladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar tizimi vujudga kealdi. Bular sobiq ittifoq davrida amal qilgan, 1981-yil 26-yanvardagi «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida»gi farmon bilan joriy etilgan mahalliy soliqlar o'mniga joriy etilgan.

Farmonga ko'ra bir necha xil to'lovlar uy-joy egalaridan olinadigan soliq, yer solig'i, transport egalaridan olinadigan soliqlar mahalliy soliqlar jumlasiga kirar edi.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti tomon rivojlanishi darajasi rivojlangan mamlakatlar ilg'or tajribasini to'laroq hisobga olish hamda soliq qonunlarini ixchamlashtirish, takomillashtirish maqsadlarida yangi Soliq Kodeksi loyihasi ishlab chiqildi va umumxalq muhokamasidan keyin 1997-yil 24-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinib, 1998-yil 1-yanvardan amalga kiritildi.

Soliq Kodeksining qabul qilinishi soliq siyosatini davlat tomonidan amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

11.2. O'zbekiston Respublikasida yer fondi va ularning toifalarga bo'linishi

O'zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig'imlar tizimi birmuncha mukammal holda 1993-yil 7-maydag'i

«Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi qonun qabul qilinganidan so‘ng vujudga keldi.

1. Sug‘oriladigan jamoat qishloq xo‘jaligi yerlari.
2. Sug‘orilmaydigan jamoat qishloq xo‘jaligi yerlari.
3. Lalmi ekinzorlar, bo‘z yerlar.
4. Sug‘orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlari.
5. Qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligida foydalanimaydigan boshqa yerlar.
6. Shaharlar va qo‘rg‘onlarda yer uchastkalari.
7. Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalari.

11.3. Yer solig‘ining davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o‘rni

Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budgetga to‘lovlar yer solig‘i yoki yer uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to‘lanadigan ijara haqi yer solig‘iga tenglashtiriladi.

Yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalinish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalanimaydigan yer uchastkalari uchun yer solig‘i to‘laydilar.

2011-yilda davlat budgetining daromadlar qismida resurs soliqlari 2 308, 9 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lib, shundan mol-mulk solig‘i 490,5 mlrd.so‘m, er solig‘i 346,8 mlrd.so‘m, yer osti boyliklaridan foydalanganlik soliq 1409,7 mlrd.so‘m va suv resurslaridan foydalanganlik soliq 61,7 mlrd. so‘mdan iborat (11.3.1-jadval).

**O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti tizimida resurs
soliqlarining turlgan o'rni**

Ko'rsatkichlar	2006-yil	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil
	mild. so'm						
Daromadlar, davlat maqsadli jamg'armalarisiz – jami	4042,5	5100,9	7108,3	10421,4	13116,3	16178,5	20614,1
Resurs to'lovlari va mulk solig'i	768,2	931,8	1218,8	1662,5	1974,1	2308,9	2746,4
1.1 Mol-mulk solig'i	142,6	191,4	234,0	319,1	354,1	490,5	642,0
1.2 Yer solig'i	138,5	180,3	203,6	275,1	303,8	346,8	446,0
1.3 Yer osti boyliklaridan foydalanish solig'i	465,8	531,0	746,3	1024,8	1265,0	1409,7	1585,3
1.4 Suv resurslaridan foydalanish solig'i	21,3	29,1	34,9	43,5	51,2	61,7	73,1

11.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar tarkibi

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilaridir.

Ko'chmas mutk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi er solig'ini to'lovchi bo'ladi. Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs er uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

Quyidagilar yer solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:

– notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan taqdirda, notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan yer uchastkalari bo'yicha ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda yer solig'i to'lovchilar bo'ladi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

11.5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining obyekti va soliq solinadigan baza

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish obyektidir.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

– aholi punktlarining umumiyl foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiyl foydalanishdagi yerlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

– maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;

– aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

— kommunal-maishiy yerlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar).

— zaxira yerlar;

Yer uchastkasining soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi.

11.6. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari

Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabr-dagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari belgilangan.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarchining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun, yer solig'i qishloq xo'jaligi yerkari uchun belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1. Madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari – o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun.

2. Nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozi olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

3. Yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga.

4. Ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan mudatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

1. Bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiyligi foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiyligi foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari.

2. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari jumlasiga davlat qo'riqxonalarining, kompleks (Jandshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'laringning, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalarini bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalari kiradi.

3. Sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari.

4. Rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – aholining ommaviy dam olishi va sayyoqlikni tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yerlar.

5. Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar.

6. Suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shukabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar. Shuningdek suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv havzalari hamda boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab ajratilgan mintaqalari kiradi.

7. Elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar.

8. Umum davlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirkakli liniyalari va radiofiksatsiyalar, yer osti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signallari va harakatsiz belgilari, radiorelealoqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalar, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar.

9. Madaniyat, ta'lif va sog'liqni saqlash obyektlari egallagan yerlar.

10. Umumi foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar.

11. Umumi foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'llar stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalar, muassasalar va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar.

12. Shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar.

13. Sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar.

14. Aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar.

15. Magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariyyaga qarshi stansiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stansiyalari

ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, trubo-provodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xhash inshootlar egallagan yerlar.

16. Magistral issiqlik trassalari, shu jumladan nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralashtiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqliknini hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xhash inshootlar egallagan yerlar.

17. Samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviasiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalarini egallagan yerlar.

18. O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida.

19. Konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar, ularning konservatsiyasi davrida.

20. Gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar.

21. Yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar.

22. Ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sochadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llari va avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari.

Cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar. Shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalari atrofidiagi o'rmonlar; suv ta'minati manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni

sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar.

23. Qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtidan e'tiboran besh yil mobaynida.

24. Melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'o-riladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga.

25. Yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi.

26. Ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerkari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlar. Soliq qonunchiligiga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Belgilangan maqsadda bevosita foydalanilmayotgan yer uchastkalariga belgilangan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

11.7. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari

Kalendar yil soliq va hisobot davridir.

— yer solig'i har bir soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'inining hisob-kitobi

yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15-fevraliga qadar taqdim etiladi.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish soliq qonunchiligiga muvosiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1-dekabriga qadar taqdim etadi.

Yer solig'ini to'lash, yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragi, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1-iyuliga qadar – yillik soliq summasining 20 foizi.

- hisobot yilining 1-sentabriga qadar – yillik soliq summasining 30 foizi.

- hisobot yilining 1-dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, soydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilari bo'slib, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i mahalliy soliq sifatida mahalliy budgetni to'ldiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar kimlar va soliq solish obyekti nimalardan iborat?*
2. *Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari qanday?*
3. *Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi?*

Asosiy adabiyotlar

1. *Ислом Каримов.* 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтаридаған йил бўлади. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 36-б.
2. *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzasi. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишлиланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтаридаған йил бўлади» мавзусидаги маърузасини ўрганиш буйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
5. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. Ўзбекистон Республикаси Конун хужжатлари тўплами. 2012 йил январь.
6. *Никулкина И.В.* Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Эксмо, 2010. – 145–156 с.
7. *Vahobov A., Jo'rarev A.* Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.: Sharq, 2009. – 408–418-bet.
8. *Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To'ksanov Q.N.* Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007.– 228–260-b.
9. *Yahyoyev Q.* «Soliqqa tortish nazariyasи va amaliyoti» Darslik -Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

12-BOB
YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA
SOLINADIGAN SOLIQ

12.1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig‘ining tutgan o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig‘imlar tizimi birmuncha mukammal holda 1993-yil 7-maydag‘i «Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi qonun qabul qilinganidan so‘ng vujudga keldi. Mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy budgetga o‘tkaziladi (12.1.1-jadval).

12.1.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat budgeti tizimida resurs soliqlarining tutgan o‘rni

Ko‘rsatkichlar	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil
	mldr. so‘m	mldr. so‘m	mldr. so‘m	mldr. so‘m
Daromadlar, davlat maqsadli jamg‘armalarisiz – jami	7108,3	10421,4	13 116,3	16 178, 5
Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	1218,8	1662,5	1974,1 2	308, 9
1.1. Mol-mulk solig‘i	234,0	319,1	354,1	490,5
1.2. Yer solig‘i	203,6	275,1	303,8	346,8
1.3. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik solig‘i	746,3	1 024,8	1265,0	1409,7
1.4. Suv resurslaridan foydalanganlik solig‘i	34,9	43,5	51,2	61,7

12.2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish usullari

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtaсидagi farq sifatida aniqlanadi.

Normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha – tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

12.3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar tarkibi

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

– O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkonи bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining faoliyati soliq qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyat deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar;
- soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solishning soddashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

12.4. Mol-mulk bo'yicha soliqqa tortiladigan obyekt va soliq solinadigan baza

Quyidagilar mol-mulk soliq solish obyektiidir:

- 1) asosiy vositalar, shu jumladan moliaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;
- 2) nomoddiy aktivlar;

3) tugallanmagan qurilish obyektlari. Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga qurilishi shu obyekt qurilishiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda nihoyasiga yetkazilmagan obyektlar kiradi;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruksiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan obyektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyerha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarini ishga tushirish muddatlari bo'lmasligi taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko'rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish obyektini belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun quyidagilar soliq solish obyektiidir:

– O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog‘liq qaysi asosiy vositalar bo‘yicha hisob yuritayotgan bo‘lsa, o‘sha asosiy vositalar;

– ushbu doimiy muassasa faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk soliq solish obyektiidir.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko‘chmas mulk obyekti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ushbu obyektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyin o’n kun ichida ma’lum qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkalari va (yoki) nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olinadigan ular dan foydalanish huquqi soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi.

Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

– asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha – asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o‘rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang‘ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to‘lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

– normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo‘yicha – tugallanmagan qurilishning va o‘rnatilmagan asbob-uskunalar ning o‘rtacha yillik qiymati.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati soliq solinadigan bazadir.

Soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha soliq solinadigan baza mazkur obyektlarga bo'lган mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchi tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lмаган taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiyligi hajmida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

12.5. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari va ularning tabaqalanishi

Stavka soliq solinadigan bazaning o'Ichov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlari

to‘g‘risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari belgilangan (12.5.1-jadval).

12.5.1-jadval

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan
soliq stavkasi**

No	To‘lovchilar	Soliq stavkasi, soliq sofinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Yuridik shaxslar	3,5
2.	O‘zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun, bundan ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan xomashyo tovarlari mustasno: [*]	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi

* Belgilangan (me’yoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan, tugallanmagan qurilish va uskunalar qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo‘llanilmaydi.

Me’yoriy muddatlarda o‘rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig‘i ikki baravar stavka miqdorida to‘lanadi.

12.6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

1) uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlarining. Uy-joy-kommunal xo'jaligi obyektlariga quyidagilar kiradi: uy-joy fondi, vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);

2) madaniyat va san'at, ta'lif, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining;

3) yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, mакtabgacha va umumta'lif o'quv muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulkining;

4) qishloq xo'jaligi (o'simlikshunoslik, chorvachilik, baliqchilik) mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning;

5) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari obyektlarining;

6) aloqa yo'lloshlarining;

8) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlarning. Obyektlarni tabiatni muhofaza qilish, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

9) umumiyl foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

10) konservatsiya qilinishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

11) lizingga olingen mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;

12) soliq to‘lovchining balansida bo‘lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning;

13) shahar va shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashiydigan shahar yo‘lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poyezdlari);

14) tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo‘yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarning (foydalanish davriga);

15) telekommunikatsiya tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

16) ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlarning, besh yillik muddatga.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta‘minot, xalq ta’limi, madaniyat va san’at tashkilotlari;

2) uy-joy-kommunal xo‘jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo‘jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig‘ishtirish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlash-tirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodopravod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari

bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikn ni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari, o't o'chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi va shahar xo'jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalarini kiradi;

3) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishllovchilari umumiyl sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiyl soniga shtatda bo'lgan xodimlar;

4) yangi tashkil etilgan korxonalar – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz qayta tashkil etilgan yuridik shaxslar negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek boshqa korxonalar hududida shu korxonalardan ijara olingan asbob-uskunalardan foydalangan holda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi;

5) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlarini – yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

12.7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va to'lash tartibi

Kalendar yil soliq davridir. Yil choragi hisobot davridir.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi – O'zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar har oyda joriy to'lovlarni to'laydilar, mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno. Joriy to'lovlari summasi tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat)dan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida belgilanadi.

Joriy to'lovlari miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga belgilangan shakldagi ma'lumotnomani joriy yilning 20-yanvarigacha taqdim etadi.

Budgetga joriy to'lovlarni to'lash har oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

To'lanishi lozim bo'lgan, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitoblarni topshirish uchun belgilangan kundan kechiktirilmay budgetga o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi:

– O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani hisobot yilidan keyingi yilning 25-yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma'lumotnomasi asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o'n kun ichida amalga oshiradi va to'lov xabarnomasini yozadi;

– O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulk joylashgan erdag'i davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulkka ega bo'lgan norezidentlariga soliq to'lovchidan yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organdan olingan ma'lumotlar asosida to'lov xabarnomasini yozadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmasdan to'lanishi kerak.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa o'rniда shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi tarkibida mahalliy soliqlar, xususan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq iqtisodiyotimiz tayanchi, mahalliy budgetning daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni mamlakatimiz soliq tizmining bir bo'lagi hisoblanib, amalga oshirilayotgan soliq siyosati mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlariga sezilarli tarzda ta'sir etadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk soliqning tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
2. *Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirishning qanday usullari mavjud?*

3. Soliqqa tortish maqsadida mol-mulk tushunchasi va mol-mulk solig'i to'lovchilarining tarkibini tushuntirib bering.
4. Mol-mulk bo'yicha soliqqa tortiladigan obyekt va soliq solinadigan bazaga nimalar kiradi?
5. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini belgilash tartibi qanday amalga oshiriladi?
6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha qanday soliq imtiyozlari mavjud?
7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliqni hisoblash va budgetga o'tkazish tartibi qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. Ислом Каримов. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 36-б.
2. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzasi. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга багишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўкув қўлланма. – Т.: «Ўқигувчи» НМИУ, – 2012. – 382-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
5. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами. 2012 йил январь.
6. Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Эксмо, 2010. – 145–156 с.
7. Vahobov A., Jo'tayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.:Sharq, 2009. – 408–418-bet.
8. Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007.– 228–260-б.
9. Yahyoyev Q. «Soliqqa tortish nazariyası va amaliyoti». Darslik -Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

13-BOB

OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG‘I

13.1. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchilar tarkibi

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar

- O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchilardir.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lovchilar bo‘lmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydasi mustasno;
- soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

13.2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining obyekti hamda soliqqa tortiladigan baza

Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foya soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazadir.

Bunda soliq solinadigan baza olinishi lozim bo‘lgan (olangan) dividendlar summasiga, qo‘sishimcha foya solig‘i to‘lovchilar uchun esa sof qo‘sishimcha foya summasiga ham kamaytiriladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo‘lgan soliq to‘lovchilar soliq solinadigan bazani hisoblangan foya solig‘i chegirib tashlangan holda yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foydani va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta’minlash uchun haqiqatda sarflangan xarajatlarning mazkur xarajatlar summasidan hisoblab chiqilgan foya solig‘i summasiga kamaytirilgan summasini qo‘sish orqali aniqlaydi.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlariga sog‘liqni saqlash obyektlari, ta’lim obyektlari va bolalar dam olish oromgohlari kiradi.

13.3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha imtiyozlar

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilar» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta’minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanadigan yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo‘lgan xodimlar kiritiladi.

13.4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi

Stavka soliq solinadigan bazaning o‘lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i sof foydadan 8 foiz miqdorida belgilangan.

Kalendar yil soliq davridir. Yil choragi hisobot davridir.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Balansida ijtimoiy infratuzilma obyektlari bo'lgan soliq to'lovchilar budgetga to'lanadigan soliq summasini quyidagi tartibda aniqlaydi:

— agar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lanmaydi;

— agar ijtimoiy infratuzilma obyektlarini ta'minlash uchun xarajatlar summasi soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq summasidan kam bo'lsa, budgetga to'lanadigan soliq hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan haqiqatda sarflangan xarajatlar summasi o'rtaсидаги farq sifatida aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inining joriy to'lovları to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to'lovlar soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inining yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 15-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Quyidagilar joriy to'lovlarini to'lamaydi:

— hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda bo'lgan soliq to'lovchilar;

— ilgarigi hisobot davrida ijtimoiy infratuzilma obyektlarini saqlash xarajatlari summasi soliq solinadigan baza summasiga teng yoki undan ortiq bo'lgan soliq to'lovchilar;

— yagona soliq to'lovini to'lashga o'tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lash mazkur soliq bo'yicha hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirilmay amalga oshiriladi.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlatning mavjudligi mahalliy soliqlar, xususan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bilan uzviy bog'liq, chunki tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining bosh manbayi bo'lib, soliq tizimi oldida mahalliy budgetlarni mablag'lar bilan ta'minlash hamda ustivor yo'nalishdagi iqtisodiy faoliyatni soliqlar vositasida qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i nima uchun joriy etilgan?*
2. *Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilarni ayting.*
3. *Obodonlashtirish va infratuzilmaning rivojlantirish solig'ini solish obyektini aniqlang.*

Asosiy adabiyotlar

1. *Ислом Каримов.* 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарилиган йил бўлади. — Т.: Ўзбекистон, 2012. — 36-6.

2. *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор иўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
5. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2012 йил январь.
6. *Никулкина И.В.* Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Эксмо, 2010. – 145–156 с.
7. *Vahobov A., Jo'sayev A.* Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.:Sharq, 2009. – 408–418-bet.
8. *Tuxliyev B.K., Yusipov O.A., Agzamov A.T., To'ksanov Q.N.* Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007.– 228–260-б.
9. *Yahyoyev Q.* «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». Darslik -Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

V BO'LIM
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR
TO'LANADIGAN IJTIMOIY JAMG'ARMALARGA
MAJBURIY TO'LOVLAR

14-BOB
IJTIMOIY JAMG'ARMALARGA MAJBURIY
TO'LOVLAR

**14.1.Yagona ijtimoiy to'lovnini to'lovchilar tarkibi va
soliq solish obyekti**

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o'tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to'lovnini va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza soliq qonunchiligiga muvofiq to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov – har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'limgan miqdorda to'laydi.

Yagona ijtimoiy to'lovnini to'lovchilar quyidagilardir:

- yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet elliq yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;

- jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar fuqarolarning budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini (bundan buyon matnda sug'urta badallari deb yuritiladi) to'lovchilardir.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek, ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi, sug'urta badallarini to'lovchi yakka taribdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari a'zolari mustasno.

Soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'loving va sug'urta badallarining soliq solish obyektiidir.

Yagona ijtimoiy to'lovnini va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza soliq qonunchiligiga muvofiq to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lov larga nisbatan hisoblanmaydi:

1) kompensatsiya to'lovlar;

2) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli budjet yoki hayriya jamg'armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilalar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;

3) yosh mutaxassislarga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqtini uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar;

4) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlari, Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlari organlarining hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining oddiy, serjant va ofitser tarkiblarida xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar;

5) quyidagi grant mablag'lari hisobiga olinadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar:

— davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari;

— O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag'lari;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doira-sida berilgan grant mablag‘lari.

14.2. Yagona ijtimoiy to‘lovni hisoblash va to‘lash tartibi

Kalendar yil soliq davridir. Hisobot davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar uchun – bir oy.

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona ijtimoiy to‘lov yuridik shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi, sug‘urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o’tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to‘loving hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

– mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan – har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Sug‘urta badallarining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

To'lov quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

— yagona ijtimoiy to'lov — har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'limgan miqdorda to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'limgan miqdorda to'laydi.

Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

— yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har oyda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay;

— yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari — hisobot yilining 1-oktabrigacha. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kunidagi eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining identifikasiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi shart. Agar davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun — yil) uchun to'langan deb hisoblanadi.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda oyiga eng kam ish haqidan kam bo'limgan miqdorda to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'limgan miqdorda to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori uning belgilangan miqdorining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Sug'urta badallarini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

— yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan — har oyda tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay;

— yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari — hisobot yilining 1-oktyabrigacha. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kunidagi eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi shart. Agar davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun — yil) uchun to'langan deb hisoblanadi.

14.3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar va soliq solish obyekti

Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar quyidagilardir:

— yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

— oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs.

Quyidagilar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

— notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

— yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar.

Sof tushum budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarining soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasidir.

Soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun — mahsulotlar (ishlar, xizmat) qo'shilgan qiymat solig'i va mos ravishda issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, mos ravishda qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarning qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lган mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomalari bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun — ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi haq sun'ması;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun — tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun — soliq qonunchiligidagi muvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq boshqa daromadlar soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

14.4. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi

Kalendar yil soliq davridir. Hisobot davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun – bir oy.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmlarning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

– mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda.

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

14.5. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlarning o'ziga xos xususiyatlari

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi:

- kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va mos ravishda issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalari uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;
- qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, mos ravishda qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati;
- vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;
- savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun tovar oboroti;
- kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun — soliq qonunchiligiga muvofiq aniqlanadigan daromad;
- asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lgan yuridik shaxslar uchun moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar quyidagilardir:

- yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasining rezipidentlari;

— oddiy shirkat ishlarni yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) — yuridik shaxs.

Quyidagilar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmaling to'lovchilari bo'lmaydi:

— notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

— yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar;

— ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish bo'yicha ishlarni bajargantik uchun olingan daromadlar qismi bo'yicha.

Sof tushum Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmaling soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasidir.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmaling soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi quyidagilardir:

1) kommunal xo'jalik tiziminining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun — mahsulotlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i va mos ravishda issiqlik ta'minoti korxonalari uchun issiqlik quvvatining, suv ta'minoti korxonalari uchun suvning, gaz ta'minoti korxonalar uchun tabiiy gazning xarid qiymati chegirib tashlangan holda realizatsiya qilingan hajmi;

2) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun — o'z kuchlari bilan bajarilgan, mos ravishda qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi qiymati.

Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum

bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

3) vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi, shu jumladan tovarlarni sotish bo'yicha, vositachilik va topshiriq shartnomasi bo'yicha hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i chegirib tashlangan holdagi mukofot summasi;

4) savdo faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar uchun tovar oboroti;

5) kredit tashkilotlari va sug'urta tashkilotlari uchun – soliq qonunchiligiga muvofiq aniqlanadigan daromad;

6) asosiy faoliyati mol-mulkni lizingga berishdan iborat bo'lган yuridik shaxslar uchun moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq boshqa daromadlar soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo'lган hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

Kalendar yil soliq davridir. Hisobot davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun – bir oy.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisobkitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan

kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lash hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilar kiradi:

– avtovositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

– chet davlatlar avtovositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im.

Avtovositalarini oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtovositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilardir.

Chet davlatlar avtovositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im to'lovchilardir.

Yig'imlar uchun soliq solish obyekti quyidagilardir:

– avtovositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

– chet davlatlar avtovositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish.

Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

– olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtovositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtovositalarining qiymati;

— O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtovositalari;

• Avtovositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'imni to'lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) ixtisoslashtirilgan savdo tarmog'idan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar, shuningdek yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalarni oluvchi fuqarolar;

3) umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar — mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtovositalari bo'yicha;

4) faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo'lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo'lgan avtovositalari — yo'lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo'yicha (yengil avtomobillar va yo'nalishli taksilardan tashqari).

5) yuridik shaxslar — qirq tonnadan ortiq yuk ko'taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo'yicha;

6) homiylik (beg'araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagи nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek budjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar — avtovositalarini bitta tizim (davlat va xo'jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o'tkazishda;

8) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

9) avtotransport vositalarini soliq qonunchiligidagi ko'rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

14.6. Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg’armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to’lash tartibi

O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 31- yanvarda 1446-son bilan ro’yxatga olingan O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo’mitasining 2005-yil 14- yanvardagi 2005-3-son qarori bilan tasdiqlangan «maktab ta’limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish va to’lash tartibi to’g’risida» Nizom, O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O’zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to’g’risida»gi qonunining 7-moddasi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7-iyundagi 263-sonli «Budgetdan tashqari Maktab ta’limi jamg’armasini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2004-y., 22-23-son, 264-moddasi va 2004-yil 28-dekabrdagi 610-sonli «O’zbekiston Respublikasining 2005-yilgi Davlat budgeti parametrlari to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2004-y., 52-son, 523-moddasi qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan va maktab ta’limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish va to’lash tartibini belgilaydi.

O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, jamg’armaning ijro etuvchi direksiyasiga hisobot oyidan keyingi oyning 1-kunidagi holat bo’yicha hisoblangan va tushgan majburiy ajratmalar summalar, shuningdek Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo’yicha mazkur ajratmalar bo’yicha qarzdorlik to’g’risidagi tezkor hisobotni taqdim etadi.

Jamg’armaning ijro etuvchi direksiyasi majburiy ajratmalar to’lovlaridan tushgan mablag’larga tegishli bo’lgan qo’shimcha ma’lumotlarni Davlat soliq qo’mitasidan so’rash huquqiga ega.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 21-noyabrdagi «Ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg’armasini ta’lim hamda tibbiyot

muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi etib qayta tashkil qilish» to'g'risida PQ-1645-son qarori qabul qilindi.

Zamonaviy talablar va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda respublika ta'lif va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini tizimli asosda rivojlantirish hamda mustah-kamlash, ularni eng ilg'or o'quv, tashxis va davolash uskunalarini, axborot-kompyuter texnikasi bilan jihozlash, buning uchun jamlanadigan budgetdan tashqari va grant mablag'laridan o'rinni hamda samarali foydalanish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Xalq ta'lifi vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining 2012-yil 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Ta'lif muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Ta'lif va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi etib qayta tashkil qilish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 10-noyabrdagi PQ-1432-sonli qarorida awval belgilangan vazifalar bilan bir qatorda budgetdan tashqari Ta'lif va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- tasdiqlangan manzilli dasturlarga muvofiq sog'liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha ishlarni moliyalashtirish;

- zamonaviy talablar va belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda tibbiyot muassasalarini eng yangi laboratoriya, tashxis va davolash uskunalarini, kompyuter texnikasi hamda boshqa tibbiyot apparatlari, maxsus mebel va anjomlar bilan jihozlash hamda doimiy asosda tizimli qayta jihozlashni moliyalashtirish.

3. Qayta tashkil etilayotgan budgetdan tashqari Ta'lif muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va

jihozlash jamg'armasining barcha aktivlari va passivlari 2012-yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lif va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga topshirildi.

4. Quyidagilar Jamg'armaning daromadlarini shakllantirish manbalari etib belgilandi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan Jamg'armaga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy ajratmalarini to'lashdan tushadigan mablag'lar;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining budjetdan tashqari mablag'ları;
- xalqaro moliya institutlari hamda boshqa xorijiy donorlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari) va grantlari;
- sog'liqni saqlash sohasi va markazlashtirilgan investitsiyalar xarajatlari hisobiga alohida bo'lim bilan ajratiladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'ları;
- xayriya qiluvchilar — yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining mablag'ları.

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparatining boshqaruvi xodimlari soni doirasida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining markaziy apparati tarkibida boshqaruvi xodimlari soni 9 nafardan iborat Jamg'arma Ijroiya direksiyasining tuzilmasi tasdiqlandi.

Maktab ta'lmini rivojlantirish uchun kelib tushadigan mablag'lar budjetdan tashqari Maktab ta'limi jamg'armasining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahri Bosh boshqarmasining hisob-kitob-kassa markazida ochiladigan maxsus hisob raqamida jamlanadi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtiriladi.

Maktab ta'limiga majburiy ajratmalar to'lovchilari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur to'loving to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun javob beradilar.

Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi majburiy ajratmalarning kelib tushgan summalarining maqsadli ishlatalishi uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Majburiy ajratmalarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat davlat soliq xizmatining organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, davlat soliq xizmatining organlari qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy sanksiyalar qo'llash huquqiga ega.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar to'lovchilari bo'lib qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda yagona soliq to'lovi ni to'laydigan yuridik shaxslardan tashqari, tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliq solishning alohida tartibiga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek ko'rsatilgan ajratmalar to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Yuridik shaxslar deb, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob raqamiga ega bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalarning barcha turlari hisoblanadi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar to'lovchilari ular bo'yicha turlicha soliq solish obyektlari belgilangan bir qancha faoliyat turlari bilan shug'ullangan hollarda, ular alohida hisob yuritishlari va ushbu soliq solish obyektlaridan kelib chiqib belgilangan stavka bo'yicha maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarni to'lashlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy

makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Ta'lif va sog'liqni saqlash muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari 0,5 foiz miqdorida belgilandi (14.6.1-jadval).

14.6.1- jadval

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari
Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi hamda Ta'lif va tibbiyot
muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash
jamg'armasiga solinadigan majburiy ajratmalarning to'lov obyektlari**

№	To'lovchilar	To'lov obyekti
1.	Vositachilik (topshiriq) shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxona va tashkilotlar	QQSni chegirgan holda vositachilik haqi summasi
2.	Tayyorlov tashkilotlari	QQSni chegirgan holda tovar oboroti hajmi
3.	«O'zdonmahsulot» AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va g'alla qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalari)	QQSni chegirgan holda ustama va chegirma
4.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	Daromad
5.	Moliaviy ijara(lizing) xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	Foizli daromad
6.	Kommunal xo'jaliktizimining issiqlik, suv ta'minoti korxonalar	Mahsulot (ishlar, xizmattar) sotilishi hajmi, QQSni va mos ravishda issiqlikta'minoti korxonalar uchun – issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalar uchun – suvning xarid qiymatini chegirgan holda

Jamg'armaga to'lanishi lozim bo'lgan maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar summasi belgilangan majburiy ajratmalarga tortish obyekti va stavkasidan kelib chiqqan holda to'lovchilar tomonidan aniqlanadi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarning hisob-kitoblari ro'yxatdan o'tkazish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'sib boruvchi yakun bilan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2007-yil 29-dekabrdagi «Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to'grisida» 111, 2007-66-son qatoriga (2008-yil 21-yanvarda 1760-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan — «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami», 2008-yil, 3-4-son, 15-modda) muvofiq soliq qonunchiligidagi belgilangan shaklda taqdim etiladi:

— mikrofirmalar va kichik korxonalarga kirmaydigan korxonalar tomonidan — har oyda, hisobot davri (oyi)dan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida;

— mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan (bundan yagona soliq to'lovini to'lovchilar mustasno) — har chorakda, hisobot davri (choragi)dan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarni to'lash har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa — yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida amalga oshiriladi.

Maktab ta'limini rivojlantirishga majburiy ajratmalarning o'tkazilishi to'lovchilar tomonidan davlat soliq xizmatining tegishli tuman (shahar) organlari uchun xizmat ko'rsatuvchi banklarda ochilgan 901-son shartli raqamli (UNS) 20205-son tranzit hisob raqamlariga, budgetdan tashqari

Maktab ta'limi jamg'armasi daromadlar va xarajatlar tasnifining 91-bo'limi 1-paragrafida aks ettirgan holda amalga oshiriladi.

Kun davomida kelib tushgan majburiy to'lovlar summalari banklar tomonidan kun oxirida avtomatik rejimda xizmat ko'rsatuvchi banklardagi tranzit hisob raqamlaridan to'liq hajmda Jamg'armaning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahri Bosh boshqarmasining hisob-kitob-kassa markazida ochilgan maxsus hisob raqamiga ko'chiriladi.

Maktab ta'llimini rivojlantirishga majburiy ajratmalarga tortish obyekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) ulgurji savdo korxonalari uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika maxsuslashtirilgan ulgurji baza-kontoralari va ularning hududiy (viloyat, viloyatlararo va tumanlararo) bazalari uchun yalpi daromad;

2) vositachilik, topshiriq shartnomalarini va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun QQS chegirilgan holda komission taqdirlash summasi;

3) qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun QQSni chegirgan holda, o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi;

4) kredit va sug'urta tashkilotlari uchun – daromad.

5) moliyaviy ijara (lizing) xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar uchun foizli daromad;

6) tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi;

7) kommunal xo'jaligi tizimining issiqlik, suv va gaz ta'minoti korxonalari uchun – QQS va mos ravishda issiqlik ta'minoti korxonalari uchun – issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun – suv, gaz ta'minoti korxonalari uchun – tabiiy gazning xarid qiymatini chegirgan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmi;

8) «O'zdonmahsulot» AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va don qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalari) uchun – QQS chegirilgan holda ta'minot-sotish ustamasi va chegirmasi;

9) iqtisodiyotning qolgan tarmoqlari uchun – QQS va aksiz solig‘ini chegirgan holda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish hajmi.

Maktab ta’limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar to’lashdan:

– notijorat tashkilotlari, ularning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadi va tushumlaridan tashqari;

– O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O’zbekiston Respublikasi tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi ozod etiladi.

Maktab ta’limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar stavkasi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Ortiqcha to’langan majburiy ajratmalar summasi kelgusi to’lovlar hisobiga kiritiladi yoki to’lovchiga, yozma arizasi olingan kundan boshlab, o’ttiz kun ichida qaytariladi.

Maktab ta’limini rivojlantirishga majburiy ajratmalar bo’yicha ortiqcha to’lov va boshqa turdagি soliqlar hamda davlat maqsadli jamg’armalarga majburiy to’lovlar bo’yicha muddatida to’lanmagan qarzi bo’lgan taqdirda davlat soliq xizmati organlari, to’lovchining yozma arizasiga binoan, mavjud ortiqcha to’lovni ko’rsatilgan muddatida to’lanmagan qarz to’lovi hisobiga o’tkazish huquqiga ega.

Ortiqcha to’langan majburiy ajratmalar summalarini kelgusi to’lovlar hisobiga kiritish, boshqa to’lovlar hisobiga o’tkazish yoki qaytarish to’g’risidagi to’lovchilarning arizalari, ular hisobda turgan davlat soliq xizmatining tuman (shahar) organlariga kelib tushadi.

To’lovchining arizasida quyidagi ma’lumotlar ko’rsatilishi shart:

- 1) ariza beruvchining nomi;
- 2) soliq to’lovchining identifikatsiya raqami (STIR);
- 3) ariza beruvchining yuridik manzili;
- 4) kelgusi to’lovlar hisobiga kiritilishi, boshqa to’lovlar hisobiga o’tkazilishi yoki qaytarilishi lozim bo’lgan summa.

5) ortiqcha to'langan summalar o'tkazilishi amalga oshirilayotgan soliq yoki majburiy to'loving turi;

6) qaytarilishi taqdirda to'lovchining bankdagi hisob raqami va bank rekvizitlari.

To'lovchining arizasida ko'rsatilgan ortiqcha to'langan majburiy ajratmalar summasi belgilangan shakldagi taqqoslash dalolatnomasi bilan tasdiqlanishi lozim.

Ortiqcha to'langan summa bo'yicha taqqoslash dalolatnomasi ikki nusxada tuzilib, hisob-tahlil bo'limi boshlig'i, davlat soliq xizmatining tuman (shahar) organi rahbari (yoki uning o'rinosarlari) va to'lovchi tomonidan imzolanadi.

Ortiqcha to'langan majburiy ajratmalar summalarini kelgusi to'lovlari hisobiga kiritilishi, boshqa to'lovlari hisobiga o'tkazilishi yoki qaytarilishi to'lov joyi bo'yicha amalga oshiriladi.

Ortiqcha to'langan majburiy ajratmalar summalarini boshqa to'lovchining qarzdorligini qoplash hisobiga o'tkazilmaydi.

Ortiqcha to'lovnini boshqa to'lovlari hisobiga o'tkazish va qaytarish quyidagicha amalga oshiriladi:

— davlat soliq xizmatining tuman (shahar) organi hisob-tahlil bo'limi ortiqcha to'lov mavjudligi to'g'risida soliq qonunchiligiga binoan belgilangan shakl bo'yicha xulosani to'rt nusxada tayyorlaydi. Xulosa ma'sul xodim va hisob-tahlil bo'limi boshlig'i, shuningdek davlat soliq xizmatining tuman (shahar) organi rahbari (yoki uning o'rinosarlari) tomonidan imzolanadi;

Bunda, hisob-tahlil bo'limi tomonidan ushbu xulosalarnining reyestri olib boriladi:

— xulosa tuman (shahar) moliya bo'limi bilan kelishilishi lozim. Tuman (shahar) moliya bo'limi xulosani soliq organi tomonidan taqdim etilgan ortiqcha to'lovlari hosil bo'lganligini tasdiqlovchi hujatlarga mosligini tekshiradi va uni xulosalarni hisobga olish kitobida ro'yxatga oladi;

— xulosaning birinchi nusxasi hisob-tahlil bo'limida, ikkinchisi davlat soliq xizmatining tuman (shahar) organi hisobxo-

nasida, uchinchisi – tuman (shahar) moliya bo‘limida qoladi, to‘rtinchisi qaytarish to‘g‘risidagi to‘lov topshiriqnomasi bilan birgalikda bank muassasasiga beriladi;

– to‘lov topshiriqnomasi davlat soliq xizmatining tuman (shahar) organi birinchi imzo qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan rahbarlari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi va ijro uchun bank muassasasiga beriladi;

– ortiqcha to‘langan majburiy ajratmalar summalarini boshqa to‘lovlardan hisobiga o‘tkazilishi va qaytarilishi tegishli tuman (shahar) davlat soliq xizmati organlari uchun xizmat ko‘rsatuvchi banklarda ochilgan 901 (UNS) 20205-son tranzit hisob raqamlardan har kunlik tushumlar doirasida amalga oshiriladi.

QISQACHA XULOSALAR

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslardan undiriladigan ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlarning iqtisodiy tayanchi, ya’ni ijtimoiy jamg‘armalarni muntazam ta’minlab turuvchi moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy to‘lovlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
2. *Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazaga nimalar kiradi?*
3. *Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni hisoblashda matematik usullarni qo‘llash qanday amalga oshiriladi?*
4. *Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlarning turlari va soliq to‘lovchilar tarkibini tushuntirib bering.*
5. *Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar bo‘yicha soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza nimalardan iborat?*
6. *Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar bo‘yicha imtiyozlar va yig‘imlarni to‘lash tartibi qanday?*
7. *Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*

8. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning budgetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lovchilar tarkibi, soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza va imtivozlarni tushuntiring.
9. Yagona ijtimoiy to'lovnini va sug'urta badallarini hisoblashda matematik funksiyalarni qo'llash qanday amalga oshiriladi?
10. Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar, soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazaga nimalar kiradi?
11. Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi qanday?
12. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining tutgan o'rnnini tushuntirib bering.
13. Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasining tashkil etilishi va uning iqtisodiy ahamiyati nimalardan iborat?
14. Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar tarkibini tushuntirib bering.
15. Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash qanday amalga oshiriladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Ислом Каримов. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 36-б.
2. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzasi. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади» мавзусидаги маъruzasini ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Т.: «Ўқитувчи» НМИУ. – 2012. – 382-б.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустақкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
5. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. Ўзбекистон Республикаси Конун ҳужжатлари тўплами. 2012 йил январь.
6. *Никулкина И.В.* Общая теория налогообложения: Учебное пособие – М.: Эксмо, 2010. – 145–156 с.
7. *Vahobov A., Jo'rayev A.* Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik – Т.:Sharq, 2009. – 408–418-bet.
8. *Taxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To'xsanov Q.N.* Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007.– 228–260-b.
9. *Yahyoyev Q.* «Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti». Darslik – Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-yil. 16–45-betlar.

Fanning vazifasi:

A. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibi bo'yicha talabalar va davlat soliq xizmati organlari xodimlarini nazariy hamda soliq solish amaliyoti bo'yicha amaliy tomondan o'rgatish hamda soliq amaliyotida tatbiq etish.

Soliq solish amaliyoti rivojlangan chet el mamlakatlarining soliq amaliyotidagi ilg'or tajribasi va modellarini o'rganish asosida o'zimizning soliq tizimimizga mos tomonlarini qo'llashdan iboratdir.

B. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish tartibi bo'yicha talabalar va davlat soliq xizmati organlari xodimlarini nazariy hamda soliq solish amaliyoti bo'yicha amaliy tomondan o'rgatish hamda soliq amaliyotida tatbiq etish.

D. Banklarni soliqqa tortish tartibi bo'yicha talabalar va davlat soliq xizmati organlari xodimlarini nazariy hamda soliq solish amaliyoti bo'yicha amaliy tomondan o'rgatish hamda soliq amaliyotida tatbiq etish.

E. Mikrofirmalarni soliqqa tortish tartibi bo'yicha talabalar va davlat soliq xizmati organlari xodimlarini nazariy hamda soliq solish amaliyoti bo'yicha amaliy tomondan o'rgatish hamda soliq amaliyotida tatbiq etish.

F. Kichik korxonalarini soliqqa tortish tartibi bo'yicha talabalar va davlat soliq xizmati organlari xodimlarini nazariy hamda soliq solish amaliyoti bo'yicha amaliy tomondan o'rgatish hamda soliq amaliyotida tatbiq etish.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi nimalardan iborat?

A. Umum davlat soliqlari, mahalliy soliqlar va soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan soliqlar.

- B.** Sug‘urta to‘lovlari va mahalliy soliqlar.
- D.** Kommunal xizmat to‘lovlari va umum davlat soliqlari.
- E.** Kredit to‘lovlari va mahalliy soliqlar.
- F.** Foiz to‘lovlari va umum davlat soliqlari.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fani barcha iqtisodiy fanlar kabi:

- A.** O‘zining predmetiga, ya’ni izlanish obyektiga ega.
- B.** O‘zining tartibiga, ya’ni izlanish obyektiga ega.
- D.** O‘zining nazariyasiga, ya’ni izlanish obyektiga ega.
- E.** O‘zining imtiyoziga, ya’ni izlanish obyektiga ega.
- F.** O‘zining elementiga, ya’ni izlanish obyektiga ega.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanini o‘rganishdagi qanday usullar mavjud?

- A.** Umumiy va alohida usullar.
- B.** Umumiy va birlamchi usullar.
- D.** Umumiy va imtiyozli usullar.
- E.** To‘liq va alohida usullar.
- F.** Umumiy va vaqtinchalik usullar.

«Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanini o‘rganishda qanday usullardan foydalanish mumkin?

A. Foiz chiqarish, taqqoslash, koeffitsient, zanjirli bog‘lanish, korrelatsiya, matematik usullarni qo‘llash, statistik, grafik, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni davrlar bo‘yicha taqqoslash, yuridik shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini jadvallar orqali ifodalash, o‘zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta’sirini grafik usulda tasvirlash.

B. Ishlab chiqarish, taqqoslash, koeffitsient, zanjirli bog‘lanish, korrelatsiya, matematik usullarni qo‘llash, statistik, grafik, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni davrlar bo‘yicha taqqoslash, yuridik shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini jadvallar orqali ifodalash, o‘zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy

jihatdan baho berish, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash.

D. Kredit, taqqoslash, koeffitsient, zanjirli bog'lanish, korrelatsiya, matematik usullarni qo'llash, statistik, grafik, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, yuridik shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash.

E. Sug'ortalash, taqqoslash, koeffitsient, zanjirli bog'lanish, korrelatsiya, matematik usullarni qo'llash, statistik, grafik, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, yuridik shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash.

F. Yalpi tushum, taqqoslash, koeffitsient, zanjirli bog'lanish, korrelatsiya, matematik usullarni qo'llash, statistik, grafik, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni davrlar bo'yicha taqqoslash, yuridik shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini jadvallar orqali ifodalash, o'zgarishlarni aniqlash, ularga nazariy jihatdan baho berish, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning boshqa iqtisodiy kategoriyalarga ta'sirini grafik usulda tasvirlash.

Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar qaysilar?

A. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbayi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari.

B. O'zbekiston Respublikasining rezidentlari. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari.

- D.** O'zbekiston Respublikasining rezidentlari.
- E.** O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbayi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari.
- F.** O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va nerezidentlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qaroriga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari 9%,15%,35% miqdorda belgilangan?

- A.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi PQ-1449-son Qarori;
- B.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli Qarori;
- C.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi PQ-744-son Qarori;
- D.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi 532-sonli Qarori;
- E.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi PQ-1090-son Qarori.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari kim temondan belgilanadi?

- A.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan;
- B.** O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisining qarori bilan;
- C.** O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisining qarori bilan;
- D.** O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining qarori bilan;
- E.** O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirining qarori bilan.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining obyekti nimalardan iborat?

- A.** O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi nerezidentlarining

foydasi, O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ushbu bo'limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari;

B. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining foydasi, O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbayida soliq solinadigan daromadlari.

D. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

E. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi tadbirkorlarining foydasi.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va mikrofirmalarining chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

F. O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi savdo korxonalarining foydasi.

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

A. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

Boshqa daromadlar. Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'limgan operatsiyalardan olinadigan daromadlar.

B. Xarajatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

Boshqa daromadlar. Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'limgan operatsiyalardan olinadigan daromadlar.

D. Foydani realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'limgan operatsiyalardan olinadigan daromadlar.

E. Xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

Boshqa daromadlar.

F. Ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'limgan operatsiyalardan olinadigan daromadlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qaroriga muvofiq 2012-yilda qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari 20% miqdorda va nol darajali stavka belgilangan?

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi PQ-1675-son Qarori.

B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli Qarori.

D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi PQ-744-son Qarori.

E. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi 532-sonli qarori.

F. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi PQ-1090 Qarori.

Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan kim tomonidan qachon taklif qilingan?

A. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan amerika iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1950-yilda taklif qilingan va 1969-yilda Kot-d-Ivuar Respublikasida joriy etilgan.

B. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1959-yilda taklif qilingan va 1965-yilda Kot-d-Ivuar Respublikasida joriy etilgan.

D. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1951-yilda taklif qilingan va 1963-yilda Kot-d-Ivuar Respublikasida joriy etilgan.

E. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954-yilda taklif qilingan va 1960-yilda Kot-d-Ivuar Respublikasida joriy etilgan.

D. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1953-yilda taklif qilingan va 1961-yilda Kot-d-Ivuar Respublikasida joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i qachon joriy etilgan va soliq qonunchiligidagi muvofiq dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi necha foiz miqdorida belgilangan?

A. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1998-yilda joriy etilgan bo'lib, soliq qonunchiligidagi muvofiq 1998-yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 10 % miqdorida belgilangan.

B. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1993-yilda joriy etilgan bo'lib, soliq qonunchiligidagi muvofiq 1993-yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 % miqdorida belgilangan.

D. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1992-yilda joriy etilgan bo'lib, soliq qonunchiligidagi muvofiq 1992-yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan.

E. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1999-yilda joriy etilgan bo'lib, soliq qonunchiligidagi muvofiq 1999-yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan.

F. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1995-yilda joriy etilgan bo'lib, soliq qonunchiligidagi muvofiq 1995-yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 25 % miqdorida belgilangan.

Qo'shilgan qiymat solig'ida soliq to'lovchining soliq solinadigan oboroti qaysi?

- A. Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) hisoblash oboroti soliq solinadigan oborotdir.
- B. Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) muddatli oboroti soliq solinadigan oborotdir.
- C. Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan importdir.
- D. Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti soliq solinadigan oborotdir.
- E. Soliq to'lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarajatlar oboroti soliq solinadigan oborotdir.

Qo'shilgan qiymat solig'ida soliq solinadigan import qaysi?

- A. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.
- B. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.
- C. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.
- D. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.
- E. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.
- F. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar soliq solinadigan importdir.

Qo'shilgan qiymat solig'i soliq solish obyekti qaysilar?

- A. Soliq solinadigan soyda, soliq solinadigan import.
- B. Soliq solinadigan oborot, soliq solinadigan import.
- C. Soliq solinadigan daromad, soliq solinadigan import.
- D. Soliq solinadigan yalpi tushum, soliq solinadigan import.
- E. Soliq solinadigan oborot, soliq solinadigan eksport.

Aksiz to'lanadigan tovarlarni belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alash qaysi vakolatli organ tomonidan tamg'alanishi shart?

- A. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki

mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

B. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

D. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

E. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar Toshkent shahar Davlat Soliq Boshqarmasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

F. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

2012-yilga aksiz solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qaroriga muvofiq stavkalari belgilangan?

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi PQ-744-son Qarori.

B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi PQ-1675-sonli Qarori.

D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi PQ-1449-son Qarori.

E. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi 532-sonli qarori.

F. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi PQ-1090 Qarori.

Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar qaysi?

A. O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni eksport qiluvchilar.

B. O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar.

D. O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) mavjud yakka tadbirkorlar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar.

E. O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) mavjud muassasalar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar.

F. O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) realizatsiya qiluvchilar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar.

Aksiz solig'i summasi budgetga qanday muddatlarda to'lanadi?

A. Joriy oyning 12-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun.

Joriy oyning 22-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun.

Kelgusi oyning 2-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

B. Joriy oyning 15-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun.

Joriy oyning 25-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun.

Kelgusi oyning 5-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

D. Joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun.

Joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun.

Kelgusi oyning 3-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

E. Joriy oyning 18-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun.

Joriy oyning 28-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun.

Kelgusi oyning 8-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

F. Joriy oyning 19-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun.

Joriy oyning 29-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun.

Kelgusi oyning 9-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

«Aksiz» so'zi qanday ma'noni bildiradi?

A. «Aksiz» so'zi ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, chopib tashlash ma'nosini bildiradi.

B. «Aksiz» so'zi nemis tilidan kelib chiqqan bo'lib, chopib tashlash ma'nosini bildiradi.

C. «Aksiz» so'zi xitoy tilidan kelib chiqqan bo'lib, chopib tashlash ma'nosini bildiradi.

D. «Aksiz» so'zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, chopib tashlash ma'nosini bildiradi.

E. «Aksiz» so'zi rus tilidan kelib chiqqan bo'lib, chopib tashlash ma'nosini bildiradi.

F. «Aksiz» so'zi turk tilidan kelib chiqqan bo'lib, chopib tashlash ma'nosini bildiradi.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar qanday soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar?

- A.** Yagona yer uchun soliq, qo'shimcha foyda solig'i, bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).
- B.** Yer uchun soliq, foyda solig'i, imzoli va tijoratbop topilma bonuslar.
- D.** Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shimcha foyda solig'i, qa'tiy belgilangan soliq.
- E.** Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, qo'shimcha foyda solig'i, bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).
- F.** Yagona soliq to'lovi, qo'shimcha foyda solig'i, bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti qaysi?

- A.** Kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning summasi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir.
- B.** Kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning soni yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir.
- D.** Kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir.
- E.** Kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir.
- F.** Kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning turi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir.

Imzoli bonus qanday to'lov

- A.** Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun besh martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.
- B.** Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun uch martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.

D. Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun to'rt martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.

E. Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.

F. Imzoli bonus yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash va qidirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun o'n martalik qat'iy belgilangan to'lovdir.

Yer qa'ridan foydalanuvchi qanday turdag'i bonuslarni to'laydi?

- A. Oddiy bonus, tijoratbop topilma bonusi.
- B. Imzoli bonus, foyda bonusi.
- C. Imzoli bonus, tijoratbop topilma bonusi.
- D. Sifat bonusi, tijoratbop topilma bonusi.
- E. Imzoli bonus, qazilma bonusi.

Tijoratbop topilma bonusi qanday to'lov?

A. Tijoratbop topilma bonusi xizmat uchun to'lanadigan to'lovdir.

B. Tijoratbop topilma bonusi tovarlar uchun to'lanadigan to'lovdir.

D. Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziya uchun to'lanadigan to'lovdir.

E. Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lovdir.

F. Tijoratbop topilma bonusi import va eksport uchun to'lanadigan to'lovdir.

Qaysi shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshiruvchi shaxslardir?

A. Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

B. Sug'urta tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan fermer xo'jaliklari.

D. Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan xo'jaliklar

E. Tijorat banklar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Jismoniy shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

F. Yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari.

Faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdag'i tadbirkorlar.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qaroriga muvofiq 2012-yilga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari belgilangan?

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi PQ-1675-son Qarori.

B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli Qarori.

C. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi PQ-1449-sonli Qarori.

D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi 532-sonli Qarori.

E. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi PQ-1090 Qarori.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti qaysi?

A. Kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir.

B. Kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning soni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir.

C. Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalilaniladigan suv resurslari soliq solish obyektiidir.

D. Kovlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning summasi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektiidir.

E. Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalilaniladigan mahsulot resurslari soliq solish obyektiidir.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan baza qaysi?

A. Foydalilanilgan suvning hajmi soliq solinadigan bazadir.

- B. Foydalanilgan suvning tarkibi soliq solinadigan bazadir.
- D. Foydalanilgan suvning soni soliq solinadigan bazadir.
- E. Foydalanilgan suvning kimyoviy holati soliq solinadigan bazadir.
- F. Foydalanilgan suvning tozaligi soliq solinadigan bazadir.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq davri qaysi?

- A. Kalendor yil.
- B. Yarim yil.
- D. Chorak yil.
- E. Uch yil.
- F. O'n yil.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar qaysilar?

- A. Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari.
- B. Soliq huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari.
- D. Moliya huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari.
- E. Bank huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining rezidentlari.
- F. Egalik qilish huquqi, foydalanmaslik huquqi yoki moliya huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari.

2012-yilga yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qaroriga muvofiq belgilangan?

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi PQ-1090 Qarori.
- B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi PQ-1675-sonli Qarori.
- C. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi PQ-1449-son Qarori.
- D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi 532-sonli Qarori.
- E. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi PQ-744-son Qarori.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i solish obyekti qaysilar?

- A. Moliya huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari.
- B. Soliq huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari.
- C. Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari.
- D. Bank huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari.
- E. Foyda huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari.

Soliqni hisoblab chiqarish va soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi qanday?

- A. Yer solig'i har bir soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'inining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15-fevraliga qadar taqdim etiladi.

B. Yer solig'i har bir soliq davrining 10-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi bankga hisobot yilining 15-fevraliga qadar taqdim etiladi.

D. Yer solig'i har bir soliq davrining 15-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi moliya organiga hisobot yilining 25-fevraliga qadar taqdim etiladi.

E. Yer solig'i har bir soliq davrining 18-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi statistika organiga hisobot yilining 16-fevraliga qadar taqdim etiladi.

F. Yer solig'i har bir soliq davrining 11-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi g'aznachilik organiga hisobot yilining 5-fevraliga qadar taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qaroriga muvofiq 2012-yilga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 3,5 foiz miqdorida belgilangan?

A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi PQ-1675-son Qarori.

B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli Qarori.

D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi PQ-1449-son Qarori.

E. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi 532-sonli Qarori.

F. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 6-apreldagi PQ-1090 Qarori.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish obyekti qaysilar?

- A.** 1) asosiy vositalar;
- 2) nomoddiy aktivlar;
- 3) tugallanmagan qurilish obyektlari;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar.

B. 1) madaniy vositalar;

2) moddiy aktivlar;

3) tugallanmagan qurilish obyektlari;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar.

D. 1) asosiy vositalar;

2) nomoddiy aktivlar;

3) sug'urta obyektlari;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilgan asbob-uskunalar.

E. 1) import vositalar;

2) nomoddiy aktivlar;

3) eksport obyektlari;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar.

F. 1) asosiy vositalar;

2) nomoddiy aktivlar;

3) mahsulot obyektlari;

4) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan kichik korxonalar.

GLOSSARY

Soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq krediti – budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasini ma'lum muddatga kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki soliqni qaytarish shakli.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – kichik biznes subyektlarini rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladigan soliqqa tortish tartibi.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yori.

Soliq yuki – soliq to'lovchilarning muayyan davrda budjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisidir. Mamlakat miqyosida muayyan davrdagi barcha to'langan soliqlar va yig'imlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i ham soliq yukini ifodalaydi.

Soliq yukini yengillashtirish – soliqlarning foiz stavkalarining kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

Soliqlar – belgilangan va muayyan miqdorlarda undirladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalash-tirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish obyekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini birxillashtirish.

Yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidagi soliq to'lovchilar ikki guruhga bo'linadi: yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida xilma-xil mulk shaklidagi birlashmalar, korxonalar va tashkilotlar qisqacha yuridik shaxs deb ataladi.

O'z mulkiga ega bo'lgan va o'z majburiyatlarini shu mulklar bilan bajaradigan, soliq idoralarida ro'yxatdan o'tgan, bankda hisob raqamiga, mustaqil buxgalteriya balansiga ega bo'lган korxona, tashkilot, birlashma va ularning mustaqil shaxobchalariga yuridik shaxslar deb ataladi.

Yuridik shaxs maqomidan tashqari soliq to'lovchi bo'lish uchun yana, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad (foyda) olgan bo'lishi, tovar (ish, xizmat) sotishdan oborotga va boshqa mulklarga ega bo'lishlari shart.

Yuridik shaxslarning budgetga to'laydigan soliqlari to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlar daromad (foyda) solig'i va resurs soliqlaridan, egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir.

Jismoniy shaxs (fuqaro) tushunchasi – fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'Imagan shaxslar tushuniladi.

Yuridik shaxslarning daromadidan (foydasidan) soliq – bu yuridik shaxslarning hamma faoliyatidan olgan daromadlarining (foydasi) bir qismini budgetga majburiy to'lovidir. Bu yerda soliq to'lovchilar soliqqa tortish maqsadida rezident va nerezidentlarga bo'linadi.

Rezidentlar – O'zbekiston hududida tashkil etilgan va ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar yoki bosh korxonasi O'zbekistonda joylashgan bo'lib, O'zbekistondan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar bo'lib, O'zbekiston hududida hamda chet elda olgan daromadlaridan soliq to'lovchilar hisoblanadi.

Nerezidentlar – O'zbekiston hududida tashkil etilmagan yoki bosh korxonasi O'zbekistonda joylashmagan yuridik shaxslardir. Nerezidentlar faqat O'zbekiston hududida olgan daromadlaridan soliq to'laydilar.

Chet el yuridik shaxslari — rezidentlar va nerezidentlarga bo'linadi. Rezidentlar O'zbekistondagi yuridik shaxstar kabi soliqqa tortiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi nerezident yuridik shaxslar:

- doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatuvchi;
- doimiy muassasa bo'imasdan faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga bo'linadi.

Birinchi guruhdagilarning O'zbekistonda olgan daromadlari ularning soliq idoralariga taqdim etadigan deklaratsiyalari orqali soliq idoralari tomonidan hisoblab chiqilib soliqqa tortiladi.

Ikkinci guruh nerezidentlarning O'zbekiston hududidagi korxona va tashkilotlardan olgan daromadlari manbayida jami daromaddan hech qanday chegirmasiz soliqqa tortiladi (ushlanib qolinadi).

«Doimiy muassasa» tushunchasi — soliqqa tortish maqsadida O'zbekiston hududida daromad olish uchun faoliyat ko'rsatayotgan har qanday joy hamda har qanday tashkilot yoki vakolatli funksiyani bajarayotgan yuridik shaxsdir. Bu tushuncha o'z ichiga: boshqaruv o'rni, bo'lim, ofis, idora, fabrika, ustaxona, shaxta, neft yoki gaz quvuri, tosh qazish yoki har qanday foydali qazilmalar qazib oluvchi joylarni oladi.

Royalti — bu intellektual mulklardan kelgan daromadlardir. Intellektual mulklarga yangilik yaratilganligi to'g'risidagi patent, litsenziya, tovar belgisi va boshqalar kiradi.

- Investitsiya*** — korxonaning o'zi amalga oshirgan quyidagi:
- yangi qurilish shaklidagi kapital qurilishga, ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiyalash, kengaytirish va texnikaviy qayta qurollantirishga sarflangan mablag'lar;
 - imoratlar, inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari (ularning qismlarni) ishlab chiqarish maqsadlari uchun sotib olishga sarflangan mablag'lari kiradi.

Qo'shilgan qiymat solig'i — bu korxona, tashkilot va birlashmalarda yangi yaratilgan (qo'shilgan) qiymatning bir qismini budjetga majburan olishdir.

QQSdan imtiyozlar – bu korxonaning iste'molchilarga tovar ortganda, ish bajarganda, xizmat sotganda QQSni hisoblamaslik hamda budjetga soliq to'lamaslikni ifodalaydi.

QQS to'lovchilar – bu O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tovarlar importi bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Aksiz solig'i – bu ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan yoki eksport va import qilingan ba'zi tovarlar qiymatining bir qismini majburiy budjetga to'lovdir.

Aksiz solig'i obyekti – bu O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chikarilgan tovarlar, eksport va import qilingan ba'zi tovarlar oboroti hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i – bu korxonalar mulklarining dastlabki qiymati, o'rnatilmagan mulklar qiymatidan hisoblanib, ularning daromadidan budjetga to'lanadigan majburiy to'lovlardir.

Mol-mulk solig'ini to'lovchilar – bu o'z mulkiga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq to'lashning ixchamlashtirilgan tizimiga o'tgan yuridik shaxslar (savdodan tashqari) va imtiyoz olgan yuridik shaxslar bu soliqni to'lamaydilar.

Ortacha qiymat – bu asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, lizing shartnomasi bo'yicha sotib olingan vositalarning hamda ishga tushirilmagan mulklar qiymatining yil boshi va oxiridagi summalarini yarmi, boshqa oylar boshidagi balans qiymatning to'siq summalari yig'indisini 12 ga bo'lish bilan aniqlanadigan qiymatdir. Bu qiymat choraklik va yil bo'yicha aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i – yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lib, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Bu korxonalar o'z xohishlari bo'yicha budjetga yoki yagona yer solig'i to'lovchilar yoki qishloq xo'jalik korxonalari uchun belgilangan yagona soliq to'lovchilar bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslarning (noqishloq xo'jalik) yer solig'i – o'zining mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo'lgan yuridik shaxslar yer solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Soliq to'lovchilarning identifikatsion raqami (STIR) – soliq to'lovchining soliq idoralaridan ro'yxatdan o'tganligini ko'r-satuvchi datildir. Bu raqam soliq to'lovchining tegishli hisobot va hisoblarini, boshqa hujjatlarini tez topishda yordam beruvchi sondir.

Soliq qonunchiligi buzilganda qo'llaniladigan jazolar (sanksiyalar) – bu intizomsiz soliq to'lovchilarga nisbatan soliq qonunchiligi buzilganda beriladigan jazolardir. Ular uch xil bo'ladi: ma'muriy, moliyaviy va jinoiy.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – bu ma'lum bir davrda (yil) mamlakat ichida bozor bahosida yaratilgan hamma tovarlar va xizmatlarning qiymatidir.

Budget jarayoni – Davlat budgetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat budgeti tuzilmasiga kiruvchi budgetlar o'rtaсидаги о'заро munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.

Budget dotatsiyasi – o'z daromadlari va budgetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi budgetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtaсидаги farqni qoplash uchun yuqori budgetdan quyi budgetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Budgetdan mablag' ajratish – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat budgetidan budget tashkilotlariga hamda boshqa budget mablag'lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag'lari.

Budget profitsiti – muayyan davrda budget daromadlarining budget harajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

Budget ssudasi – yuqori budgetdan quyi budgetga yoxud respublika budgetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

Budget subvensiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budgetdan quyi budgetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Budget so'rovi – budget tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va budgetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rov.

Budget tashkiloti – zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat budgetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbayi hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Budget taqchilligi – muayyan davrda budget xarajatlarining budget daromadlaridan ortiq bo'lgan summasi.

Budget transferti – budgetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari.

Davlat budgeti – davlat pul mablag'lari (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari)ning markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Davlat ichki qarzları – davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Davlat maqsadli jamg'armalari – Davlat budgeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag'lardan foydalaniishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Davlat tashqi qarzi – davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

Davlat tomonidan ichki mablag'ni jalb qilish – aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan)

jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatları vujudga kelishi.

Davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish – aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini (qarzlarini) to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatları yuzaga kelishi.

Davlat qarzi – davlat tomonidan ichki mablag'ni va xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlарининг yig'indisi.

Mahalliy budjet – Davlat budgetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Moliya yili – birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

Respublika budjeti – Davlat budgetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonuqlari.

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 40-б.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Оилавий тадбиркорлик тўғрисида»ги Қонуни. – Т.: 2012 йил 26 апрель.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрдаги «Хусусий корхона тўғрисида»ги Қонуни. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. № 3 – Т.: Адолат, 2004. – 7–9 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 йил январь.
5. Ўзбекистон Республикасининг «Солиқ маслаҳати тўғрисида»ги Қонуни, – Т.: Халқ сўзи, 2006 йил 21 сентябрь.
6. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат солиқ хизмати тўғрисида»ги Қонуни. – Т.: Халқ сўзи, 1997 йил 29 август. 1–2 бет.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги Қонуни. – Т.: 1996 йил 25 апрель.
8. «Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида»ги Қонуни. – Т.: 1995 йил 21 декабрь.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-1717-сонли «Мустаҳкам оила йили» Давлат дастури. 2012 йил 27 февраль.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг 2012 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги 2011 йил 30 декабрдаги 1675-сонли Қарори.
11. «Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик» Давлат дастури. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. 07.02.2011 й. №ПҚ-1474.
12. «Монополияга қарши ишларни тартибга солиш ва рақобатни ривожлантириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 февралдаги ПФ-4191-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами – 9-сон – 2010 йил 9 март.

камасининг мажлисидаги маъruzasi. – «Халқ сўзи» газетаси, 2012 йил 20 январь.

33. *Ислом Каримов*. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. Т.: «O’zbekiston», 2012. – 36-б.

34. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида/ *И.А.Каримов*. – Т.: «Ўзбекистон», 2011. – 440-б.

35. Президент Ислом Каримовнинг мамлакатимиз мустақиллигининг йигирма йиллигига бағишлиган тантанали байрамдаги табрик сўзи// «Халқ сўзи» газетаси, 2011 йил 1 сентябрь.

36. *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепшияси (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzasi), «Халқ сўзи», 2010 йил 13 ноябрь (№ 220).

37. *Каримов И.А.* Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишта хизмат қилали. – Президент Ислом Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишлиган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъruzasi //»Халқ сўзи», 2011 йил 22 январь.

38. *Каримов И.А.* Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: «Ўзбекистон», 2010 йил, 80-бет.

39. *Каримов И.А.* Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари. – Т.: «Ўзбекистон», 2009 йил, 56-бет.

40. *Каримов И.А.* «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашни изчил давом эттириш – давр талаби». – Т.: «Халқ сўзи», 2009 йил 14 февраль.

41. *Каримов И.А.* «Инсон манбаатлари устуворлигини таъминлаш – барча ислоҳот ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир». – Т.: «Халқ сўзи», 2008 йил 9 февраль.

42. *Каримов И.А.* Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. – Т.: «Ўзбекистон», 2007 йил 39–40-бетлар.

43. *Каримов И.А.* «Янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш – асосий вазифамиздир». – Т.: «Халқ сўзи», 2007 йил 13 февраль.

44. *Каримов И.А.* «Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор». – Т.: «Халқ сўзи», 2006 йил 25 февраль.

45. *Каримов И.А.* «Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги маралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим». – Т.: «Халқ сўзи», 2006 йил 11 февраль.

46. *Каримов И.А.* «Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир». – Т: «Халқ сўзи», 2005 йил 29 январь.

47. *Каримов И.А.* Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида. – Т.: «Ўзбекистон», 2005. – 528-б.

48. *Каримов И.А.* Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: – «Ўзбекистон», 1998. – 686-б.

49. *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликнинг таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: «Ўзбекистон», 1997. – 315-б.

50. *Каримов И.А.* «Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чукурлаштириш йўлида». Т.: «Ўзбекистон», 1995 йил.

V. Darsliklar.

51. *Vahobov A.V., Malikov T.S.* Moliya. Darslik/Toshkent moliya instituti. – Т.: «Noshir», 2012. 712-bet.

52. *Srojiddinova Z.X.* O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. Darslik. Т.: Incom.uz MChJ- 2010. – 500-б.

53. *Vahobov A., Jo'rayev A.* Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. Т.:Sharq, 2009. – 448-bet.

54. *Yalnouev Q.A.* Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik (qayta ishlangan)- Т.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003.– 247-bet.

55. Налоги и налогообложение: учеб. /Под ред. И.А. Майбурова. – М.: ЮНИТИ–ДАНА, 2010. – 559 с.

56. Мильков Н.В. Налоги и налогообложение: Учебник. – 7-е изд., переаб. и доп. – М.: ИНФРА–М, 2008. – 520 с.

VI. O‘quv qo‘Shinmalar.

57. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2011 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2012 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағиylanган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги «2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтаради-

ган йил бўлади» мавзусидаги маъruzani ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Тошкент: «Ўқитувчи» НМИУ, – 2012. – 382-б.

58. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунла-ри ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга ба-ғишиланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг маж-лисидаги «Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юк-салтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласди» мавзу-сидаги маъruzасини ўрганиш бўйича Ўқув-услубий мажмуа – Тошкент: «Иқтисодиёт», – 2011. – 377-б.

59. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Мам-лакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир» ҳамда «Асосий вазифамиз – Ватани-миз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир» номли маъruzаларини ўрганиш бўйича Ўқув-услубий мажмуа – Тош-кент: «Иқтисодиёт», – 2010. – 340-бет.

60. Ходиев Б.Ю., Бекнуродов А.Ш., Тухиев Б.К. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари» номли асарини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Тошкент: «Иқтисодиёт», 2009. – 120-б.

61. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. -Т.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, – 175-б.

62. Жидкова Э.Ю. Налоги и налогообложение: Учебное пособие. – М.: Эксмо, 2009.

63. Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: учеб. пособ. – М.: Эксмо, 2010. – 176 с.

64. Malikov T., Xaydarov N. Budjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. Т.: Iqtisod-moliya, TMI – 2008, 98-б.

65. Tuxliyev B.K., Yusupov O.A., Agzamov A.T., To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. – Т.: 2007. – 320-б.

66. Паскашев А.В. Налоги и налогообложение: учеб. пособие – М.: Высшее образование, 2008. – 384 с.

67. Toshmuradova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. O'quv qo'llanma, -Т.: TMI, 2005. – 158-б.

68. Zavatishina I.A. Soliqlar: nazariyasi va amaliyot. – Т.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2005.

VII. Statistika to'plamlari ma'lumotlari.

69. Инвестиции Республики Узбекистан 2011. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2011. – 148 с.
70. «O'zbekiston iqtisodiyoti Axborotnomasi» jurnali.
71. Инвестиции Республики Узбекистан 2010. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2010. – 148 с.
72. Промышленность Республики Узбекистан 2009. Статистический сборник. – Т.: Госкомитет РУз по статистике, 2009. – 156 с.
73. O'zbekiston Respublikasi soliq organlari faoliyatining 2011-yilgi natijalari.-Т.: DSQ, 2012.
74. «O'zbekiston Iqtisodiyoti» statistik ma'lumotlar to'plami.-Т.: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, 2011.

VIII. Internet saytlari

75. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
76. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
77. www.sb.uz – O'zbekiston Respublika Mərkəziy banki sayti.
78. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.
79. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.
78. www.bankir.uz-O'zbekiston Respublikasi Banklari uyushmasi sayti.
79. Экономики России. «<http://www.imce.ru>»
80. «Norma» 2012.
81. «Pravo» 2012.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I bo'lim. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining maqsadi, predmeti va vazifalari

1-bob. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti, mohiyati va maqsadi

1.1. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining maqsadi va vazifasi....	7
1.2. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining predmeti va o'r ganish usullari.....	8
1.3. «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish» fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.....	11
1.4. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishning asosiy tamoyillari.....	11

II bo'lim

Yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortish tartibi

2-bob. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining o'ziga xos xususiyatlari

2.1. Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.....	16
2.2. Soliq munosabatlarining subyektlari.....	18
2.3. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari tarkibi va soliq solish obyekti.....	23
2.4. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi.....	24
2.5. Yuridik shaxslarning xarajatlarini guruhlash.....	32
2.6. Kredit tashkilotlarining daromadlariga soliq solish tartibi.....	56
2.7. Sug'urta tashkilotlarining daromadlariga va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari.....	58
2.8. O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlariga soliq solish.....	61
2.9. Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga hamda oddiy shirkat ishtirokchilarining daromadlariga soliq solish.....	70

2.10. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.....	72
2.11. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va to'lash tartibi.....	76

III bo'lim. Soddalashtirilgan soliq tizimi

3-bo'b. Tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqni undirish tartibi

3.1. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan oldinadigan qat'iy belgilangan soliqni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.....	82
3.2. Tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar va soliq solish obyekti.....	83
3.3. Tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq bo'yicha soliq stavkalari va soliq solinadigan baza.....	84
3.4. Tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliqni hisoblash va to'lash tanibi.....	85

4-bo'b. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi

4.1. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotiga tatbiq etilishi.....	87
4.2. Soddalashtirilgan soliq tizimining rivojlatish bosqichlari.....	88
4.3. Soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati.....	89
4.4. Soddalashtirilgan soliq tizimining tarkibiy tuzilishi.....	90
4.5. Yagona soliq to'lovi va uning amal qilish jarayoni.....	92
4.6. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibi va yagona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibiga kirjtilish mezoni.....	93
4.7. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'loving soliq obyekti va soliq solinadigan baza.....	97
4.8. Yalpi tushum va uning tarkibi.....	99
4.9. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha taqdim etilgan imtiyozlar va preferensiyalar.....	104

4.10. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi.....	108
---	-----

**5-bob. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari
uchun yagona soliq to'lovi**

5.1. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi to'lovchilari tarkibi.....	111
5.2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'loving soliq obyekti va soliq solinadigan baza.....	112
5.3. Yalpi tushum va uning tarkibi.....	114
5.4. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi stavkalari va soliq stavkalarining tabaqalanish mezonlari.....	119
5.5. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovini hisoblash va to'lash tartibi.....	121

**6-bob. Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari
uchun yagona yer solig'i**

6.1. Yagona yer solig'i to'lovchilari tarkibi.....	126
6.2. Yagona yer solig'ini to'lash tartibini qo'shashning o'ziga xos xususiyatlari.....	127
6.3. Yagona yer solig'i obyekti va soliq solinadigan bazani aniqlash tartibi.....	129
6.4. Yagona yer solig'i bo'yicha beriladigan imtiozlar.....	129
6.5. Yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'ining belgilangan stavkasi.....	130
6.6. Yagona yer solig'i bo'yicha soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va to'lash tartibi.....	131

**IV bo'lim. Yuridik shaxslardan olinadigan
soliqlar va maxsus to'lovlari**

**7-bob. Yuridik shaxslardan undiriladigan qo'shilgan
qiymat solig'i**

7.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o'rni.....	134
7.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining rivojlanish bosqichlari.....	136
7.3. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchitari tarkibi.....	138
7.4. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish obyekti va soliq solinadigan baza.....	138

7.5. Soliq solinadigan aylanmani aniqlash.....	146
7.6. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.....	149
7.7. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi.....	157

8-bob. Aksiz solig'i

8.1. Aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni.....	167
8.2. Aksiz solig'ining o'ziga xos xususiyatlari.....	169
8.3. Aksiz solig'i to'lovchilar tarkibi va soliqqa tortish obyekti.....	170
8.4. Aksiz solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.....	173
8.5. Aksiz solig'ini hisoblash va to'lash tartibi.....	174

9-bob. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar

9.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga xos xususiyatlari.....	179
9.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilari tarkibi.....	179
9.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning obyekti va soliqqa tortiladigan baza.....	180
9.4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va ularning tabaqalanishi.....	182
9.5. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar va ularning qo'llanilishi tartibi.....	188
9.6. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni hisoblash hamda to'lash tartibi.....	189

10-bob. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

10.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	194
10.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning obyekti va uni aniqlash tartibi.....	194
10.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari.....	196
10.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibi.....	197
10.5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va uning tartibi.....	199

11-bob. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

11.1. Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari.....	203
11.2. O'zbekiston Respublikasida yer fondi va ularning toifalarga bo'linishi.....	203
11.3. Yer solig'ining davlat budgeti daromadlarini shakllantirishda tutgan o'mi.....	204
11.4. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar tarkibi.....	206
11.5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining obyekti va soliq solinadigan baza.....	206
11.6. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.....	207
11.7. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari.....	212

12-bob. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

12.1. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig'ining tutgan o'mi va o'ziga xos xususiyatlari.....	215
12.2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish usullari.....	216
12.3. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar tarkibi.....	216
12.4. Mol-mulk bo'yicha soliqqa tortiladigan obyekt va soliq solinadigan baza.....	217
12.5. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari va ularning tabaqatanishi.....	219
12.6. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar.....	221
12.7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash va to'lash tartibi.....	224

13-bob. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

13.1. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar tarkibi.....	227
13.2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ining obyekti hamda soliqqa tortiladigan baza.....	227

13.3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar.....	228
13.4. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini hisoblash va to'lash tartibi.....	228
V bo'slim. Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lanadigan ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar	
14-bob. Ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar	
14.1. Yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar tarkibi va soliq solish obyekti.....	232
14.2. Yagona ijtimoiy to'lovni hisoblash va to'lash tartibi.....	234
14.3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarни to'lovchilar va soliq solish obyekti.....	236
14.4. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarни hisoblash va to'lash tartibi.....	238
14.5. Respublika yo'll jamg'armasiga majburiy to'lovlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	239
14.6. Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarни hisoblash va to'lash tartibi.....	245
Test savollari.....	257
Glossariy.....	276
Foydalanilgan adabiyotlar.....	283

**Maxamadi Ibragimovich ALIMARDONOV
Sadirdin Karimovich XUDOYQULOV
Odil Amanovich YUSUPOV
Avazxon Talgatovich AGZAMOV**

YURIDIK SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

*Oliy o'quv yuritlari talabalari
uchun darslik*

*Muharrir Xudoyberdi Po'latxo'jayev
Badiiy muharrir Yasharbek Rahimov*

*Texnik muharrir Yelena Tolochko
Kichik muharrir Gulbayra Yeraliyeva*

Musahhih Umida Rajabova

Kompyuterda sahifalovchi Gulchehra Azizova

Litsenziya raqami AI № 163, 09.11.2009. Bosishga 2013-yil 31-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84^{\frac{1}{16}}$. Ofset qog'oz. Tayms garniturasi. Sharqli bosma tabog'i 17,20. Nashr tabog'i 13,57. Adadi 300 nusxa. Shartnoma № 70-2013. Buyurtma № 68-10. Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30. Telefon: (371) 244-10-45. Faks (371) 244-58-55.

«TAFAKKUR-BO'STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent shahar, Chilonzor ko'chasi, 1-uy.